

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:  
TIL VA MADANIYAT

Adabiyotshunoslik

2023 Vol. 1 (2)

[www.literature.tsuull.uz](http://www.literature.tsuull.uz)

ISSN 2181-922X

# O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

ADABIYOTSHUNOSLIK

2023 Vol. 1(2)

[www.literature.tsuull.uz](http://www.literature.tsuull.uz)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov

**Bosh muharrir o'rinbosarlari:** Nurboy Jabborov  
Bahodir Karimov

**Mas'ul kotib:** Sohiba Madirimova

### **Tahrir kengashi**

Nusratulla Jumaxo'ja, Iqboloy Adizova, Dilnavoz Yusupova, Abdulla Ulug'ov, Islom Yoqubov, Qo'ldosh Pardayev, Umida Rasulova, Akrom Dehqonov, Olim To'laboyev, Tozagul Matyoqubova, Abdumurod Tilavov, Nodir Jo'raqo'ziyev, Shahlo Hojiyeva, Shermuhammad Amonov, Orzigul Hamroyeva, Ismoilov Ilyos, Ilhom Sayitqulov, Oybarchin Abdulhakimova, Sohiba Umarova, Ruxsora Tulabayeva, Yulduz Muhamadiyeva, Gulrux Xudoyorova, Yulduz Abdulhakimova, Soatova Gulzoda, Dildora Rahmonova, Furqat To'xtamurodov.

### **Jurnal haqida ma'lumot**

**“Adabiyotshunoslik”** – “O‘zbekiston: til va madaniyat” jurnaling adabiyotshunoslik yo‘nalishidagi seriyasi bo‘lib, yilda ikki marta nashr etiladi.

Jurnalning **“Adabiyotshunoslik”** seriyasida o‘zbek va jahon adabiyoti tarixi, xalq og‘zaki ijodi, adabiyot nazariyasi, o‘zbek mumtoz adabiyotining qo‘lyozma manbalari va matnshunoslik muammolari, jadidchilik va jadid adabiyoti, zamonaviy adabiy jarayon, adabiy tanqid hamda qiyosiy adabiyotshunoslik yo‘nalishidagi eng yangi tadqiqotlar e‘lon qilinadi. O‘zbek va jahon adabiyotshunosligi erishgan so‘nggi yutuqlari aks etgan ilmiy maqolalarni nashr etishga alohida diqqat qaratiladi. Maqolalarning ilmiy saviyasi va tahliliy quvvati yuqori bo‘lishiga e‘tibor beriladi.

**“Adabiyotshunoslik”** seriyasida O‘zbekiston va xorijiy davlatlarning e‘tirof etilgan atoqli olimlari, oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar hamda magistrantlarning ilmiy maqolalari nashr etiladi.

**“Adabiyotshunoslik”** seriyasi 2022-yil yanvar oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

**Email:** [adabiyotshunoslik2022@gmail.com](mailto:adabiyotshunoslik2022@gmail.com)

**Website:** [www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

[www.literature.tsuull.uz](http://www.literature.tsuull.uz)

## MUNDARIJA

### Mumtoz adabiyot tarixi

<b>Qo'ldosh Pardayev</b> "Al-isloh" jurnalida ta'lim islohi masalasining yoritilishi.....	4
<b>Ilyos Ismoilov</b> Nizomiy va Navoiy: bir mavzuning turfa talqini.....	18
<b>Hamroyeva Orzigul</b> Qofiya turlarining nazariy asoslari, tasnifi.....	33
<b>Yulduz Abdulhakimova</b> Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliy "Layli va Majnun" dostonlari muqaddimalarining qiyosiy tahlili.....	61
<b>Gulzoda Soatova</b> Elbekning yangi hikoyalari tahlili.....	84

### Zamonaviy adabiyot muammolari

<b>Umida Rasulova</b> Ijodkor uslubi va badiiy mahorat.....	96
<b>Ruxsora Tulabayeva</b> Xudoyberdi To'xtaboyev fenomeni.....	110
<b>Uljon Boboqulova</b> Lirikada obraz tasnifi va talqini (Abdulla Oripov she'riyati misolida)...	121

## MUMTOZ ADABIYOT TARIXI

**“Al-isloh” jurnalida ta’lim islohi masalasining yoritilishi**Qo’ldosh Pardayev<sup>1</sup>**Abstrakt**

Jadid ziyolilarining “Oyna”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg’ona” kabi nufuzli nashrlaridan “Al-Isloh”(1915-1918) jurnalidagi ilm-ma’rifatga, ta’lim islohiga doir she’riy asarlar va publitsistik maqolalar tadqiq qilingan. Jurnaldagi yosh avlod ta’lim-tarbiyasi, maktab va madrasalarda gi o’qitish tizimi borasida jadid ziyolilarining bahs-munozaralari tahlil qilinib, xolis mulohazalar yuritilgan. Jadidlarning Turkiston xalqi hayotidagi qoloqliklarni, ma’rifatsizlikni isloh qilish g’oyasi bilan yo’g’rilgan publitsistik maqolalari ilk bor birlamchi manba asosida yoritilgan. Ma’rifat targ’ibi, maktablar islohi masalasi Saidahmad Vasliy, Ziyovuddin qori, Abdulg’afforxo’ja, Xolmuhammad, To’raquli, Mubashshirxon singari ziyolilar asarlari misolida tahlil qilinib, ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilgan.

**Kalit so’zlar:** *maqola, she’r, ta’lim-tarbiya, maktab, millat, milliy uyg’onish, ma’rifat va jaholat, matbuot, dars, eski usul, yangi usul.*

**Kirish**

Jadidlar kun tartibiga qo’yilgan asosiy muammolarni hal etishda matbuotni asosiy vosita deb bildilar. Ular matbuot vositasida millat ravnaqiga to’siq bo’layotgan muammolarni hal etish, mutaraqqiy millatlar darajasiga yetish mumkinligiga qattiq ishondilar. Shu bois matbuot faollasha bordi. Yangi adabiyot, san’at va shu kabi sohalar rivojida matbuot asosiy omil bo’lib xizmat qilishi hayotiy ehtiyojga aylandi. Aslida ham, ma’rifatparvar jadidlarning maqsadi taraqqiyotga to’siq bo’layotgan muammolarga, millatni tanazzul girdobiga tortayotgan illatlarga qarshi kurashishda matbuotdan foydalanish edi. Bu davrda ilm-ma’rifatni, maktab-madrasalarni jo’shqin targ’ib qilish, ijtimoiy hayotning hamma sohalarida o’zgarish yasash

---

<sup>1</sup>*Pardayev Qo’ldosh Uzaqovich* – filologiya fanlari doktori, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** pardayev\_k@navoiy-uni.uz; kuldashparda@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0001-6426-306X

**Iqtibos uchun:** Pardayev, Q. U. 2023. “Al-Isloh” jurnalida ta’lim islohi masalasining yoritilishi” *O’zbekiston: til va madaniyat. Adabiyotshunoslik* 1 (2): 4-17.

uchun kurashish o’laroq kun tartibiga chiqdi. Tabiiyki, jamiyatning keng qatlamlarida sodir bo’layotgan bu uyg’onish harakatining boshida ma’rifatparvar jadidlar turdilar. Ular yangicha tafakkur, yangi dunyoqarash shakllanishi uchun o’z ijodiy va amaliy faoliyatlari bilan kurashdilar.

Bu davrdagi boshqa nashrlar singari “Al-Isloh” jurnalida ham Turkistonning mustamlaka holatiga tushish sabablari, xalqning og’ir iqtisodiy ahvoli haqida, adabiy muhit, yosh avlod ta’limi islohi masalasi haqida turkum maqola va she’riy asarlar chop etildi. Bu esa “Al-Isloh” jurnalining adabiy manba sifatidagi xizmati katta ekanligini ko’rsatadi.

### **Asosiy qism**

XX asr tongida millat ziyolilarining Turkiston xalqiga ma’rifat tarqatishdagi xizmatlari beqiyosdir. Ular ma’naviy–ma’rifiy ruh-dagi, o’tkir publitsistik maqolalari bilan millatni uyg’otishga, jaholat iskanjasidan ma’rifat yuksakligiga olib chiqishga intildi. Yoshlar tarbiyasiga, maktablarni isloh qilishga katta ahamiyat qaratdi. Jumladan, Mahmudxo’ja Behbudiy “Padarkush” dramasida ilmsizlik oqibati xorlik ekani g’oyasini ilgari surdi. Munavvarqori Abdurashidxonov esa 1903-yildan jadid maktablari ochib dars berish barobarida “Adibi avval” (1907), “Adibi soniy” darsliklarini yozdi. Abdulla Avloniyning “Birinch muallim” (1909), “Ikkinchi muallim” (1912) nomli darsliklari, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” kabi qo’llanmalari ham ayni maktab islohiga qaratilgan edi.

Shubhasiz, “Al-Isloh” jurnali ham bu vazifadan chetda turgan emas. Jurnal sahifalarida ta’lim islohi mavzuida va ma’rifatga targ’ib etuvchi turkum maqolalar, she’riy va nasriy asarlar e’lon qilingan. Jumladan, Mahmud Alizoda Toshkandiyning “Milliy aloqa” she’rida bunday yozadi:

*Bizda ko’p jahlu g’azab, arbobi g’aflat ichra biz,  
Ma’rifat ilmu funun aylab kirom isloh qil...  
To’y uchun sarf aylagaymiz necha yuz dinorlar,  
Rusum deb isroflar ming-ming diram isloh qil.  
Masjidu maktab madoris sori qilg’il nazar,  
Onlari ilmu odobda muntazam isloh qil*

[Mahmud Alizoda 1916, 12].

Shoirning ushbu misralarida Turkiston xalqi hayotidagi qoloq

liklarni, ma'rifatsizlikni isloh qilish g'oyasi mujassam. To'ylarni ortiqcha xarajatlar bilan dabdabali o'tkazishga zo'r berilayotgani, yana buning urf-odat deya talqin etilayotgani uning haqli e'tiroziga sabab bo'ladi.

Adabiyotshunos Nurboy Abdulhakim Munavvarqori Abdu-rashidxonovning "Ey qardoshlar, voy millatdoshlar!!! Ko'zimiz g'aflat uyqusidan ochib, atrofimizga nazar solmagimiz lozimdir. Har millat o'z saodati hol va istiqbolini (ng) muhofazatig'a birinchi vosita ilm o'lmakig'a qanoat hosil qilib, ilmu maorifg'a ortiq darajada ko'shish (harakat) qilgan bu zamonda bizlar bu g'aflat va jaholatimizda davom etsak, istiqbolimiz nihoyatda xavfli o'lub, hama olamg'a masxara va kulgu o'lmog'imizda hyech shubha yo'qdir" degan so'zlarini keltirar ekan, bunday yozadi: "Jaholat deganlari qachondir tarixda bo'y ko'rsatganu endi qaytib kelmasligi aniq bo'lgan hodisa emas. Taassuflar bo'lsinki, u har bir zamonda qaysidir ko'rinishlarda namoyon bo'laveradi. Millatni ich-ichidan yemiradi. Taraqqiyotdan necha yuz yillar orqada qolishiga sabab bo'ladi. Tanazzul girdobiga tortadi. Binobarin, har bir millatni, uning vakillarini jaholatdan qutqarguvchi yagona vosita -ilm va maorifdir. Kimki ilm va maorifga munosib darajada e'tibor bersa, shubhasiz, saodatga erishadi" [Abdulhakim 2005, 14-15].

"Al-Isloh"da ham bu masala keskin qo'yilgan. Mahmud Alizoda Toshkandiyning yuqorida zikr etilgan she'rida maktab va madrasalarni isloh qilish zarurati haqida bong urilgani sababi ham shunda.

Ma'rifat targ'ibi, maktablar islohi muammosi Saidahmad Vasliy ijodida ham alohida o'rin tutadi. Jumladan, "Al-Isloh" jurnalining 1916-yil 5-sonida olimning "Har musulmonning arab tilig'a oshno bo'lishi zarur" nomli maqolasi e'lon qilingan. Maqolada Turkiston aholisining arab tilini o'rganishi, Qur'on va hadis ma'nolarini tushu nishi, ota-bobolarimizning bu tilda yozilgan kitoblarini o'qib, ma'rifat hosil qilishi zarurati ta'kidlanadi. U kuyunchaklik bilan yozadi:

"Katta-katta shaharlarimizda, buyuk-buyuk madrasalarimizda xiyli talabalar kamoli ixloslari ilan sarfi umru sarfi aqcha qilub, oxir qasd etub tahsil qiladurg'on darslaridin va o'qub yurgan ilmlaridin bir durustroq nimarsa hosil qilmasdan, ko'ngillari qorayub, xafaliklaridin ikki uch yil ba'dalida boshqa bir ish ixtiyor qilurlar..." [Vasliy 1916, 123].

Muallif yosh avlodning aziz vaqtini behuda o'tkazib, ko'cha changitib, ot choptirib yurishidan, boylarning farzandlari maktab va madrasalarni pora berib tamomlashidan, oqibatda o'z oilasiga fojia

keltirishidan iztirobga tushadi. Vasliy birgina diniy bilimlar bilan chegaralanib qolmay, dunyoviy bilimlarni ham o’rganish zarurligini uqtiradi. Jaholatda qolgan “qora xalqning oqarishi”da birdan-bir vohita ma’rifat ekanini alohida ta’kidlaydi. Vasliyning “Al-Isloh” jurnali 1915-yil 17-sonida chop etilgan “Islohi tadrish haqida” sarlavhali musaddasi bu jihatdan diqqatga sazovordir.

She’rda dars islohi dinu shariat jismiga jon bag’ishlashi, dars “ko’ngillar ichra toza ruh hosil aylashi” haqidagi teran fikr betakror badiiyat bilan ifodalanadi. “Dars isloh o’lmasa, o’lmas biza fayzu futuh” deya o’sha vaqtda Turkistonda ta’lim tizimi zamon talablariga javob bermay qolganidan iztirob chekadi. Ayniqsa, shoirning “Bu zamonda olim o’lmoqg’a kerakdur umru Nuh” degan so’zlari bu iztirobning naqadar cho’ng ekanini ko’rsatadi. Vasliy kuyinish bilangina cheklanmaydi. Bu holatdan chiqish choralarini izlaydi. Natijada, “Osmoni ilm uchundur nardbon islohi dars” degan xulosaga keladi:

*Necha toliblarni ko’rdim – o’zlari as’hobi ilm,  
Bo’lmamishlar sa’yu ko’shish aylabon arbobi ilm,  
Ming tashakkurlar qilurdim har na bu tullobi ilm,  
Bu kabi toliblaradur, izzu sha’n islohi dars,  
Osmoni ilm uchundur nardbon islohi dars.*

Boshqa jadid bobolarimiz kabi Vasliy Samarqandiy ham Turkistonning o’sha davrdagi holatiga tanqidiy nazar bilan qaraydi. “Ishlari darsxonalarda “iyob ila zihob” – kelmagu ketmaktangina iborat bo’lgan, asosiy vazifasini – bilmagu bildirmakni unutgan tolibi ilmlarni ko’rib, ularning holiga achinadi. “Aylasak islohi tadrish, ey guruhi mustatob, Bo’lmas erdi holati avlodimiz bo’yla xarob” deya taassuf qiladi. Jaholatdan najot topmoqning yagona chorasi darsni – ta’lim tizimini isloh qilish ekanini ta’kidlaydi.

Musaddasning so’nggi bandida shoir ilm-ma’rifat yo’lida beg’araz xizmat qilayotgan tahamtanlar – pahlavonlar borligi uchun shukur aytadi. Islohi dars ikki dunyo naf’iga xizmat qilishini aytib, shunga da’vat etadi:

*Ori-ori bor erur yuzdan biri ahli kamol,  
Aylayur xizmat shariatning yo’lida qadri hol,  
Shu tahamtanlar baqoi shar’ uchun aylar xayol,  
Bu sharaflik fikr ilan, isloma yondoshmaz zavol.  
Alg’araz islom uchundur pushtbon islohi dars,  
Ikki dunyo naf’ig’adur bahri kon islohi dars.*



Ta'kidlash joizki, "Al-Isloh" jurnalida ta'lim islohi masalasida eng faol eshtirok etgan muallif Vasliydir. Uning "Al-Isloh" 1915-yil 13-sonida "Himmat ur-rajo" nomli maqolasi e'lon qilingan. U maqolada maktab va madrasalarning qurilish reja loyihasidan tortib, dars xonalarining ichki jihoz uskunalarigacha, dars necha yil bo'lishi kerak, bir kunda necha fan o'qitilishi zarur, talabalarning darslarni o'zlashtirishi va imtihon olish usuli qanday bo'lmog'i lozimligi haqida batafsil to'xtaladi. Turkiston ziyoli va ulamolariga quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:

1. Muddati tahsil necha sana bo'lmog'i kerak?
2. Har sanada necha oy tahsil ayyomi bo'lur?
3. Har haftada necha kun dars o'qilur?
4. Har tahsil kunlari necha dars o'qilsa nofi' bo'lur?
5. Bir sana o'qitilmish kitobning necha darsg'a taqsim bo'lmo g'i lozim?
6. Har darsning miqdori necha satru yoki necha sahifa bo'lmoq vojib?
7. Shogirdlarning tushunmamlari lozimmu? Yoki darsxonaga kirib chiqsa bo'lurmi?
8. Madrasalarg'a jahd ila shogirdni ma'lumotli qilmamlari vojibmu? Yoki kun o'tkarub, shogirdlarni boshqa ishlarg'a mardikor qilsalar joizmu?
9. Ijzat olib xatmkarda bo'lmak uchun rusumiy darslarni bil-mak, ulum va funung'a olim bo'lmak lozimmu? Yoki bir vaqti jamoa g'a sherik al-dars bo'lib, kelib-ketib, uch-to'rt so'm berib, mullajaloli javon bo'lsa kifoyami?
10. Har kim o'z boshicha umr kechurub, vaqflarni yeb, mu-darris men deb yursa bo'lurmu? Yoki ulug' ulamolarning hukumat taraflaridan nazorat va tahqiqi farzmi?" [Vasliy 1915, 225].

Saidahmad Vasliyning savollari yosh avlod kamoli, millat isti-qiqli bilan bog'liq ekani ayon ko'rinib turibdi. "Al-Isloh" bu muam moga asosiy e'tiborni qaratganini ta'kidlash kerak.

Bu masalaga boshqa ziyolilar ham befarq qaragan emas. Ular ham muhokama va munozarada faol ishtirok etdi. Aynan yuqorida-gi Vasliy savollariga javoban buxorolik Ziyovuddin qori jurnalning 1915-yil 17-sonida "Insonning bir necha vazifasi va saodati" sar-lavhali maqolasini e'lon qildi. Muallif fikricha, tahsil o'n besh yilga mo'ljallangan bo'lib, yigirma bir xil darsni ko'zda tutadi. Bir yilda to'qqiz oy o'qish, haftasiga besh kun, har kuni ikki fan o'qilishini ta'kidlaydi. Ya'ni iqtidorli talabalar ta'limni o'n ikki yilda yakun-lashi ni uqtiradi. U yozadi: "Saidahmad Vasliy janoblari bir maqola

yozib, ommaning sa’yu g’ayratini va ham fikrlarini “Al-Isloh” vositasi ila maydong’a qo’ymoqlarına rajo etmishdur..... Biz ham fikrimizni ba yon edub, ba’zi savollarına javob beramiz, lekin bizning fikrimiz hammadan avval jadval bo’yladur:

N <sup>o</sup>	Peshindan avval	Peshindan so’ng
1	Birinchi yil – sarf	Odobi ta’lim va munozara
2	Ikkinchi yil – nahv	Tarixi umumiy
3	Uchinchi yil – nahv	Tarixi umumiy
4	To’rtinchi yil – mantiq	Hisob
5	Beshinchi yil – mantiq	Handasa
6	Oltinchi yil – hikmat	Hayot
7	Yettinchi yil – hikmat	Nujum
8	Sakkizinchi yil – balog’at	Aruz
9	To’qqizinchi yil – balog’at	Qofiya
10	O’ninchi yil – usul	Farz ul- ashara
11	O’n birinchi yil – usul	Ilmi qiroat
12	O’n ikkinchi yil – aqoid	Fiqh
13	O’n uchinchi yil – aqoid	Fiqh
14	O’n to’rtinchi yil – tafsir	Hadis
15	O’n beshinchi yil – tafsir	Hadis”

Shu kabi ta’lim olish jarayonini jadval asosida ko’rsatadi. Maqola so’ngida Turkiston ulamolariga xitob qilib, maktab va mad-rasalarining ayanchli ahvoliga kuyinib, quyidagicha bong uradi: “Ey! Ustoz va ulamolar, endi vaqtni zoye’ etmangiz, bizlarning va o’zlarin-gizning moziy (o’tgan zamon) va istiqbolimizni tushuningiz: kim eduk, na o’lduk, na o’lajag’imiz, fikr eytingiz! Vatan va millat avlodi-ning ta’lim-tarbiyati sizlarning hamiyat va g’ayratingizg’a bog’lidur” [Ziyovuddin qori 1915, 331].

Ta’kidlash joizki, yosh avlod ta’lim-tarbiyasi masalasida ulamo larning fikrlari turlicha bo’lgan. Ba’zilari eski usul borobarida yan-gi usul jadid maktablarining ham tarafdori edi. Ayrimlari esa jadid maktablariga tanqidiy fikr bildirgan. Bu toifa yevropa madaniyati musulmon bolalariga salbiy ta’sir ko’rsatishidan saqlanmoq zarur, deb hisoblagan. Saidahmad Vasliy “Sadoi Farg’ona” gazetasida chop etilgan “Usuli jadid” maqolasida yangi usuli eski o’qitish tizimidan afzal ekanligini sodda va tushunarli qilib quyidagicha bayon etadi: “Emdi yangi tartibda o’qitmoqni ma’nosi shulki, maktabga kirgan bolaga saboq berish bilan bir vaqtda harflarni yozib ko’rsatur. Yangi

tartibda o'qigan bola 4-5 oyda o'qimoq va yozmoqni o'rganur... ”.

Vasliy ushbu maqolasida 10-12 yil o'qigan mullalar eng muhim ilmlardan bexabar qolganliklarini ta'kidlash bilan birga, ularning madrasalarda o'rgangan bilimlari amaliy hayot ehtiyojlari dan juda uzoq bo'lganligi hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmay, amaliyotdan ajralib qolgani haqida muhim ijtimoiy-siyosiy masalani ham ilgari surgan edi.” [Abduazizova 2000, 166].

“Al-Isloh” ning 1915-yil 8-sonida chop etilgan mulla Abdulg'af-forxo'janing “O'quv va yozuvlarning haqiqiy boislari” nomli maqolasi ham ta'lim-tarbiya masalasiga bag'ishlangan. Maqolada insonlar ning ta'lim-tarbiya olishi nechog'lik muhim ekanligi ta'kidlanadi. Talabalarining yuqori darajada o'quv va yozuv salohiyatiga ega bo'lib, kamolotga erishishi zarurligini falsafiy fikrlar bilan tushuntiradi. Ong, aql va ilm insonlar bilan hayvonni bir-biridan ajralib turishini, ilmi va ilmsiz kishining turmushidagi yashash sharoiti misolida so'z yuritib bunday yozadi: “O'quv va yozuvlarning insonlarg'a zarur ekanligi har kimga ma'lumdur, na uchunkim, o'quv va yozuv bilgan odam ila bilmagan odam miyonasida har vajdin osmon ila yercha farq bordur...” - deb nihoyatda asosli so'zlarni keltirib yozadi u.

Jurnalda xuddi shu mazmundagi maqolalar ketma-ket chop etilgan. Jurnalning 1915-yilgi 13-sonida nashr qilingan Zuhridin Fathiddinzodaning “Musulmonlarga rajo” sarlavhali maqolasida ham o'lkada kechayotgan jadid va qadimchilar munozaralari haqida so'z boradi. Maqoladan bilinadiki, muallif masalaga xolis yondashgan. Uningcha, ziyoli va ulamolar ittifoq bo'lib ish tutishi, bir-biri bilan yaxshi munosabatni tiklab, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratishi zarur. Vatan va millat istiqboli shuni taqozo etadi.

To'g'ri, jadid va qadimchilar o'rtasida keskin munozaralar bo'lganligi ma'lum. “... agar vijdon, insof ila muhokama qilsak, tavaq qufsiz va taraddudsiz eski maktablarimizni asoslaridan yiqib, joylariga tartib va intizom bilan yangi usul domlalarining himoyasida bo'lgan maktablar bino etmak lozimdir. Eski maktabdorlarimizni dehqonchilik hunarlariga sahv etmak muvofiqi haqiqatdir. Bu janobi mullalarga va eski-yangi domlalarimizga oxirgi so'zim” [Dolimov 1993, 210]. Is'hoqxon Ibratning bu fikrlaridan adabiyotshunos olim U.Dolimov shunday xulosa chiqaradi: “U (Ibrat – ta'kid muallifniki.) usuli hijo metodiga asoslangan eski maktablarni tuzatish yoki isloh qilish shiori bilan emas, aksincha ularni tag-tugi bilan tugatish va bunday maktablar o'rniga yangi, davr talablariga javob bera oladigan zamonaviy ilmlar o'rgatadigan usuli savtiya metodiga asoslangan maktablar shiori bilan chiqdi. Eski maktabdorlar, usuli qadim

tarafdorlari Is’hoqxon Ibratni “kofir”, yangi usuli savtiya maktablari-ni “kofirlar maktabi” deb e’lon qildi”.

Mirmuhsin Shermuhamedov xususida ham xuddi shunday munozaralar bo’lib o’tgan edi. O’sha kezlarda u o’z ijod namunalari va maqolalari bilan tez-tez vaqtli matbuotda ko’rinib turar edi. Lekin bu uzoqqa cho’zilmadi. “Oyna” jurnalining 1915-yil 15-sonida “Mirmuhsin janoblariga” nomli maqola-murojaatda (“Idora” (ya’ni, tahririyat) tomonidan chiqarilgan) uning mazkur jurnalga yuborgan maqolalarida islom asosiga zid fikrlar borligi sababli ular nashr etilmasligi bildirilgan edi. Bu maqolalarni “Al-Isloh” jurnali ham rad etdi. Shundan so’ng u ulamolardan qochib “1916-yilning erta kuzi da Ufaga “Oliya” madrasasiga o’qishga ketadi. O’qishni tugatgach, 1917-yilning erta bahorida Toshkentga qaytadi. Ko’p o’tmay, Avloniy ning “Turon” gazetasida “Tarixiy ikki voqeya” (2-son) maqolasi bosiladi. Maqola fevral inqilobi munosabati bilan yozilgan bo’lib, unda “Aziz millat bolalarin ranglarin sap-sariq somon qilg’on, chochlarin bellarig’a tushirg’on, ochlikdan tishlarin kirlarin so’rdirg’on Buxoro va Xivadagi dahshatli, qorong’u zax zindonlar”, “maorif dushmani sudrama chopon jonli tegirmonlar”, “qozi-kalon, qushbegi, oftobachi – tag’in nima balolar ismi ila shuhratlang’on buxoroni mikroblari” – deb ayovsiz tanqid qilingan edi” [Qosimov 2002, 383].

Maqola katta janjalga sabab bo’ldi. Ulamolarni majlisida Mirmuhsin va Avloniy masalasi ko’rildi. Mirmuhsin qochib yashirindi. Avloniyning esa tavba-tazarru qilishga, gazetaning 3-sonida “E’tizor” maqolasi bilan chiqishga va matbuot orqali uzr so’rashga majbur etdilar. Avloniydan gazeta chiqarmaslik haqida tilxat olindi. Mirmuhsin sazoyi qilindi, kaltaklandi. Orenburgda chiqadigan “Sho’ro” jurnali unga o’z sahifalaridan keng o’rin berdi va Mirmuhsinni himoya qilib chiqdi, - deb yozadi professor Begali Qosimov.

Mirmuhsin masalasi o’sha payt nuqtayi nazaridan deyarli barcha matbuot nashrlarida yoritilgan. Lekin birontasida ham unga ijobiy fikr bildirilgan emas. Bu masala “Al-Isloh” jurnalida ham muhokama qilindi. Jurnalning 1917-yil 14-sonida mulla Xolmuhhammad To’raqulining “Ulamoi kiromlardan rajo” nomli maqolasi-da Mirmuhsinning ulamolarni tomonidan kaltaklanishi, uni kofir deb e’lon qilinishi haqida so’z yuritilgan. Muallif Mirmuhsinning kofir deyilishini asossiz deb hisoblaydi va bunday yozadi: “Mirmuhsinni kofirga hukm etmoqlari necha vajhdin shariatga muxolifdur. Birinchi, Mirmuhsinni aytgan so’zidin oni irodasin anglamoq lozim edi, agarda iroda boshqa ma’noda bo’lib, lafzi xatog’a ketsa kofir o’lmas. Ikkinchi, Mirmuhsinni uzri mavjud o’la turib, kofirg’a hukm etmoq

xatodir. Uchinchi, ilmi nahvni tahqir etmoq bilan kofirg'a hukmi durust emas...".

O'sha murakkab va ziddiyatli sharoitda Mirmuhsin haqida bunday fikr bildirish jasorat edi. Xolmuhammad To'raquli bu munozaralarga xolis baho beradi. U maqola so'ngida ulamolarga nasihat qilib, o'zlarining nuqsonlari, xatolari borligi haqida ham aytib, bir-biri bilan ittifoq bo'lishga da'vat etadi: "Muhtaram ulamolar jadidchilarni aybin tajassi ediyurlar. Ammo o'z taraflaridagi nuqsonni ikmol etmoqni xayolig'a-da keltirmaslar, balki o'zlari-da aslo nuqsonini tasavvur etmazlar... Matbuotlarda muloyim nasihatlar bilan alarg'a tanbeh etmoq bu vasila bilan diniy islohlarni ulamoi kiromlar o'z qo'llarida tutub, dunyoviy islohlarni yoshlarg'a topshurub, ittifoq ila ish ko'rmoq lozimdur..." Bunday maqolalar tahlilida biz shu narsani bilib olishimiz mumkinki, ayrim mutaassib ulamolar jadidlarga ham, qadimchilarga ham bir yoqlama qaragan. Natijada ixtiloflar keskinlashgan, ziddiyat tobora chuqurlashib borgan.

Bunday qarashlar Mullo Hoshim Hayratiy asarlariga ham xosdir. U Turkiston xalqining ma'rifatsizligini, ta'lim tizimining talabga javob bermay qolgani, ziyolilar ta'lim masalasida bir tanu bir jon bo'lib, ish ko'rmayotgani, jaholat botqog'iga botishining bosh sababi jadid-qadim munozaralari deb bildi. Ayni shu masalada jurnalning 1917-yil 14-sonida chop etilgan "Munosib zamon" nomli she'rida bunday yozadi:

*Qayda rahmat bizni Turkistonni bu kirdorig'a,  
Doimo qo'ygay qadam bir-birlarin ozorig'a,  
Gina molin keltirur nafsoniyat bozorig'a,  
Ittifoq o'lmay diyorin berdilar ag'yorig'a,  
To bu dam voqif emas bu qissani asrorig'a*

[Mullo Hoshim 1917, 331].

Shoir ittifoq haqida fikr bildirar ekan, mustamlakachilik davrida bu ishda muvaffaqiyatlarga erishishning birdan-bir yo'li o'lkada o'zaro ixtiloflarga barham berib, ahillik bilan ilm-fanni rivojlantirish ekanini aytadi. Xalqning ittifoqsizligi natijasi o'laroq, millatning shunday ayanchli ahvolga, mustamlakachilik girdobiga tushib qolganini ta'kidlaydi. Bu jihatdan Vasliyning "Ittifoq xususinda" deb nomlangan she'ri ham diqqatga molik:

*Naf'i shaxsiy ayladi doim parishon holingiz,  
Bu sababdin ketdi sizdin davlatu iqbolingiz,*

*Bo’lmadi naf’i umumiy g’oyai a’molingiz,*

*Bas emasmu ushbu urushu janjolingiz, ... [Vasliy 1917, 234].*

Vasliyning fikri ham yuqoridagi qarashlarga mutanosib. Uningcha ham, hukumat boshqa millat qo’liga o’tishining bosh sababi – ittifoqsizlik. Qachon millat ittifoq bo’lib ish ko’rsagina, yosh avlodni tarbiyalash, millatni uyg’otish, Vatanni ozod qilish, halq ma’naviyatini yuksaltirish, turmushini farovonlashtirish mumkin, degan fikrni ilgari surdi.

Jurnalda ma’rifatga chorlov ruhida yozilgan nasriy va she’riy asarlar muntazam e’lon qilib borilgan. Bu asarlarda millatning ma’rifatga, umuminsoniy qadriyatlarni tiklashga, to’g’ri yo’l topishga da’vat etilgan. Xamzaning “Taassuf” deb nomlangan she’ri bu jihatdan ayniqsa, diqqatga sazovor. Muallif bunday jaholat davrida “Al-Isloh” jurnalining ma’rifat o’chog’i bo’lishini, jamiyatdagi barcha bid’at va xurofotlarni isloh etishga umid bilan qaraydi. Hamda yaqindagina chiqib turgan matbuot nashrlarini tilga oladi:

*“Oyna”yu “Isloh”u bizda “Tolibi irfon” qani?*

*“Tujjor”u “Shuhrat”, “Taraqqiy”, “Xurshid”u, “Turon” qani?*

*Ham “Samarqand”u, “Buxoro”, “Farg’ona”, “Turkiston” qani?*

*Boisi qat’iyu do’st bo’ldi maslak to durang.*

*Oynayi marham bo’ling “Isloh”i Luqmoni jarob,*

*Oldingiz turtmang, so’kib o’zbekni bilmas deb arab,*

*Har zamonning o’z elin qonuni tab’iga qarab,*

*Yangini sochin silab, eskini soqolin tarab,*

*Eski-yangini barobar zahri boliga qarang [Hamza 1915, 619].*

She’rdan bilinadiki, Hamza ham “Al-Isloh”ning uzoq yillar davom etishini istadi. U Turkiston xalqini ittifoqlikka chaqirib, “qadim”, “jadid” degan so’zlarni tashlab, birdamlikda yashashini orzu qildi va shunga da’vat etdi.

Bunday ma’rifatsizlikdan iztirob ifodasi Mubashshirxon asarlarida ham namoyon bo’ladi. Jurnalning 1916-yil 6-sonida chop etilgan muxammasida shoir hayron: nega bizning millatimiz g’afolat uyqusini bunchalar suyadi, vahshiylikdan, ilmsizlikdan ne yaxshilik ko’rdi ekanki, ajralgisi kelmaydi:

*Zillat ermasmu sanga bir ittibo’ing bo’lmasa,*

*Sunnati payg’ambara bir amsoling bo’lmasa,*

*Vajiboti nafsinga bir ihtizoring bo’lmasa,*

*Doimo bid'atni istab imtino'ing bo'lmasa,  
Ey zamona zillating jam o'ldi, kam o'lg'oncha yo'q.*

Mubashshirxonning jaholat, qorong'ulik qurboni bo'lgan Turkiston halqiga yuragidan achinib ularni uyg'otishga, ya'ni jamiyatda o'zining munosib o'rinlarini topishga, ilm olishga, taraqqiyga undab yozgan bu she'ri o'sha kurashli yillarning marshidek jarang laydi:

*Qodir Olloh senga verdi sen ango hyech bermading,  
Gustarildi sango rohing sen ango hyech kirmading,  
Dunyoviy taxvif ila ogohlanaring bilmading,  
Oxirat sahosida sarson o'loring bilmading,  
Ey zamona zillating jam o'ldi, kam o'lg'oncha yo'q.*

[Mubashshirxon 1916, 186].

Shoir davr hayotida yuz berayotgan voqealarni ma'rifatparvarlik g'oyalarni she'riyat oynasida haqqoniy aks ettirdi, davr va sharoit taqozo etgan talablarni ko'tarinki ruhda, shior-chaqiriqlar vositasida keng ommaga yoyishga harakat qildi. "Dunyoviy taxvif ila ogohlanaring bilmading" deya u faqat ilm fanni o'rganish yo'li bilan-gina jaholatu xudbinlikdan qutulish mumkin, deb o'ylaydi. Shuning uchun ham xalqni, avvalo yoshlarni kitob-jurnal o'qib, ilm cho'qqilarini egallab, dunyo voqealaridan voqif bo'lishga undaydi.

### **Xulosa**

XX asr boshlaridagi ma'rifatchilik harakati jamiyat hayotini isloh qilish masalasini kun tartibiga qo'yar ekan, bunda yosh avlod ta'limi muammo darajasiga ko'tarildi. "Al-Isloh" dagi ta'lim islohi masalasiga doir she'riy asarlar va publitsistik maqolalar ayni shu muammo yechimiga qaratilgani ham buning tasdig'idir. Bu mavzudagi maqolalar tahlili "Al-Isloh" mualliflarining jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonning faol ishtirokchisi bo'lganini hamda jurnal o'sha davrning nufuzli nashrlaridan ekanini ko'rsatadi. Tanazzul girdobiga tushgan o'lka va uning xalqi dunyoqarashida o'zgarishlar paydo qilish, yurtni taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga olib chiqish, buning uchun o'z ta'sir doirasini kengaytirish, uzoq asrlar davomida xalq e'tiqod qilib kelayotgan islom dini qonun-qoidalarini zamona talablari bilan uyg'unlashtirish, millat ma'rifatini yuk-saltirish – jurnalda nashr etilgan adabiy asarlardan, ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy maqolalardan ko'zlangan asl muddao shu edi. "Al-Isloh" o'z nomi bilan jamiyat hayotini isloh etish, qotib qolgan qarashlarni



yangilash maqsadini ko‘zda tutgan, jurnalning butun faoliyati shunga qaratilgan edi. Umuman, “Al-Isloh” jurnali milliy uyg‘onish davri ning boshqa nashrlari qatori millatni asriy jaholat girdobidan olib chiqish, taraqqiy etgan millatlar darajasiga ko‘tarilishi kabi zamonning eng dolzarb va hech qachon eskirmaydigan vazifasi yo‘lida xizmat qildi.

### **Adabiyotlar**

- Mahmud, Alizoda Toshkandiy. 1916. *Al-Isloh* 3: 12.
- Нурбой, А. (2005). Маърифат нимадир? Жаҳолат надир? *Тафаккур*. 3: 14-15.
- Долимов, Улуғбек. 1993. *Авлоний – методист олим*. Миллий уйғониш. Тошкент: Университет.
- Қосимов, Бегали. 2002. *Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик*. Тошкент: Маънавият.
- Xolmuhammad, To‘raquli. 1917. *Ulamoi kiromlardan rajo*. *Al-Isloh* 14: 34.
- Mulla Hoshim, Hayratiy. 1917. *Munosib zamon*. *Al-Isloh* 14: 328.
- Saidahmad, Vasliy. 1915. *Islohi tadrис haqinda*. *Al-Isloh* 17:332.
- Saidahmad, Vasliy. *Ittifoq xususinda*. *Al-Isloh* 1917, 7: 234.
- Saidahmad, Vasliy. Har musulmonning arab tilig‘a oshno bo‘lishi zarur. *Al-Isloh*. 1916, 5: 125.
- Saidahmad, Vasliy. 1915. Himmat ur-rajo. *Al-Isloh* 13:225.
- Абдуазизова, Назира. 2000. *Туркистон матбуоти тарихи*. Тошкент: Академия.
- Ziyovuddin qori. 1915. Insonning bir necha vazifasi va saodati. *Al-Isloh* 17:331.
- Abdulg‘afforxo‘ja. 1915. O‘quv va yozuvlarning haqiqiy boislari. *Al-Isloh* 8:431.
- Hamza Hakimzoda. 1915. Taassuf. *Al-Isloh* 20: 619.
- Mubashshirxon. 1916. Muxammas. *Al-Isloh* 6: 186.
- Жабборов, Н. (2021). *Концепция творчества двух великих историков*. *in Library*, 21(2), 192-200.
- Makhmudovna, M. S., Saripul, A. R., & Eisar, J. (2023). ANALYSIS OF TEXT DIFFERENCES IN MUTRIB’S WORKS. *American Journal of Philological Sciences*, 3(04), 41-47.
- Madirimova, S. (2019). Mutrib Xonaxarob asarlari qo‘lyozmalarining ilmiy tavsifi. *Oltin bitiglar–Golden Scripts*, 3(3).
- Amonov, S. (2019). Khamza Poetry: Sources And Text Research. *Philology Matters*, 2019(3), 14-20.
- Mirzakarimovna, R. D., & Kayumova, F. (2023). FACTORS OF RENEWAL OF THE POETIC IMAGE IN TAVALLO’S CREATION. *American Journal Of Philological Sciences*, 3(04), 48-53.
- Kizi, S. G. N. (2021). Publication of translated works in the magazine» Education and teacher»(based on numbers from 1925–1927). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 1727-1733.



## Coverage of the issue of education reform in “Al-islah” magazine

Kuldosh Pardaev<sup>1</sup>

### Abstract

The study of poetic works and journalistic articles about the reform of knowledge and education in the journal “Al-Islah” (1915-1918) from the influential publications of modern intellectuals, such as “Oyna”, “Sadoi Turkestan”, “Sadoi Ferghana” was researched. The journal analyzed the disputes of modern intellectuals about the upbringing of the younger generation, the system of education in schools and madrassas, impartial comments were given. Jadid’s journalistic articles with the idea of reforming the backwardness and lack of enlightenment in the life of the people of Turkestan are covered for the first time based on the original source. On the example of the work of such intellectuals as Saidahmad Vasli, Ziyovuddin Kari, Abdulgafarkhoja, Khalmukhammed, Torakuli, Mubashshir Khan, the issue of promoting education and reforming schools is analyzed, and scientific and theoretical conclusions are made.

**Key words:** *article, poem, education, school, nation, national revival, enlightenment and ignorance, press, lesson, old method, new method.*

### References

- Mahmud, Alizoda Toshkandiy. 1916. *Al-Isloh* 3: 12.
- Abdulahkim, Nurboy. 2005. Maʼrifat nimadur, jaholat nadir. *Тафраккур* 3: 14-15.
- Dolimov, Ulugʻbek. 1993. *Avloniy – metodist olim*. Milliy uygʻonish. Toshkent: Universitet.
- Qosimov, Begali. 2002. *Milliy uygʻonish: jasorat, maʼrifat, fidoyilik*. Toshkent: Maʼnaviyat.
- Xolmuhammad, Toʻraquli. 1917. Ulamoi kiromlardan rajo. *Al-Isloh* 14: 34.
- Mulla Hoshim, Hayratiy. 1917. Munosib zamon. *Al-Isloh* 14: 328.
- Saidahmad, Vasliy. 1915. Islohi tadrish haqinda. *Al-Isloh* 17:332.
- Saidahmad, Vasliy. Ittifoq xususinda. *Al-Isloh* 1917, 7: 234.
- Saidahmad, Vasliy. Har musulmonning arab tiligʻa oshno boʻlishi zarur. *Al-Isloh* 1916, 5: 125.
- Saidahmad, Vasliy. 1915. Himmat ur-rajo. *Al-Isloh* 13:225.

---

<sup>1</sup>*Pardaev Kuldosh Uzakovich* – doctor of philological sciences, docent, Alisher Navoi Tashkent state university of uzbek language and literature.

**E-mail:** pardayev\_k@navoiy-uni.uz; kuldashparda@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0001-6426-306X

**For citation:** Pardaev, K. U. 2023. “Coverage of the issue of education reform in “Al-islah” magazine”. *Uzbekistan: Language and Culture. Literature* 1 (2): 4-17.

- Abduazizova, Nazira. 2000. *Turkiston ma'tbuoti tarixi*. Toshkent: Akademiya.
- Ziyovuddin qori. 1915. Insonning bir necha vazifasi va saodati. *Al-Isloh* 17:331.
- Abdul'afforxo'ja. 1915. O'quv va yozuvlarning haqiqiy boislari. *Al-Isloh* 8:431.
- Hamza Hakimzoda. 1915. Taassuf. *Al-Isloh* 20: 619.
- Mubashshirxon. 1916. Muxammas. *Al-Isloh* 6:186.
- Жабборов, Н. (2021). Концепция творчества двух великих историков. *in Library*, 21(2), 192-200.
- Makhmudovna, M. S., Saripul, A. R., & Eisar, J. (2023). ANALYSIS OF TEXT DIFFERENCES IN MUTRIB'S WORKS. *American Journal Of Philological Sciences*, 3(04), 41-47.
- Madirimova, S. (2019). Mutrib Xonaxarob asarlari qo'lyozmalarining ilmiy tavsifi. *Oltin bitiglar-Golden Scripts*, 3(3).
- Amonov, S. (2019). Khamza Poetry: Sources And Text Research. *Philology Matters*, 2019(3), 14-20.
- Mirzakarimovna, R. D., & Kayumova, F. (2023). FACTORS OF RENEWAL OF THE POETIC IMAGE IN TAVALLO'S CREATION. *American Journal Of Philological Sciences*, 3(04), 48-53.
- Kizi, S. G. N. (2021). Publication of translated works in the magazine "Education and teacher" (based on numbers from 1925-1927). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 1727-1733.

## Nizomiy va Navoiy: bir mavzuning turfa talqini

Ilyos Ismoilov<sup>1</sup>

### Abstrakt

Adabiyot tarixi jahon xalqlari tarixi bilan bevosita aloqador bo'lib, uning taqdiri insoniyat kamoloti va tanazzuli bilan parallel kechadi. Shunga muvofiq dunyo adabiyotining mavzular galereyasi ham xilma-xil, ularning orasida esa jangnoma yoki shohnoma mavzusi alohida ajralib tura-di. Bu mavzuning moyasi mashhur sarkarda, podshoh yoki pahlavonlar hayoti-faoliyati bo'lib, ulardan ba'zilari dunyo adabiyotida an'ana yoki turkum asarlar yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Butun dunyoda adabiy shon-sharaf qozongan ana shunday qahramonlardan biri Iskandar (Sharqda Iskandar, G'arbda esa Alexander The Great deb ataluvchi shaxs) bo'lib, Sharq va G'arb adabiyotiga birdek ta'sir ko'rsatgan bunday siymoni qayta uchratish mushkul. Uning nomi tillarda doston bo'ldi va amalga oshirgan ishlari ijodkorlarni ilhomlantirdi. Xususan, Iskandar mavzusi Sharqda keng yoyilib, ko'plab iskandarnomalar yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Ushbu maqolada xamsanavislik an'anasi doirasida yaratilgan ana shunday dostonlar – Nizomiy Ganjaviyning “Iskandarnoma” va Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonlari qiyosiy tahlil etish maqsad qilingan. Har ikki adibning ijodiy originalligi “Iskandarning Chinga yurishi epizodi” tasviri misolida ochib berilgan. Muallif bunda ishonchli manbalarga tayangan va o'z maqsadiga erishish uchun qiyosiy-tarixiy, madaniy-tarixiy, genetik tahlil kabi usullardan foydalangan.

**Kalit so'zlar:** *Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy, Iskandar (Aleksandr), Iskandar mavzusi, Chin (Xito), xamsa, an'ana, genezis, transformatsiya, badiiy talqin.*

### Kirish

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandarning Chinga yurishi epizodini tasvirlash uchun keng o'rin ajratgan. Aslida, bu voqea genetik jihatdan Iskandar mavzusiga begona bo'lib, u

---

<sup>1</sup>*Ismoilov Ilyos Abduqayumovich* - filologiya fanlari doktori (DSc), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbek adabiyoti tarixi kafedrasida dotsenti.

**E-mail:** ismoilov@navoiy-uni.uz

**ORCID ID:** 0000-0002-8077-7914

**Iqtibos uchun:** Ismoilov, I. 2023. “Nizomiy va Navoiy: bir mavzuning turfa talqini”. *O'zbekiston: til va madaniyat. Adabiyotshunoslik* 1 (2): 18-32.

Aleksandrning haqiqiy tarixi bilan hech qanday aloqaga ega emas. Ushbu to'qima sujet liniyasining sarchashmasi Psevdo-Kallisfenning suryoniy versiyasi bo'lib, yunon, lotin va arman versiyalarda uni uchratmaymiz.

Psevdo-Kallisfenda Aleksandrning Sin (Chin)ga safari "Saddi Iskandariy" dostonida [Navoiy 2006, 236-303] bo'lganidek alohida tasvirlangan emas, bu haqdagi tafsilotlar Aleksandr tomonidan ustozi Aristotelga yozilgan maktubning ichida muxtasar bayon qilingan. Maktubda qayd etilgan Chin safariga oid asosiy tafsilotlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: Aleksandr Hind yurishidan so'ng Sin (Chin)ga keladi va Pitos nomi bilan elchi qiyofasida Chin hukmdori huzuriga boradi, Chin hukmdorining Gundafar ismli harbiysi Aleksandrni so'roq qiladi, shohona qabul tashkil etiladi, Sin qiroli donishmandona javob berib, Aleksandrga bir yopinchiq kiyim (plash) yuborib, "bizga dunyoda nasib etadigani shu kiyimning o'lchamicha" deb pand beradi, shuningdek, ko'plab ipak, qilich, ot, mo'yna kabi qimmatbaho hadyalar yuboradi. Elchi qiyofasidagi Aleksandr minglab hadyalarni dastlab olmaslikka qaror qiladi, lekin o'zining Aleksandr ekanligini bilib qolishlaridan cho'chiydi [Pseudo-Callisthenes 1989, 109-113]. Voqealar ketma-ketligi nuqtayi nazaridan har ikki asarda Chin safari bir xil o'rinda – Hind yurishidan keyin tasvirlangan. Har ikki manbada Chin yurishining jangsiz tugashi ham voqealarning umumiy mantig'i saqlanganini ko'rsatadi.

Ammo tafsilotlar Navoiy dostoniga kelib jiddiy transformatsiyaga uchragan bo'lib, voqealarning ichki rivoji ham farqlanib ketgan. Dastlabki jiddiy transformatsiya elchilik masalasida ko'zga tashlanadi. Psevdo-Kallisfenda Aleksandr Sin hukmdori huzuriga Pitos ismli elchi qiyofasida kelsa, Navoiy dostonida xoqon Iskandar huzuriga elchi qiyofasida boradi. Qayd etish kerakki, Navoiy dostonidagi bu kabi tafovutlar, shubhasiz, Sharqdagi bir qator manbalar ta'sirida sodir bo'lgan.

Iskandarning Chinga yurishi masalasi aksar Sharq manbalarida ixtilofli. Xususan, Tabariy Iskandar Hindistondan Chinga borgani, u yerning hukmdorini o'ldirib, shaharlarini olgani, shu tariqa Chin va Tibetni bo'ysundirganini qayd etsa [Tabariy 1375 (h.), 494], Bal'amiy Iskandar Chinistonga borib, u yerdagi shaharlarni vayron etgani, maliklarini o'ldirgani, o'rniga yangitdan binolar qurib, boshqa hukmdorlar tayinlagani va Chinistondan Mag'rib tomon yo'l olganini aytadi [Bal'amiy 1353 (h.), 700]. Dinovariyga ko'ra, Iskandar Finovus (Psevdo-Kallisfendagi "Pitos" so'zining sharqona aytilishi)

nomli vazirini o'z o'rniga tayinlab, o'zi Finovus nomi bilan Chin shohi huzuriga elchi qiyofasida boradi va uni sulhga rozi qiladi [Dinovariy 1361 (h.), 39]. Mirxondning qayd etishicha, Iskandar va xoqon o'rtasida munozaralar bo'lib o'tgan, natijada xoqon Zulqarnaynga itoat etadi. Hadya yuborish rasmiga muvofiq 1000 man axmar tilla, 1000 qat harir, 5000 debolar majmuasi, qaraganning ko'zini xira qiluvchi, qabzalari durr-u javohir bilan bezatilgan 100 ta shamshir, 100 ta uchqur ot, javohir bilan bezatilgan 100 ta idish, 100 bo'lak (yoki idish) oq-qora anbar, 1000 misqol mushk, 200 ratl<sup>1</sup> ud, anvoyi surat va naqshlar bilan bezalgan idishlar, sumur, fanak, qoqumlarning minglab po'stinlari va boshqa ko'plab tansiq peshkashlar yuborib uzrxoh bo'ldi. Iskandar chinliklar bilan tinchlik borasida ahdnoma tuzadi [Mirxond 1338 (h.), 661].

Aytish mumkinki, Psevdo-Kallisfendagi epizod Dinovariy tarixi orqali Sharq tarixnavisligiga transformatsiya bo'lgan. Keyinchalik ushbu voqelik Sharqda (Xusrav Dehlaviyning "Oyinayi Iskandariy" dostonida) qayta ishlangan, yangi detal va motivlar bilan boyitilgan. Buni Mirxondning qaydlari ham tasdiqlab turibdi. Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonini yozishdan oldin, shubhasiz, ushbu tarixiy manbalar bilan yaqindan tanishgan. Biroq bu Navoiy tayangan manbalarining bir qismi, bir jihati. Navoiy Chin yurishi tasvirida tayangan ikkinchi va eng asosiy manba bu – Nizomiy Ganjaviyning "Iskandarnoma" dostonidir. Navoiy bu borada Nizomiydan ta'sirlangan, shu bilan birga, uning tasvirlarini yangilash, boyitish, tuzatish yo'lidan ham borgan. Bu kabi nozik farqlar ikki ijodkorning tasvirlarini muqoyasa qilganda ochiq ko'zga tashlanadi.

### **Asosiy qism**

Navoiyga ko'ra, Iskandar qish davomida Hindda vaqtini xush o'tkazadi, goh shahar ichra hammomga borsa, goh Roy qasriga bazm uchun borar, ba'zan shikor ishlari bilan band bo'lar edi. Shu tariqa bahor kelgach, Iskandar Chin azmiga qaror qiladi. Iskandar Chin kishvarida yurar ekan, yo'l yoqasidagi turli shaharlarni itoatga keltiradi, ularga qo'shin yubormas, balki noma yuborsa, u yer hukmdorining o'zi kelardi.

Xoqon Iskandarning Hinddan chiqib, Chin tomon kelayotganidan xabardor edi, shu bois behisob qo'shin to'plab, jangga hozirlik ko'rib qo'ygandi. Biroq u avval jang boshlashni niyat qilmagan edi, shu sabab sulh uchun rasul yuborishni maqsad qiladi. Bordiyu do'stlikka ko'nmasa, unga qarshi qo'shini bilan jang

<sup>1</sup>449.28 g ga teng og'irlik o'lchovi.

qilish, o'zini bechora, o'jiz ko'rsatmaslikka qaror qilgandi. Xoqon, dastlab, Iskandarga elchi yuboradi, elchi Doro elchisi kabi Iskandar shavkatini ko'rib, hayratda qoladi, Iskandar nozikfahmlilik bilan buni payqagach, elchi o'ziga kelib olguncha, o'zini boshqa ishlar bilan band bo'lgandek tutardi, so'ngra elchiga yuzlanib, so'zlarini bayon qilishi mumkinligini aytadi. Elchi, Iskandarning kelishdan maqsadi nimaligi, agar xohlasa, Doro kabi do'st bo'lishi mumkinligi, yo'qsa, taqdir peshonasiga nima yozgan bo'lsa, ko'rishga tayyor ekanliklarini ma'lum qiladi. Iskandar unga javoban Xoqonning Iskandarni Doro bilan teng qo'yishi to'g'ri emasligi, chunki shohning obro'si uning mulki bilan o'lchanishi va o'zining mulki ikki Doroniki qadar ekani, Doro bilan jangda Tangri unga nusrat bergani, agar Xoqon kelib itoat izhor etsa, uzrini qabul qilishi, yo'qsa, u bilan jang qilishga to'g'ri kelishini aytib, elchini ortiga qaytaradi.

Xoqon elchi so'zlaridan biladiki, Iskandar o'zi o'ylagandan dalirroq, noiloj Iskandar kelar vaqtini poylab, jangga tayyorlana boshlaydi. Qo'shinini Chin shahridan tashqari qulay yerga olib chiqib, joylashtiradi. Unga yaqin bir yerga Iskandar qo'shini ham joylashadi, ammo kech kirib qolgani bois, har ikki taraf harakatni to'xtatadilar. Iskandar erta tongda jang qilish fikrini qilardi, ammo hikmat ahli undan ikki kun bu ishga sabr qilishi, chunki sayyora-yu sobitot ikki kundan so'ng shohning ishlari muvaffaqiyatli amalga oshishiga ishora qilayotganini aytib ko'ndirishadi. U tomonda Xoqon va uning lashkari ham Iskandar qo'shini shavkatidan vahimaga tushgan, askarlar orasida turli gap-so'zlar tarqagandi. Guruh-guruh bo'lib odamlar so'zlashayotgan bu vahimali gaplarni yaqin odamlaridan biri xoqonga yetkazadi va bu ishlar borasida fikr qilib ko'rishni maslahat beradi, xoqon ham o'z xalqi va lashkariga tushgan vahmdan cho'chib, chora izlay boshlaydi. Saharda bir fikr xayoliga keladi, unga ko'ra, xoqon xos mahramini chaqirib, hech kimni huzuriga qo'ymaslik, bugun shoh odamlarni qabul qilmaslikni, agar shu kecha ortiga qaytmasa, o'zi bilganicha ish tutverishini tayinlab, elchi qiyofasida tong qorong'usida saroyini tark etadi.

Xoqon elchi qiyofasida Iskandar huzuriga boradi, shu kecha Iskandar tush ko'radi, tushida o'zi quyoshdek nur taratib turar, ammo qarshisida yana bir shunday quyosh bor bo'lib, u oldiga kelib ta'zim bajo keltirardi. Shuningdek, Iskandar hikmat ahlining ahkomida bu ikki kunda ko'plab nodir voqealar sodir bo'lishi yozilganini ham aytadi. So'ngra elchini olib kirishadi, Iskandar xabar so'raganda elchi aytadiki, xoqon menga nihoyatda muhim so'zlarni tayinlagan, shu bois uni hammaning oldida ayta olmayman va menga

bu so'zlarni faqat shohga aytish buyurilgan. Elchi agar xavfsirashsa, oyoq-qo'lini band qilib, shohning qo'liga tig' berib qo'yishlari mumkinligini aytadi. Iskandar barchaga ruxsat berib, bu ishlarga ehtiyoj yo'qligini bildiradi, ammo Arastu boshliq hakimlar iltimos qilib, elchi aytgandek uni bandi qilib, Iskandar qo'liga tig' berishadi va u yerni tark etishadi. Shundan so'ng rasul o'zining xoqon ekani, unga adovati yo'qligi, Iskandar so'zlariga kirmay gunohkor ekani, shu bois aybini tan olib zabun holda qoshiga shaxsan kelgani, uning qilgan ishlaridan boxabar ekani, unga nima sazovar ko'rmoqchi ekanini bilmoqchiligini aytadi.

Iskandar bu holdan behad taajjubga tushadi, xoqonga taskin berib, o'zi o'g'il, u ota ekanini aytib, xoqonni juda mamnun qiladi. Xoqon bu so'zlardan ko'z yoshlarini tiya olmay, shukur qilib, bu sirni elga fosh qilmaslik, sulhga rozi bo'lganini e'lon qilish, erta tongda elchi yuborib, huzuriga o'zini chorlatishi va uning kelishi, el ko'z o'ngida unga ehtiromlar ko'rsatishi, lekin xiroj tayin qilmaslik, so'ngra uning bog'ida mehmon bo'lishni iltimos qiladi. Iskandar xoqonning iltimoslarini qabul etadi va sirni ochmaslikka ham so'z beradi. So'ng uni elchilardek mehmon qilib, kuzatishlarini byuradi. Xoqon oqshomgacha u yerda komyob bo'lib, kech tushgach o'z yurtiga yo'l oladi va uni kutib turgan mahrami oldiga borib, yana o'z taxtiga o'tiradi. Keyin Iskandar xoqon huzuriga elchi yuborib, sulhga roziligi va xoqonning adovatni qo'yib, huzuriga kelishini tayinlaydi. So'ng xoqon Iskandar huzuriga keladi, ikkovi ota-boladek ko'rishadi, dasturxon yoyib xoqonni mehmon qilishadi, ular kelishuv bo'yicha ish tutib, xayrlashadilar.

Xoqon o'z shahriga qaytib kelgach, arkoni davlatni yig'ib Iskandarni mehmon qilish masalasini muhokama qiladi. Xoqon taklifi bilan Iskandar sipohi maoshining bir yilligini xalq, bir yilligini Xoqon o'z xazinasidan to'lashga va Iskandarning o'ziga ham Xoqon tuhfalar tayyorlashiga kelishib olishadi. Barcha harakatga tushib, Xoqon aytganidek quyidagi peshkashlarni hozirlashadi: 1000 ot, 1000 tuya, 1000 xachir, 1000 ta to'qqiz zarli hariru ipak gilam, 1000 ta yashil tusli toshdan turli idishlar, 1000 ta chiniy asbob-yarog', 1000 kaniz, Oinayi Chin va Lu'bati Chin. Oxirgi ikki hadya nihoyatda kamyob bo'lib, ular o'ziga xos xususiyatga ega edi. Masalan, Oinayi Chin hakimlar tomonidan har ikki yuzi tilsimlangan bo'lib, shoh uning bir yuzidan agar ikki kishi bir-biriga da'vo qilsa, kim to'g'ri so'zlayotganini aniqlash uchun foydalanardi, buning uchun so'zlovchi oynaga qarasa kifoya qilardi, agar so'zlovchining so'z chin bo'lsa, oynada yuzi ko'rinar, yolg'on bo'lsa, ko'rinmas edi. Shu bois oynaning



bu yuzi tufayli da'vogarlar o'rtasida guvohga ehtiyoj qolmasdi. Ko'zguning ikkinchi yuziga me'yordagi mast odam va badmastni farqlash ishi tilsim qilingan edi, agar bazmda shoh o'tirgan bo'lsa, bazmdagilar har zamo-har zamon ko'zguga nazar solib turishardi, agar yuzlari o'z holicha aks etsa, demak, ular may ichishda davom etishardi, agar yuzlari turli shakllarda – qiyshiq, yapaloq, katta, kichik kabi ko'rinsa, badmastlik alomati bilib, o'zlarini noqulay ahvoldan qutqarish chorasini ko'rardi. Ikkinchi noyob hadiya Chin go'zali bo'lib, u g'oyat go'zal bo'lishdan tashqari, sozanda, jasur jangchi ham edi.

Xoqon mana shunday tortiqlar tayyorlab, Iskandarni saroyiga taklif etadi. Iskandar kelgach, katta bazm uyushtiriladi. Navoiy bu bazmdagi holatni batafsil tasvirlaydi. Iskandarga barcha hadiyalar bir-bir tortiq qilinganda Oinayi Chin uni eng ko'p taajjubga soladi, Iskandar unga qayta-qayta nazar tashlardi. Bazmdan so'ng Iskandarni o'z manziliga yetkazib qo'yishadi. Bu paytda qish fasli yaqin edi, shu bois Xoqon Iskandardan shu yerda qishlashini iltimos qiladi va Iskandar ham taklifni qabul qiladi.

### **Natijalar va mulohazalar**

Nizomiy dostonida ham Iskandarning Chinga yurishi ancha batafsil ifodalangan, aytish mumkinki, Navoiy mazkur sujet borasida Nizomiydan ta'sirlangan. O'z uslubiga muvofiq an'anaviy sujetga yangi-yangi epizod va detallarni kiritgan, salafi tafsilotlarini tahrir qilgan. Navoiyning bu boradagi ilk o'zgartirishi elchi yuborish masalasida ko'zga tashlanadi, ya'ni Nizomiy dostonida, dastlab, Iskandar Xoqonga elchi yuborsa, Navoiy dostonida Xoqon Iskandarga elchi yuboradi. Har ikki holat, aslida, voqealar rivoji nuqtayi nazaridan mantiqan asosli, Nizomiyning tasviri asl manbaga muvofiq ham. Ammo Navoiy birinchi bo'lib Xoqonning elchi yuborishini mantiqliroq hisoblaydi, buni Iskandarning Chinga kelayotgani va Xoqonning undan ko'proq xadixsiragani, ya'ni asardagi voqealar rivojining badiiy mantig'i bilan asoslaydi. Darhaqiqat, Iskandar o'ziga ishongan va o'ta jasur shaxs, shu bois unda elchilar orqali turli bahas-munozaraga xohish bo'lmagan bo'lishi haqiqatga yaqinroqdek tuyuladi, qolaversa, Navoiy forslarni bo'ysundirilgan paytidayoq Iskandar Chinni fath etish borasida aniq bir qarorga kelganini qayd etgan edi, shu bois Iskandarda Xoqonga elchi yuborish ehtiyoji qolmagandi. Navoiy mana shu kabi mantiqiy asoslardan kelib chiqib, Nizomiy sujetni keskin o'zgartirgan.

Navoiy tahririning yana bir namunasini Nizomiy dostonidagi



Iskandarning hindiy Fur bilan jangi, Tibet cho'llaridan o'tishi, u yerda o'z-o'zidan odamni kuldiruvchi joyga ro'baro' kelishi kabi epizodlarni tushirib qoldirganida ko'rish mumkin. Bugina emas, Navoiy salafi sujetining muhim qismlarini saqlab qolgan holda, uning ayrim jihatlarini ham o'zgartirib boradi. Masalan, Navoiy salafi keng tasvirlagan Chin tabiati tasviri – peyzajni eng asosiy jihatlarini saqlagan holda qisqartiradi va unga o'z tasavvurlarini ham qo'shadi. Nizomiy sujetidagi Xoqonning josuslar orqali Iskandar haqida ma'lumot to'plashi, uni o'rganishi va Xoqon yuborgan odamlarning Iskandar to'g'risidagi uzundan-uzoq ta'rif-u tavsifini Navoiy o'z sujetiga olib kirmaydi. Ammo Xoqonning sulh uchun bahona qidirishi borasida har ikki ijodkor hamfikr. Nizomiy o'z uslubiga sodiq holda, Iskandarning umidvorlik va qo'rqinch beruvchi maktub yozganini qayd etadi, ammo Iskandarning nima maqsadda kelgani aniq bo'lsa-da, nima uchun kelgani masalasi yana ochiq qoladi. Nizomiy Iskandarning Xoqonga va Xoqonning Iskandarga javobini bir necha sahifada batafsil tasvirlagan, Navoiy ham o'z uslubiga muvofiq bu kabi epizodlarga asarda keng o'rin ajratishni ma'qul ko'rmagan.

Nizomiy dostonida Xoqon, dastlab, Iskandarga elchi yubormaydi, balki o'zi elchi qiyofasida uning huzuriga boradi. Mazkur holat voqealar rivojini birdaniga tanranglashtirgan va keskinlikni oshirgan. Navoiy dostonida esa Xoqon avval elchi yuborib, Iskandarning kelishdan maqsadini so'raydi, sulhga moyilligini bildiradi, ammo Iskandar rozi bo'lmagach, jang qilish harakatiga tushadi. Biroq Iskandarning shonli g'alabalari, cheksiz shuhrati Chin xalqi va lashkariga vahima solgandi, natijada sipoh orasida taxlika yoyiladi. Xoqon bundan xabar topgach, jangda yengilishini aniq his etadi, shu bois xalqini, askarlarini va yurtini talofatlardan omon saqlash, shu bilan bir paytda o'z obro'sini saqlab qolish choralari izlay boshlaydi. Navoiy asar qahramonlarining mazkur vaziyatdagi ruhiy-psixologik holatini yanada aniqroq ifodalash, ayni paytda tasvirning ishonchli va qiziqarli chiqishini taminlash maqsadida, sujetga hakimlarning Iskandardan ikki kun jang qilmay turishni so'rashi haqidagi iltimosi detalini kiritgan. Bu orqali Xoqonning chora ko'rishi, bu borada mushohada qilishi uchun badiiy vaqt hozirlab beradi. Navoiy salafi sujetini mana shu tariqa tahrir qilish va yangilash orqali ham o'ziga xos ijodiy originallikni namoyon qilib boradi. Navoiy sujetni shu qadar taranglashtirish orqali Xoqonni shaxsan Iskandar oldiga borish va hayot-mamot masalasini hal etishga badiiy "majbur qiladi", ya'ni Xoqonning Iskandar huzuriga borishini tabiiy holatga aylantiradi.

Xoqonning Iskandar huzuriga borishidan tortib masala hal bo'lgunga qadar bo'lgan orqaliqda ham har ikki ijodkor tasvirida prinsipial farqlar mavjudki, ular ham har ikki ijodkor tasvir uslubiga xos jihatlarni tasavvur qilishga yordam beradi. Xususan, Xoqonning elchi qiyofasida yo'lga o'tlanishi borasida. Nizomiy Xoqonning o'zi borishga qaror qilgani va elchi qiyofasida saharda yo'lga tushagnini qayd etgan, xalos. Xoqonning o'z arkoni bilan buni maslahat qilgan-qilmagani, boshqalarning bilib qolmasligi uchun qanday yo'l tutgani, bu ishning maxfiyligi kabi masalalar ochiq qoladi. Navoiy tasavvuriga ko'ra, davlat rahbarining bunday nozik harakatlari o'z a'yonlaridan ham qattiq sir tutilishi lozim, muallifning ayni qarashi uni salafi sujetini o'zgartirishga majbur qilgan. Navoiy bu kabi o'rinlarda o'quvchi qarashi va badiiy mantiqni ham nazardan qochirmagan holda salafi sujetini tahrir qiladi va Xoqon obrazining yoniga uning xos mahrami obrazi, bir kun hech kimni qabul qilmaslik haqidagi e'lon, o'z odamlari tanib qolmasligi uchun tong qorong'usida yo'lga chiqish kabi detallarni qo'shadi, natijada Xoqonning xatti-harakati borasida hech qanday savolga o'rin qolmaydi.

Xoqonning elchi qiyofasida Iskandar huzurida turishi masalasi ham bu jihatdan e'tiborli. Nizomiy sujetida elchi maxfiy topshiriq bilan kelgani, shu bois uni faqat shohga aytish tayinlanganini ma'lum qilganda Iskandar elchining oyoqlarini bog'lash va o'ziga qilich berishni shaxsan buyuradi. Bir qarashda, bu tabiiy va Iskandarning o'ta oqilligini ko'rsatadi. Navoiy xuddi shu epizodni tasvirlar ekan elchi yuqoridagi so'zlarni ayta turib, agar xavsirashsa oyoq-qo'lini bandi qilishlari mumkinligini aytadi, ya'ni Navoiy Nizomiy sujetida Iskandar tilidan aytilgan fikrni elchi tiliga ko'chiradi va bu o'zgartirish orqali elchining aldamayotganini asoslashga ham erishadi. Mazkur epizoddagi Navoiyga tegishli ikkinchi o'zgartirish shuki, elchi bandi qilish xususida so'zlaganda Iskandar bu ishga hojat yo'qligini aytadi va bu orqali Navoiy o'z haqramonining naqadr qo'rqmas ekani, boshqa bir tarafdin, bu voqeadan avvalroq Xoqonning Iskandarning mardligi, jasurligi to'g'risida eshitgani aytilgan edi, Iskandarning o'zini bunday tutishi ana o'sha fikrga o'ziga xos isbot vazifasini ham bajargan. Biroq Navoiy Nizomiy ustun qo'ygan ehtiyotkorlikni noto'g'ri deb bilmaydi, shu bois sujetga Arastu boshchiligidagi hakimlar detalini kiritish orqali, ularning iltimosi bilan elchining bandi qilinishiga erishadi. Natijada elchi bandi holda Iskandar tig' bilan o'tirgan holda suhbatlashadilar. Har ikki ijodkor tasvirlagan epizodda maqsad bir xil, ammo ularning ifodasi turlicha va ayni shu o'zgachalikda ijodkorlarning

dunyoqarashi, uslubi namoyon bo'ladi hamda ular xususida hukm chiqarganda mana shunday nuqtalarga tayanish maqsadga muvofiq ko'rinadi.

Mazkur epizoddagi uchinchi bir jihat ham bu borada diqqatga sazovor. Nizomiy sujetida Iskandar elchining Xoqon ekanini bilgach, bu ishni qilishda qo'rqmaganligi, to'g'rirog'i, Iskandardan hayiqmaganidan rostakam jahli chiqadi va Xoqonni koyiydi. Shu vaziyatda Iskandar obrazi jahldor, o'z shaxsiyatini ustun qo'yuvchi, biroz kibrli shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Navoiy sujetida esa Iskandar sirdan voqif bo'lgach, taajjubga tushadi va darhol bunday qilishga uni nima majbur qilganini so'rab biladi va uning to'g'riso'zligi, aqliga ofarin aytib, Xoqon bilan ota-o'g'il tutinish istagini bildiradi. Navoiyning Iskandarida keskin ketmaslik, mushohadakorlik va o'zaro hurmat ruhi ustun. Masalaning ikkinchi bir jihati shuki, Nizomiy sujetida Xoqon o'ta ojiz va qo'rqqoq qiyofada tasvirlangan, u o'zini Iskandar huzurida chokardek tutadi. Darvoqe, Xusrav Dehlaviy Nizomiy tasviridagi ayni shu jihatga e'tiroz bildiradi va Xoqonning nihoyatda jasur bo'lgani, Iskandar bilan o'rtada qahshatgich jang bo'lib, hatto, Iskandarning Xoqondan cho'chib, sulhga rozi bo'lganini tasvirlaydi [Dehlaviy 1977, 44-106]. Darhaqiqat, qadim turkiy manbalarda Xoqon o'z yurtini munosib himoya qila olgan, ba'zan Iskandarni sulh tuzishga majbur qilgan shaxs sifatida ham qayd etiladi [Koshg'ariy 1960, 117]. Shu ma'noda Mahmud Koshg'ariy va Xusrav Dehlaviy sujetlari o'rtasida bir manba yoki qarashga daxldorlik, o'zaro yaqinlik mavjud ekani e'tiborga molik.

Navoiy bu borada ko'proq Nizomiy yo'lini ma'qul ko'rgan bo'lsa-da, imkon qadar mo'tadillikka intiladi, mana shu intilish natijasi o'laroq Xoqonni Iskandar huzurida e'zoz va hurmatga sazovor, buqalamunlikdan yiroq obraz qiyofasida tasvirlaydi hamda uning uzviy davomi sifatida ikki shoh o'rtasidagi sirning Xoqon tashabbusi bilan qattiq muxofaza etilganiga e'tibor qaratadi. Masalan, Nizomiy Xoqonning kelishuvdan so'ng chiqib, o'z qo'shini tomon ketganini qayd etsa, Navoiy sujetida Xoqon Iskandardan elchi qiyofasida kelgani va sirning oshkor bo'lib qolmasligi uchun o'ziga hammaning oldida elchidek munosabatda bo'lishi, kechga qadar uni saqlab turib, keyin ruxsat berishini so'raydi va Xoqon kech tushgach, o'z saroyiga yetib keladi va o'zi tayinlab ketgan xos mahrami bilan kelishilgandek ishlarni davom ettiradi.

Ikki shoh sulhga ahd qilishgach, keyingi voqealar rivoji oldindan ma'lumdek tuyuladi, Navoiy sujeti bu borada kutilgandek davom etsa-da, ammo Nizomiy sujetida o'ziga xoslik, kutilmaganlik

saqlanib qoladi. Nizomiyga ko'ra, Xoqon ertasi kuni butun qo'shini bilan jangovar holatda Iskandar tomon harakatlanadi, Iskandar bu paytda bexavotir xordiq chiqarayotgan edi, bu xabarni eshitgach darg'azab bo'lib, darhol ularga qarshi o'tlanadi. Maydon o'rtasida Xoqon Iskandarni yakkama-yakka olishuvga taklif etadi, Iskandar uning qarshisiga kelib, uni firibgarlikda ayblaydi, ammo Xoqon kelishuv o'z kuchida ekani, biroq Iskandar uni ojiz deb bilmasligi uchun o'zining harbiy salohiyatini ko'rsatish maqsadida shu ishga qo'l urganini aytib, Iskandarni tinchlantiradi. Natijada ular do'stlik e'lon qilib, sulh xabarini berishadi. Navoiy ushbu epizodni tasvirlamaslikka qaror qiladi, chunki uning tasviridagi voqealar rivoji va badiiy mantiq bu kabi harakatni, ayniqsa, Xoqon tomonidan amalga oshirilishini taqazo etmasdi.

Xiroj masalasi ham mazkur sujetning muhim jihatlarini aks ettiradi. Nizomiy sujetida Xoqon Iskandar huzuriga borganida Iskandar, dastlab, unga 7 yillik xiroj tayin qiladi, ammo Xoqonning oqilligini ko'rgach, 6 yilidan voz kechadi. Navoiy sujetida Iskandar xiroj masalasidan so'z ochmaydi, xoqonning o'zi bu haqida gapiradi va Iskandardan xiroj talab qilmaslikni iltimos qiladi, chunki Xoqonning obro'si juda baland bo'lib, u o'zini Doro bilan teng tutardi. Ammo Xoqon u so'ragandan ortiq xiroj bermoqchi ekani, faqat uni xiroj tarzida so'ramaslikni istaydi va Iskandar bunga rozi bo'ladi. Bu yerda ham Navoiyning tahriri Iskandar obrazining o'ta saxiy, bag'rikeng va mol-davlatga xavasmand bo'lmagan shaxs sifatida tasavvur qilinishiga olib kelgan, holbuki, Nizomiy ham Iskandarning saxiyligini ko'rsatish uchun 6 yillik xirojdan voz kechganini tasvirlasa, Navoiy bu masalada uni yana bir pog'ona balandroqqa ko'tarib tasvirlashni ma'qul ko'radi.

Nizomiy Iskandar va Xoqon munosabatlari silsilasiga rumlik va chinlik rassomlarning bahsi va Moniy haqidagi afsonani olib kirgan. Naqqoshlar munozarasida Iskandarni hayratga solgan narsa chinlik naqqoshlarning o'zlariga ajratilgan sahnga oynadek ishlov bergani edi. Chunki rumlik rassomlar juda go'zal suratlarni chizishgan bo'lib, o'rtadagi parda ko'tarilganda har ikki tomonda bir xil surat aks etib turardi. Iskandar bu suratlarning biri aks tarqatayotgani, biri uni qabul qilayotganini fahmlaydi va o'rtadagi pardani takror tutganda chinliklar sahnida hechqanday surat solinmagani, balki uning oynadek qarshisidagi suratni aks ettirayotganiga guvoh bo'ladi. Navoiy har ikki epizodni dostoniga olib kirmagan.

Xoqonning Iskandarni mehmon qilishi va Xoqonning tuhfalari borasida ham ayrim o'ziga xosliklar ko'zga tashlanadi.

Mehmonnavozlik borasida har ikki ijodkor tasviri mutloq farq qilmaganidek, bir-biriga u qadar yaqin ham kelmaydi va har ikki ijodkor Xoqon saroyidagi bazmni batafsil tasvirlaydi. Xoqoning sovg'alari borasida ham asosiy jihatga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Nizomiy sujetida Xoqon tortiq qilgan hadiyalar orasida eng nodiri Chin kanizi bo'lib, u *go'zallik, jangchilik, xushovozlik* kabi muhim uch xususiyatga ega edi. Navoiy sujetida nodir tuhfalar soni ikkita bo'lib, biri Chin kanizi, biri Oinayi Chin edi. Nizomiy kanizak borasida aytgan fikrlarining aksariyati Navoiy tasvirida saqlangan, biroq uning o'zini namoyon qilish epizodining o'rni o'zgartirilib, unga doir ba'zi masalalar yangilangan. Navoiyning tuhfalar borasidagi asosiy yangiligi rostgo'y oyna bo'lib, Iskandar undan nihoyatda taajjubga tushadi va qattiq tasirlanadi. Navoiy ijodida mana shu obraz muhim o'ringa ega bo'lib, u keyinchalik o'zi singari ko'plab ajoyibotlarning yuzaga kelishiga turtki bo'ladi. Navoiy bu motivni sujetga kiritish orqali Iskandarning ijokorlik, ilm-u hikmatga munosabat va ma'rifatga tashnaligi kabi qirralarini ochib berishga imkon topadi. Navoiy ham, Xusravdek, bu orqali dunyodagi ilk tilsimli oyna sharqliklar, ya'ni chinliklarga tegishli ekanini ta'kidlaydi.

Navoiyning keyingi bobda qayd etishicha, Iskandar Chinda mehmon bo'lib turgan kezlarda qish yaqin edi, qolaversa, xoqonning iltimosiga ko'ra Iskandar Chinda qishlashga qaror qiladi. Xoqon sovg'a qilgan ko'zgu Iskandarga judu yoqqan bo'lib, taxta o'tirib bahsli masalalarni u bilan hal etar va bazm tuzub, badmastni sharmsor etar, bundan hayratga tushardi. Iskandar donishmandlarni yig'ib, Tangri unga hikmat ilmini bergani, qolaversa, xizmatida yuzlab hakimlar hozirligi, shu bois ko'nglida Chin oynasidan yaxshiroq tilsim yasash istagi borligini aytadi. Donishmandlar bu fikrga xayrixohlik bildirgach, ular 200 kishidan iborat bo'lgan ikki guruhga bo'linishadi va birinchi guruhga Filotun va Suqrot, ikkinchi guruhga Arastu va Buqrot boshchilik qiladi, Iskandar esa dam-badam ular bilan maslahatlashar, goh ishlarini qabul etsa, gohida rad etardi. Har ikki guruh alohida ish bilan mashg'ul bo'lib, birinchi guruh olam xususida fikr yuritib, po'lat yordamida ko'zgu yaratish to'g'risida bosh qotirsa, ikkinchi guruh falak borasida mushohada yuritib, ro'y-u mis yordamida usturlub kashf etish haqida o'ylardi. Shu tariqa ikki guruh qish davomida bosh qotirib ikki jism yaratadi, biri usturlub bo'lib, unga samoning sir-sinoati yashiringan edi, ikkinchisi ko'zgu bo'lib, butun jahon unda jilva qilardi. Bu paytda qish tugab, bahor yaqin qolgan edi. Iskandar shohona bazm tuzib, xoqon bilan birga o'tirardi, shu payt ikki guruh donishmandlari kelib, shohlar oldiga

usturlob va ko'zguni keltirishadi va ularni tavsif qilishadi. Xoqon bu kashfiyotlarni ko'rib gung-u lol bo'lib qoladi va Iskandarga tahsinlar aytadi. Iskandar ilm ahliga mol-u ganj bilan Yunonni ham syurg'ol qiladi, xoqon ham behisob gavhar hadya etadi.

Iskandar bu ikki muvaffaqiyatdan g'oyat quvonadi, xursandligidan ishratparast bo'ladi. Iskandar Doro qizi Ravshanak va mallu qizi Noz Mehrga uylanish haqida o'ylay boshlaydi, zero, har ikkisining otasi bu ishni unga vasiyat qilgan edi, ammo Iskandar jahongirlik ishlari bilan bandligi bois bu ishlarga fursat topolmay yurgan edi. Iskandar shu paytni ayni muddao biladi, qolaversa, toj-u taxt egasiga vorisning bo'lishi ham zarurat edi, a'yonlari bilan maslahatlashgach, to'yga tayyorgarlik ko'rishga topshiriq beradi. Gul-u sabza ayyomida Chinni bezatib, to'y qilishadi. Yigitlik, shohlik, donishgohlik kabi sifatlar bilan bezalgan Iskandar bahorda ikki nozparvard vaslidan bahramand bo'ladi. Ammo Iskandar dunyoning bebaqoligini yaxshi bilardi, shu bois o'tar dunyoda bir oz vasldan komyob bo'lishga qaror qiladi. Ravshanak mahdi ulyo, ya'ni bosh xonim edi, ammo Noz Mehrning unga rashki kelardi, chunki Iskandar ko'proq vaqtini Ravshanak bilan o'tkazar, Noz Mehrga esa kam vaqt ajaratardi. Navoiy shundan so'ng Iskandar va Noz Mehr o'rtasidagi ishqi munosabatlarni batafsil tasvirlaydi. Iskandar bir qancha vaqt bu ishlar bilan band bo'lgach, yana avvalgi ishlariga qaytadi. U jahonni qo'lga kiritganda Mag'rib zaminini bo'ysundurmagan edi, shu bois Iskandar xoqon bilan xayrlashib, Mag'rib tomon yo'lga chiqadi, xoqon hamroh bo'lishni iltimos qilsa-da, Iskandar buni qabul qilmaydi. Hindistonning janubiy chegarasi bilan yurib, Mag'ribga o'tlanadi, yo'lda Iskandar Royga ijozat beradi va Gajrot o'lkasidan eson-omon o'tib, Ummon dengiziga ro'baro' keladi. Undan o'tib, Mag'rib zaminiga yetib boradi va u yerdagi ko'plab shaharlarni tobe qilib, Rum sari oshiqardi, biroq mag'ribda shu qadar ajoyibotlar ko'p ediki, ularning tomoshasi tufayli Iskandarning Rumba qaytishi ortga surilaverardi.

### **Xulosa**

Tarixiy va adabiy manbalarda Iskandar va xoqon munosabatlarining sulh bilan yakunlanishi, asosan, to'rt xil: biri Iskandarning elchi qiyofasida xoqon saroyiga borishi, ikkinchisi, xoqonning elchi qiyofasida Iskandar huzuriga kelishi, uchinchisi, shiddatli jangdan so'ng o'zaro kelishuv, to'rtinchisi, xoqonning donishmandligi bilan izohlangan. Dinovariy, Firdavsiy birinchi qarash, Ibn Asir va Nizomiy ikkinchi, Xusrav uchinchi, Jomiy



esa to'rtinchi qarash tarafdori bo'lgan. Navoiy ikkinchi qarashni ma'qullagan, uni bunday yo'l tutishga undagan birinchi omil mazkur qarashning aksariyat manbalarda uchrashi bo'lsa, ikkinchi omil voqealar rivojining tabiiy mantig'i edi, chunki Iskandar bunga qadar dostonida katta zafarlarga erishgan, ulkan qudrat egasi sifatida tasvirlangan edi. Uning xoqondan xavsirab, elchi qiyofasida huzuriga borishi avvalgi tasvir mantiqiga zid kelardi, Navoiy buni yaxshi his etgan va dostonida to'la asoslab bergan.

Psevdo-Kallisfenda Aleksandr Sin hukmdoridan javob xati va ko'plab hadyalar olgach, bu yurtga kelmay yo'lida davom etgani qayd etilgan. Navoiy dostonida esa pinhona elchi bo'lib borgan xoqon iltimosiga ko'ra Iskandar mehmon sifatida Chinga tashrif buyuradi. Bizningcha, Psevdo-Kallisfenda tasvirlangan Aleksandrning Singa elchi sifatida borishi, shohona qabul va unga atab ziyofat uyushtirilishi kabi tasvirlar keyinchalik sharq manbalarida transformatsiyaga uchrab, Navoiy dostonidagi Iskandarning Chinga mehmon sifatida tashrif buyurganiga oid epizodlarning yuzaga kelishiga asos bo'lgan.

Shuningdek, Psevdo-Kallisfenda qayd etilgan Sin hukmdorining Aleksandrga turli-tuman sovg'alar yuborishiga oid tafsilotlar ham sharq iskandarnomalarida jiddiy qayta ishlangan va to'ldirilgan. Bu borada Dinovariy, Saolibiy va Mirxondlarning qaydlari ayniqsa e'tiborga molik. Xamsanavislar – Nizomiy, Xusrav va Jomiy bir masalani uch hil talqinini qayd etgan. Navoiy voqealar rivoji borasida Saolibiy, Ibn Asir hamda Nizomiy talqinini qabul qilgan. Biroq voqealar rivojida muallif dunyoqarashi va uslubini belgilovchi muayyan ayirmalar ham bor. Navoiyning mazkur sujet bobida Nizomiydan bahramand bo'lgani aniq, lekin bu Navoiy Nizomiydan ko'chirgan degan xulosani bermaydi, chunki Navoiy va Nizomiy sujetlarini taqqoslash Nizomiy tasviri Navoiy tomonidan jiddiy qayta ishlanganini ko'rsatdi. "Saddi Iskandariy" sujeti o'ziga qadar yaratilgan manbalarning birortasiga aynan mos kelmaydi, ayrim faktlar, detallar, epizodlar, obrazlarning badiiy funksiyasi, fikrning poetik ifodasi individual xarakter kasb etgan. Hatto, Navoiy xamsanavislik an'anasi doirasida yaratilgan iskandarnomalarda sayyor xarakter kasb etgan Lubati Chin, Oinayi Iskandariy [Ismoilov 2019, 68 – 98] va usturlob kabi personaj-u motivlar tasvirida ham originallik ko'rsatishga erishgan.

### **Adabiyotlar**

Bal'amiy, Muhammad bin. 1353 (h.). Tarixi Bal'amiy. Tehron: Tobish.  
Dinovariy, Ahmad ibni Dovud. 1361 (h.). *Axbor at-tivol*. Tarjo'mayi Sodiq Nishot. Tehron: Bunyodi farhangi Iron.

- Dehlaviy, Amir Xusrav. 1988. *Oinayi Iskandariy. Matni intiqodiy*. Bo tas'hih-u muqaddimayi Jamol Mirsaidof. Masko'v: Sho'bayi adabiyoti Xovar.
- Исмоилов, И. 2022. *Алишер Навоийнинг "Садди Искандарий" достони генезиси ва поэтикаси*. DSc дисс. Toshkent.
- Ismoilov, I. 2019. "Iskandar oynasi". *Oltin bitiglar* 4: 68 – 98.
- Кошғарий, Маҳмуд. 1960. *Девону луғатит турк*. 1 том. Тошкент: Фан.
- Mirxond, Muhammad bin Xovandshoh. 1338 (h.). *Ravzat us-safo*. J. 1. Tehron: Piruz.
- Навоий, Алишер. 2000. *Тарихи мулуки Ажам*. МАТ. 20 томлик. Т.16. Тошкент: Фан.
- Navoiy, Alisher. 2006. *Saddi Iskandariy*. Toshkent: G'G'ulom nomidagi NMIU.
- Tabariy, Muhammad bin Jarir. 1375 (h.). *Tarixi Tabariy*. J. 2. Tehron: Asotir.
- The Book of the gests of Alexander of Macedon. Sefer Toledot Alexandros ha-Makdoni. A mediaeval hebrew version of the Alexander romance by Immanuel ben Jacob Bonfils*. 1962. Edited and translated with introduction and notes by Israel J. Kazis, Ph.D. Massachusetts: The mediaeval academy of America.

## **Nizami and Navoi: different interpretations of the one topic**

Ilyos Ismoilov<sup>1</sup>

### **Abstract**

The history of literature is directly connected with the history of the peoples of the world, and its fate runs parallel to the perfection and decline of mankind. Accordingly, the gallery of themes of world literature is also diverse, and among them the theme of war or a royal romance stands out. The core of this topic is the life and activity of famous commanders, kings or fighters, some of which caused the appearance of legends or series of works in world literature. One of these heroes, who gained literary fame throughout the world, was Iskandar (the person who was called Iskandar in the East, and Alexander the Great in the West). It is difficult to come across such a figure who had an equal impact on Eastern and Western lit-

---

<sup>1</sup>*Ismoilov Ilyos Abdukayumovich* - Doctor of Sciences in Phology (DSc), Tashkent State University Of Uzbek Language And Literature Named after Alisher Navoi, Department of History of Uzbek Literature.

**E-mail:** ismoilov@navoiy-uni.uz

**ORCID ID:** 0000-0002-8077-7914

**For citation:** Ismoilov, I. 2023. "Nizami and Navoi: different interpretations of the one topic". *Uzbekistan: Language and Culture. Literature* 1 (2): 18-32.



erature. His name had become a legend in languages, and his activity had inspired creative people. In particular, the Iskandar theme spread widely in the East and promoted the creation of many iskandarnomas (*novels about Iskandar*).

The purpose of this article is to compare and analyze such dastans (*epics*) created in the khamsanavislik (*khamsa writing*) tradition as “Iskandarnoma” by Nizami Ganjavi and “Saddi Iskandariy” by Alisher Navoi. The creative originality of both writers is revealed on the example of the image of the “Episode of Iskandar’s campaign in China”. The research of the author was supported by reliable sources, and he used such methods as comparative-historical, cultural-historical and genetic analysis to achieve his goal.

**Key words:** *Nizami Ganjavi, Alisher Navoi, Iskandar (Alexander), Iskandar’s theme, China (Khitto), khamsa, tradition, genesis, transformation, artistic interpretation.*

### References

- Bal’amiy, Muhammad bin. 1353 (h.). *Tarixi Bal’amiy*. Tehron: Tobish.
- Dinovariy, Ahmad ibni Dovud. 1361 (h.). *Axbor at-tivol*. Tarjo’mayi Sodiq Nishot. Tehron: Bunyodi farhangi Iron.
- Dehlaviy, Amir Xusrav. 1988. *Oinayi Iskandariy. Matni intiqodiy*. Bo tas’hih-u muqaddimayi Jamol Mirsaidof. Masko’v: Sho’bavi adabiyoti Xovar.
- Ismoilov, I. 2022. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni genezisi va poetikasi. DSc diss. Toshkent.
- Ismoilov, I. 2019. “Iskandar oynasi”. *Oltin bitiglar* 4: 68 – 98.
- Koshg’ariy, Mahmud. 1960. *Devonu lug’atit turk*. 1 tom. Toshkent: Fan.
- Mirxond, Muhammad bin Xovandshoh. 1338 (h.). *Ravzat us-safo*. J. 1. Tehron: Piruz.
- Navoiy, Alisher. 2000. *Tarixi muluki Ajam*. MAT. 20 tomlik. T.16. Toshkent: Fan.
- Navoiy, Alisher. 2006. *Saddi Iskandariy*. Toshkent: G’G’ulom nomidagi NMIU.
- Tabariy, Muhammad bin Jarir. 1375 (h.). *Tarixi Tabariy*. J. 2. Tehron: Asotir.
- The Book of the gests of Alexander of Macedon. Sefer Toledot Alexandros ha-Makdoni. A mediaeval hebrew version of the Alexander romance by Immanuel ben Jacob Bonfils*. 1962. Edited and translated with introduction and notes by Israel J. Kazis, Ph.D. Massachusetts: The mediaeval academy of America.

## Qofiya turlarining nazariy asoslari, tasnifi

Hamroyeva Orzigul<sup>1</sup>

### Abstrakt

Mumtoz qofiya ilmi alohida mustaqil ilm sifatida poetikaning tarkibiy qismi sifatida risolalar tarkibida alohida tadqiq etilgan. Poetikaga oid risolalarning barchasida adabiy tur va janrlar, badiiy san'atlar, aruz vazni kabi ilmlar qatorida qofiya ilmi nazariyasi alohida qismlar ostida taqdim qilingan. Mumtoz adabiyotda qofiyaning bir necha jihatlariga ko'ra turlari o'rganilgan. Alohida ta'kidlash kerakki, qofiyaning turli jihatlariga ko'ra bu turlarining mukammal tarzda qo'llanishi baytlar takomilini belgilab bergan. Maqolada poetikaga oid risolalarda keltirilgan qofiyaning vazniy, raviy harfining ishtirokiga ko'ra, qofiya harflarining ishtirokiga ko'ra, qofiyaning tuzilishiga ko'ra bir qancha turlarining nazariy asoslari qiyosiy tarzda o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** *qofiya harflari, qofiya harakatlari, muassas, mujarrad, muqayyad, murdaf, mutlaq, mutzoyid, mutavotir, mutarojeh.*

### Kirish

Shamsiddin Qays Roziy "Al-Mu'rab fi me'yor ul-ash'or al-arab" asarida arab she'riyatida qofiyaning o'ttiz besh turi mavjudligini ta'kidlaydi. Bu qofiya turlari qofiya va so'zning turli xususiyatlari kelib chiqqan holda ajratilgan. Qofiyaning dastlabki turi qofiyadosh so'zlar tarkibida so'z va grammatik shakllarning ishtirokiga ko'ra asliy, ma'muliy, va shoygon qofiya turidir. Bu qofiya turlari mumtoz qofiyaga oid risolalarda to'liq shaklda izohlanmaydi. Shamsiddin Qays Roziyning "Al-mo'jam" asarida asliy, Nosiriddiy Tusiyning "Me'yor ul-ash'or" va Ahmad Taroziyning "Funun ul-baloga" asarida asliy, ma'mul va shoygon, Atoullah Husayniyning "Risolai qofiya" sida shoygon va ma'muliy qofiya turi, Jomiyning "Risolai qofiya" asarida qofiyai ma'mul, Vohid Tabriziyning "Jam'i muxtasar", Sham Faxri Isfahoniyning "Me'yor ul-jamoli" asarlarida shoygon qofiya turlarining nazariy asoslari keltiriladi. Qofiyaning shoygon

---

<sup>1</sup>Hamroyeva Orzigul Jalolovna - Dotsent, filologiya fanlari doktori (DSc), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta- arguvon87@mail.ru.

ORCID ID : 0000-0002-3904-9712

Iqtibos uchun: Hamroyeva, O.J.. 2023. "Qofiya turlarining nazariy asoslari va tasnifi". *O'zbekiston: til va madaniyat. Adabiyotshunoslik* 1 (2): 33-60.

va ma'muliy turlari asosan, qofiyadagi nuqsonlarning ishtirokiga qarab belgilanadi. Qofiya ayblari sifatida belgilangan iytoyi jaliyning ishtiroki qofiyaning shoygon qofiya turini shakllantiradi. Qofiya ayblari sifatida ko'rsatilgan bu nuqsonlar keyinchalik badiiy san'at sifatida takomillashgan.

### Asosiy qism

**Asliy qofiya.** Asliy qofiyada qofiyadosh so'zlar asl asosdan tashkil topishi talab qilinadi: *makon – jon – shon* shaklida. Asliy qofiyada raviy ham qofiyadosh so'zning asosida joylashadi: *hubob – gulob, habib – raqib, hur – nur, gul – mo'l* kabi so'zlar asliy qofiya sanaladi.

Buzulg'on bu mening ko'nglumni, ey hur,

Qil emdi bir tabassum birla ma'mur.

Baytdagi *hur – ma'mur* qofiyadosh so'zlar asl asosdan tashkil topgan, "re" harfi raviy sifatida qofiya ohangdorligini ta'minlab bergan.

Bar omad nilgun abri zi ruyi nilguni daryo,

Chu royi oshiqoni gardon, chu tab'i bedilon shaydo.[Taroziy 1996, 57]

"Funun ul- balog'a"da keltirilgan Mavlono Safiddin qalamiga mansub ushbu baytdagi qofiyadosh so'zlar (*daryo - shaydo*) tarkiban bir so'z holida, ikki qofiyadosh so'z tarkibida "alif" (o unlisi) raviy sifatida qofiyadosh so'zlarni bog'lab turibdi.

Bar xi jashm mastishon,

Ron zalif hamjun shashtishon [Roziy 1997, 82].

Baytdagi "*mastishon - shashtishon*" qofiyadosh so'zlardagi qofiyadoshlik asoslarning o'zida sodir bo'lgan. Ya'ni *mast – shasht* so'zlari asl kalima sifatida o'zaro qofiyadoshlikni yuzaga keltira olgan. "Te" harfi raviy sifatida qofiyadoshlikni ta'minlab bergan.

**Ma'muliy qofiya.** Qofiyai ma'muliyini qofiyai asliy bilan o'zaro qiyosiy izohlanganda, farqli jihatlari ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ham barcha risolalarda bu ikki qofiya taqqoslab tushuntirilgan. Qofiyai ma'muliyda qofiyadosh so'zlar tarkiban asos holida bo'lmay, ajrala oladi. Ya'ni qofiyadosh so'zlarning asoslari emas, qo'shilgan shakllar ohangdorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Raviy asl kalimada emas, unga qo'shilgan shakllardan tanlanadi. *Rost – paydost* so'zlari o'zaro qofiyadosh so'zlar sanalsa, "te" harfi raviy sanaladi. So'zlar tarkibiga e'tibor qilinsa, *rost* so'zidagi "te" asosda (asliy qofiya), *paydost* so'zidagi "te" esa qo'shilgan "*ast*" shaklidan olinib, bu so'zlar qofiyadosh so'z sifatida taqdim qilingan. *Rost* va

*paydo* soʻzlari oʻzaro qofiyadosh boʻla olmaydi. Bu qofiyadoshlik *rost* soʻzidagi “te” (qofiyai asliy), *paydost* soʻzidagi “te” (qofiyai maʼmuliyy) orqali amalga oshirilgan. Yoki *pordam - afshordam* soʻzlaridagi *pordam* (qofiyai asliy) va *afshordam* (qofiyai maʼmuliyy) soʻzlarida ham ayni xususiyat koʻzga tashlanadi [Tusiy h.1325, 125].

Aslida bu kabi holatlar qofiyadagi nuqsonlar sifatida taqdim qilinadi. Biroq Ahmad Taroziy quyidagi holatlarda qofiyai maʼmuliyni qabul qilish ravo ekanligini aytadi. 1. Masdar. 2. Mozeʼ. 3. Muzoriʼ. 4. Amri robita.

1. Masdar holatida: *guftan - suftan; noʻshidan - joʻshidan*. Bu qofiyadosh soʻzlarning bir gʻazalda oʻzaro qofiyadosh boʻlib kelishi kamchilik sifatida qabul qilinmaydi. Chunki har ikki qofiyadosh soʻzda ham raviy soʻzning nafsi (asos)da emas, asosdan keyin qoʻshilgan shakllarda qoʻllangan. Biroq qofiyai asliy va qofiyai maʼmuliyni bir gʻazal tarkibida oʻzaro qofiyadosh qilish olimlar tomonidan xato ekanligi aytiladi [Taroziy 1996, 57].

2. Muzoriʼ holatida. *Barad - darad, zanad - tanad, mekashad - mechashad* qofiyadosh soʻzlardagi “dol” harfi raviy sifatida asosdan keyingi shakllarda qoʻllangani bois bunday qofiya qofiyai maʼmuliyy sifatida keltiriladi. Bu qofiyadosh soʻzlar *rad - bad, sanad - jad* kabi qofiyai asliy bilan bir qofiya sifatida ishlatilishi qofiyadagi kamchilik sifatida koʻrsatiladi.

3. Amr holatida. *Sipor - guzor, riz - hiz, sur - dur* kabi soʻzlar amr holatidagi soʻzlar sifatida taqdim qilinadi. Bu soʻzlardagi “ro” va “ze” harfi *kor - bor, roz - daroz, sitez - tez, navroʻz - feruz* kabi qofiyai asliy tarkibidagi “ro ” va “ze” harflari bilan bir butunlikda raviy sifatida olinishi va bir qofiya atrofida birlashishi ayb sanaladi [Taroziy 1996, 57]. Biroq bu soʻzlar faoliyat maʼnosida kelsa, qofiyai asliy bilan qofiyadosh soʻz sifatida taqdim qilinsa, joiz: *jonsipor - rahguzor, korsoz- tangudoz, xunrez - dilsoʻz* kabi. Yoki bu qofiyadosh soʻzlar masdar (noaniq shakl) holatida ham asliy qofiya bilan oʻzaro qofiyadosh soʻz sifatida qabul qilinadi: *parhez - sitez, shakib - firib* kabi.

4. Robita holatida. *Donost - binost, just - xudrist* kabi soʻzlardagi “te” harfi raviy sifatida *ast* bogʻlamasi tarkibida qoʻllangan. Bu qofiyadosh soʻzlar *rost - kost, doʻst - poʻst, bast - mast* kabi asliy qofiyalar bilan qofiyadoshlikni hosil qila olmaydi.

Qofiyai asliy va qofiyai maʼmuliyni bir qofiyadosh soʻzlar sifatida qabul qilish qofiyadagi eng asosiy kamchilik sifatida koʻrsatiladi. Biroq qasida va masnaviy janrlarida bunday qofiya turlari uchrasa, kamchilik sifatida qabul qilinmagan. Bu hajm bilan

bog'liq. Qasidaning hajmi 20 bayt qilib belgilangan, masnaviyning hajmi esa cheklanmagan. Tabiiyki, qofiyadosh so'zlarning miqdori qasida va masnaviyning hajmiga bog'liq. Shuning uchun ham hajman yirik va qofiyadosh so'zlar ko'proq talab qilinadigan janrlarda bu holat kamchilik sifatida qaralmaydi. "So'zga qofiyani kelturmak kerak bu dushvordur. Vale so'zni qofiyaga kelturmak oson". Shuning uchun ham qofiyadosh so'z sifatida ma'muliy qofiya keltirilsa ham, ravodir.

*Badu go'ft Komus: K-ey pur xirad,  
Dilat yaksar andeshai bad barad.*

"Shohnoma"dan keltirilgan ushbu masnaviydagi *xirad* – *barad* qofiyadosh so'zlar ikki: asliy va ma'muliy qofiyadan tarkib topgan. Doston (masnaviy) janridagi asarda bu ikki turdagi qofiyani bir butunlikda taqdim qilishga ruxsat bor.

Biroq g'azal, qit'a, ruboiyda ma'muliy qofiyaning kelishi inkor qilingan. Ruboiy to'rt misradan iborat. Shoir uch yoki to'rtta qofiyadan foydalanadi, xolos. Qit'aning eng kam hajmi ikki bayt qilib belgilangan. G'azalning ham eng oz shakli besh bayt bo'lishi aytiladi. Bu janrlarda qofiyaning asliy shakli talab qilinadi. Ahmad Taroziy birgina holatda g'azalda ma'muliy qofiyaning qo'llanishiga ruxsat borligini aytadi. Ba'zan shakl mazmunga daxl qiladi. Berilayotgan mazmunga asliy qofiya topilmasa, ma'noni zoe ketkizmaslik maqsadi bilan g'azalda ham ma'muliy qofiyani qo'llashga ijozat berilgan.

Abdurahmon Jomiy qofiya ikki qismdan iborat bo'lishini ta'kidlab, ularni ma'mul (amaldagi) va g'ayri ma'mul kabi turlarga bo'ladi. Olim g'ayri ma'mul qofiya ikki so'zning birikuvidan hosil bo'lishiga ishora qiladi.

*Dar oinai ro'i tu, gar go'yam rost,  
Anvori tajallii ilohy paydost.*

*Rost* – asliy qofiya bo'lsa, *paydost* – ma'muliy qofiyadir.

*Bartoftast baxti maro ro'zgor dast,  
Z-onam namerasad ba sari zulfi yor dast.*

*Ro'zgor*– ma'muliy qofiya, *yor* – asliy qofiya sanaladi.

*Xasmi shutur dilat ro qurbon kunad hame,  
Z-on ro'i sa'di zobeh oshixta kord ast*

[Jomiy 2006, 310].

Baytdagi *kord ast* so'zidagi "dol"ni *ast* so'ziga qo'shib o'qish orqali qofiya hosil qilingan.

**Shoygon qofiya.** Bu qofiya turida ham ma'muliy qofiya

turi kabi raviy asosda emas, asosdan keyingi shakllar tarkibida keladi. Ya'ni o'zaro ohangdosh bo'lmagan so'zlarning asosdan keyin qo'shiluvchi shakllar orqali qofiyadoshligi ta'minlanadi. Vohid Tabriziy "shoygon" so'zi "majlis" ma'nosida ishlatilishini ta'kidlaydi [Tabriziy 1959, 84]. Biroq "shoygon" so'zi lug'atlarda "sazovor", "loyiq", "shohlarga xos" ma'nolarida keltiriladi. Bunda qofiyadosh so'zlar asosdan keyingi harflarning ishtirokiga qarab belgilanadi. Demak, bu qofiyadosh so'zlar aslan, asosdagi tovushlar uyg'unligiga ko'ra emas, qo'shimchalardagi ohangdoshlikka qarab loyiq ko'riladi.

*Jon – jahon* qofiyadosh so'zlaridagi ikki sokin harf: "alif" – ridf, "nun" esa raviy sanaladi. Bu qofiyadosh so'zlar asliy qofiya sanaladi. Vazifasi jihatidan ikki sokin harf birgalikda ko'plikni bildiradi. *Oshiqon – tolibon* so'zlarida ham bu harflarning vazifasi bir xil. Ammo bu harflar asosda emas, shakllar tarkibida kelgan. Ikkinchi holat esa "dol" va "nun" harfining birikuvidan hosil bo'ladi: *qand – chand* (asliy qofiya) so'zlaridagi "nun" – qayd, "nun" esa raviydir. *Barand – dixand* so'zlaridagi "nun" va "dol" harfi ham xuddi shu vazifani bajargan.

Atoullloh Husayniy shoygon qofiya turini izohlashda Shamsiddin Qays Roziy asariga murojaat qiladi. Bu ikki olim bunday qofiya turiga *do'ston – yoron* so'zlarini namuna sifatida keltiradilar. Bu ikki so'zning asoslari qofiyadosh bo'la olmaydi. Biroq "alif" va "nun" harflari ohangdorlikni ta'minlab bergani bois ham "nun" oxirgi tirtak tovush - raviy sifatida olinadi. Ma'muliy qofiya turidan farqli o'laroq shoygon qofiya turida ma'lum harflarning birikuvi belgilab berilgan:

1. "Alif" va "nun" harfining birikuvi: *mardumon – suxanon* qofiyadosh so'zlardagi "alif" va "nun" harflari bevosita qofiyadosh so'zlarni shakllantirgan. Bu qofiyadosh so'zlarni *jon – jahon* (asliy qofiya) so'zlari bilan bir g'azalda o'zaro qofiyadosh so'z sifatida keltirish kamchilik sifatida ko'rsatiladi.

2. "Ho" va "alif" birikuvi: *sarho – dilho*. Demak, bu qofiyadosh so'zlarni ham *ato – judo* (asliy qofiya) so'zlari bilan o'zaro qofiyadosh so'z sifatida ishlatish olimlar tomonidan rad etilgan.

3. "Yo" va "dol" birikuvi: *ravid –shavid*. Bu qofiyadosh so'zlardagi "yo" va "dol" harfi 2-shaxs (muxotib) shakli sifatida qo'shilgan. Bu qofiyadosh so'zlar *jovid – iyd* (asliy qofiya) so'zlari bilan o'zaro qofiyadosh so'z sifatida keltirilmaydi.

4. "Nun" va "dol"ning birikuvi: *ravand – barand*. Qofiyadosh so'zlar tarkibidagi "nun" va "dol" 3-shaxs (mug'oyib)shakli sifatida qo'shilgan. Bu qofiyadosh so'zlar *qand – savgand* (asliy qofiya) so'zlari bilan bir qofiya tizimiga jamlana olmaydi.

5. “Yo” va “mim” birikuvi: *bo’rim* – *xo’rim*. Qofiyadosh soʻzlar tarkibidagi “yo” va “mim” harflari 1-shaxs (mutakallim) shakli sifatida qoʻshilgan. Bu qofiyadosh soʻzlar *rim* – *sim* (asliy qofiya) soʻzlari bilan qofiyadosh soʻz sifatida olinmaydi.

Vohid Tabriziy ham shoygon qofiya xususida toʻxtalganda, ularni alohida turga ajratgan holda taqdim qiladi:

1. Shoygoni mugʻoyyaba: *do’rand* – *subo’rand*.

2. Shoygoni muxotiba: *chamid* – *damid*.

3. Shoygoni mutakallima: *no’shim* – *po’shim* [Tabriziy 1959, 84-85].

Shoygon qofiya va asliy qofiyani bir sheʼr tizimida jaʼm qilish barcha ajam olimlari tomonidan kamchilik sifatida koʻrsatiladi. Biroq Ahmad Taroziy qasida va masnaviy tarkibida bu ikki qofiya turini oʻzaro qofiyadosh soʻz sifatida ishlatilishi mumkinligini aytadi. Shoirlar bu holatni oʻzlariga ravo koʻrsalar (*luzumi ma la yalzum*), qoʻllayveradilar.

*Ba ro’yi do’st ki ro’yash ba chashmi man nigarid,*

*Ba xok posh ki on rah ba chashmi man siparid.*

*Banoyo guzashtan az on dur nishon bi chashm ast,*

*Chu chashm nis shumoro, ba chashmi man guzarid.*

Baytda keltirilgan *nigarid* – *siparid* – *guzarid* qofiyadosh soʻzlaridagi “yo” va “dol”ning birikuvi shoygoni muxotibani yuzaga keltirgan.

Faxri Isfahoniy shoygon qofiyani ikki turini keltiradi: xafiy va jaliy. Isfahoniy qofiyasiz (asliy qofiya) ruboiyni namuna sifatida keltiradi:

*Dar box chu omad guli rangin berun,*

*Anduhi ki nam az dili g’amgin berun.*

*Kardan nizore ro arusoni chaman,*

*Sarho zi dari chahoe chubin berun* [Isfahoniy h.1337, 73].

Ruboiydagi qofiyadosh soʻzlar: *rangin* – *g’amgin* – *chubin* aslida oʻzaro qofiyadosh boʻla olmaydi. Ularning ohangdoshligi “yo” va “nun” harfi vositasida yuzaga chiqqan.

Qofiyashunoslar raviyning mutaharrik va sokin holda kelishiga qarab qofiyaning mutlaq va muqayyad turini farqlaydilar. Biroq shuni alohida taʼkidlash kerakki, hech bir risolada qofiya mutlaq qofiya va muqayyad qofiya turlari sifatida izohlanmaydi. Qofiyaning bu turi raviy harfi izohida raviyi mutlaq va raviyi muqayyad shaklida beriladi. Shamsiddin Qays Roziy ham qofiya turlarini keltirayotgan muqayyad raviy va mutlaq raviy sifatida izohlaydi. Nosiriddin Tusiy arab shuarosi qofiyaning ikki turini farqlaganini aytib, mutlaq va



muqayyad qofiya deb nomlaydi. Demak, qofiya raviyning mutaharrik va sokin shaklda kelish xususiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi. Jomiy "Risolai qofiya"ning 6-faslini mutlaq va muqayyad qofiya turi izohiga bag'ishlaydi. Faxri Isfahoniy ham mutlaq va muqayyad qofiyani alohida qofiya turi sifatida tasniflaydi. Atoullloh Husayniyning "Risolai qofiya" asarining beshinchi qismi raviyi mutlaq va raviyi muqayyad izohiga bag'ishlangan.

1. **Mutlaq qofiya-raviyi mutlaq.**

Raviyning mutaharrik va sokin bo'lishi raviyi mutlaq va raviyi muqayyad qofiya turini belgilab beradi. Agar raviy mutaharrik bo'lsa, raviy mutlaq deyiladi:

*Ey labingdin xijil Misr shakari,*

*Ko'rsa seni netar falak qamari.*

Baytdagi *shakari* – *qamari* qofiyadosh so'zlardagi "re" undoshi raviy, "yo" - i unlisi vasl sifatida raviyi mutlaqni yuzaga keltiradi.

*Zulfi nigor go'ft ki man az qir chanbaram,*

*Shabi surati shibhi sifati mushk paykaram* [Taroziy 1996, 60].

*Chanbaram* – *paykaram* qofiyadosh so'zidagi "re" undoshi raviy va raviydan keyingi harakat va vaslning joylashuvi raviyi mutlaq sanaladi. Shamsiddin Qays Roziy raviyi mutlaqning 12 turi mavjudligini aytadi:

1. Mutlaqi mujarrad qofiya
2. Qaydli mutlaq qofiya
3. Ridfli mutlaq qofiya
4. Xuruj va mazidli mutlaq qofiya
5. Xuruj, mazid, noyirali mutlaq qofiya
6. Qayd va xurujli mutlaq qofiya
7. Qayd, xuruj va mazidli mutlaq qofiya
8. Qayd, xuruj, mazid, noyirali mutlaq qofiya
9. Ridf va xurujli mutlaq qofiya
10. Ridf, xuruj, mazidli mutlaq qofiya
11. Ridf, xuruj, mazid, noyirali mutlaq qofiya.
12. Mutlaqi mujarradning dastlabki turi sifatida **itloq**

**harfli raviyi mutlaq** izohlanadi. Itloq atamasi "Funun ul-balog'a"da qofiya harakati sifatida keltiriladi. Biroq Shamsiddin Qays Roziy itloqni alif-i itloq sifatida, ya'ni qofiya harfi sifatida taqdim etadi. Itloq faqat "alif" harfiga nisbatan ishlatilgan bo'lib, arab shoirlari tomonidan qabul qilingan.

*Ey shab, chunin daroz nabudi-u saramado,*

*Az tu bidid nist na she'ri na firqado.*

Baytda *saramado* - *farqdo* qofiyadosh so'zlaridagi "alif-i



itloq” ma’no anglatmaydi. Zamonaviy shoirlar bu kabi ma’no anglatmaydigan harflarning kelishini qofiya aybi sifatida ko’rsatadilar. Fors adabiyotidagi bu holat qofiya nuqsoni sifatida qaraladi. Mutlaqi mujarradning ikkinchi turi sifatida vasl bilan birga kelgan **vaslli mutlaq qofiya** ko’rsatiladi:

*Do’sto gir do’sti gir dushmani.*

Misradagi *dushmani* so’zidagi “nun” raviy, “yo” vasl, raviydan oldingi harakat hazv, raviyning harakati majrodir.

1. **Qaydli mutlaq qofiya.**

*Oxir dar zuhd-u tavba dar bastam,*

*V-az band qabuli iyn va on rastam.*

Baytda keltirilgan *bastam - rastam* qofiyadosh so’zlardagi “to” – raviy, “sin” qayd, “mim” esa vasl sanaladi.

2. **Ridfli mutlaq qofiya.** Ridfli mutlaq qofiya, ya’ni raviyi mutlaq ikki shaklda keladi. Bu esa ridfning ikki (ridfi asliy, ridfi zoyid) turi bilan bog’liq.

Na gufti kazin bas kunam do’stdori.

*Do’stdori* so’zidagi “alif” (o unlisi) **ridfi asliy** bo’lib, “re” harfi raviy, “yo” harfi vasldir.

*Ey Humoy, himmatat sar bar falak afroxta.*

*Afroxta* so’zidagi “te” raviy, raviydan oldingi “xe” undoshi **ridfi zoyid** bo’lib, “ho” harfi vasl sifatida raviyi mutlaq sanaladi.

3. **Xurujli mutlaq qofiya.**

*Sanamo to bakaf ishva-u ishqi tu darim.*

*Darim* so’zidagi “mim” harfi xurujdir.

4. **Xuruj va mazidli mutlaq qofiya.**

*Zi onj Haq dar dilastash,*

*Har che xohad hosilastash.*

*Dilsitash – hosilsitash* qofiyadosh so’zlardagi “lom” harfi raviy, “sin” harfi vasl, “te” harfi xuruj, “shin” harfi esa mazid sanaladi.

5. **Xuruj, mazid, noyirali mutlaq qofiya.**

*To kay bexun diyda va dil parvarimshon,*

*To kay zi ro ravand va baroe ovarimshon.*

*Parvarimshon – ovarimshon* qofiyadosh so’zlaridagi “re” harfi raviy, “yo” harfi vasl, “mim” harfi xuruj, “shin” harfi mazid, “alif” va “nun” harfi noyiradir.

6. **Qayd va xurujli mutlaq qofiya.**

*To zan tabari kay dil zi mehrat rastast,*

*Yo az talab tu forig’-u ohistast.*

*Rastit – ohistat* qofiyadosh so’zidagi “to” harfi raviy, raviydan oldingi “sin” harfi qayd, raviydan keyingi “sin” esa vasl, “to” harfi

xurujdir.

7. **Qayd, xuruj, mazidli mutlaq qofiya.**

*Chehrai dil bandi lola rangistash,  
G'amzayi dil duz juz xadangistash.*

*Rangistash* – *xadangistash* qofiyadosh soʻzlardagi “kof” harfi raviy, “nun” harfi qayd, “sin” harfi vasl, “te” harfi xuruj, “shin” harfi mazid sanaladi.

8. **Qayd, xuruj, mazid, noyirali mutlaq qofiya.**

*Savdoi tu az siyna furu raftanist,  
V-onke suxan tu niz no guftinist.*

*Raftanist* – *guftinist* qofiyadosh soʻzidagi “te” raviy, raviydan oldingi “fe” harfi qayd, “nun” harfi vasl, “yo” harfi xuruj, “sin” harfi mazid, “te” harfi noyiradir.

9. **Ridf va xurujli mutlaq qofiya.** Bu qofiya turi ham

ridfning turiga qarab ikki turga boʻlinadi.

*Dar jahon gar hich yore dorami.*

*Dorami* soʻzidagi “alif” – **ridfi asliy**, “re” harfi raviy, “mim” harfi vasl, “yo” harfi esa xuruj harfi sanaladi.

*Dil dogʻi tu dorad arna bafuruxtami,  
Dar diyda tuyi va v-garna barduxtami.*

*Bafuruxtami* – *barduxtami* qofiyadosh soʻzlardagi “te” harfi raviy, “xe” harfi **ridfi zoyid**, “mim” harfi vasl, “yo” esa xurujdir.

10. **Ridf, xuruj, mazidli mutlaq qofiya.**

*Chun soʻrxi guli shukufta rixonistash,  
Bar soʻrxi gul zi mushki nishonistash.*

*Rixonistash* – *nishonistash* qofiyadosh soʻzlardagi “nun” raviy, raviydan oldingi “alif” ridfi asliy, “sin” vasl, “te” xuruj, “shin” esa mazid sanaladi.

*Rux ju moh orastastash,  
Kisa zon bar xavostastash.*

*Orastastash* – *xavotastash* qofiyadosh soʻzlardagi “te” harfi raviy, raviydan oldingi “sin” ridfi zoyid, ikkinchi “sin” vasl, ikkinchi “to” harfi xuruj, “shin” esa mazid sanaladi.

11. **Ridf, xuruj, mazid, noyirali mutlaq qofiya.**

*Gar lutf Haq yorastami,  
Juz ishq-i korastami.*

*Yorastami* – *korastami* qofiyadosh soʻzlardagi “re” harfi raviy, raviydan oldingi “alif” ridfi asliy, “sin” vasl, “te” xuruj, “mim” harfi mazid, “yo” harfi esa noyiradir.

*Gar dil az gʻam yor na bardoxtanistish,*

*Bo u bahma ujuh dar soxtanistish [Roziy 1997, 152].*

*Bardoxtanistish – soxtanistish* qofiyadosh soʻzlardagi birinchi “te” raviy, raviydan oldingi “xe” harfi ridfi zoyid, “nun” vasl, “sin” harfi vasl, “te” xuruj, “yo” harfi mazid, “shin” harfi esa noyiradir.

Abdurahmon Jomiy mutlaq raviy sifatida raviyga vaslning payvand boʻlganini asosiy xususiyat sifatida keltiradi [Jomiy 2006, 308]. *Sarvariy – dilbariy* qofiyadosh soʻzlardagi “yo” harfi vasl sifatida mutlaq raviyini shakllantirgan.

Atoulloh Husayniy mutlaq raviyning 24 shakli borligini taʼkidlaydi. Olim Shamsiddin Qays Roziydan farqli oʻlaroq, qofiya harflari shaklida emas, qofiyadosh soʻzlar misolida tushuntiradi.

1. *Shabi – tabi* – mutlaqi mujarrad raviy;
2. *Sobiram – shokiram* - taʼsisli mutlaq raviy;
3. *Yoram – gʻamxoʻram* – ridfli mutlaq raviy;
4. *Shitoflim – yoftim* - murakkab ridfli mutlaq raviy;
5. *Dashtiy – kashtiy* – qaydli mutlaq raviy.

Faxri Isfahoniyy ham mutlaq qofiyaning 5 shakli xususida toʻxtalib, baʼzilarini baytlar misolida izohlaydi. [Isfahoniyy h.1337, 73]

1. **Tavjih va vaslli mutlaq qofiya.**

Toki boshad davr charxe xabare,  
Toki boshad sayre mehro xovare.

*Xabare – xovare* qofiyadosh soʻzlardagi raviyning harakati tavjih, raviydan keyingi “yo” vasl sifatida mutlaq qofiyaning shakllantirgan.

2. **Vaslli mutlaq qofiya.**

*Xisrave Aʼzam Jamoliddin ki hast,*  
*Dar Riyoze Xisrave sarvi sihi.*

3. **Qayd va vaslli mutlaq qofiya.**

*Bololai soʻrxii bo gule marmari,*  
*Navroʻze dar imdoe manuchehri.*

*Manuchehr* soʻzidagi “ho” harfi qayd, “re” raviy, “yo” vasldir.

2. **Muqayyad qofiya – raviyi muqayyad**

Arab va jam shoirlari orqasida raviyi muqayyad raviyi mutlaqqa nisbatan kamroq qoʻllangan. Raviyning muqayyad shaklida qofiyadosh soʻz raviy bilan tugallanadi, yaʼni raviydan keyin qofiya harf va harakatlari ishtirok etmaydi. Risolalarda raviyi muqayyadning uch turi keltiriladi:

1. **Mujarradi muqayyad raviy.**

*Zihi baho, tu davroni charxi ro mafxar.*

Misradagi *mafxar* soʻzi qofiyadosh soʻz sifatida keltiriladi. Soʻz tarkibidagi “re” raviy, raviydan oldingi unli (“xe”ning harakati) tavjih sanaladi.

2. **Ridfli muqayyad raviy.**

*Ey bahasti doda giyti ro kamol.*

*Kamol* soʻzida “lom” raviy, raviydan oldingi “alif” esa ridfi asliydir.

*Az sar mehr tu dilam barxost.*

*Barxost* soʻzidagi “te” harfi raviy, “alif” – o unlisi ridfi asliy, “sin” esa ridfi zoyid sanaladi.

3. **Qaydli muqayyad raviy.**

*Hastam ba jamolat orzumand* [Roziy 1997, 153].

*Orzumand* soʻzidagi “dol” harfi raviy, “nun” esa qayddir.

Abdurahmon Jomiy ham “Risolai qofiya”da raviy harfi sokin boʻlsa, vasl unga payvasta boʻlmasa, bunday qofiyani muqayyad qofiya deb nomlashlariga ishora qiladi. *Sarvar – dilbar* qofiyadosh soʻzlar tarkibidagi raviy (“re” harfi) sokin.

Atoulloh Husayniy raviyi muqayyad qofiya turining 6 koʻrinishini keltiradi:

1. *Gul – mul* qofiyadosh soʻzlari asosidagi mujarradi raviyi muqayyad qofiya;

2. *Oqil – komil* - qofiyadosh soʻzlari asosidagi taʼsisli raviyi muqayyad qofiya;

3. *Vosil – hosil* - qofiyadosh soʻzlari asosidagi mujarradi raviyi muqayyad qofiya;

4. *Kor – bor* - qofiyadosh soʻzlari asosidagi ridfli raviyi muqayyad qofiya;

5. *Rext – girext* - qofiyadosh soʻzlari asosidagi murakkab ridfli raviyi muqayyad qofiya;

6. *Dard – mard* - qofiyadosh soʻzlari asosidagi qaydli raviyi muqayyad qofiya.

Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki, qofiya qonuniyatlaridagi nuqsonlar qofiyaning maʼlum turlarini shakllantirgan. Risola mualliflari oʻz davri sheʼriyati va oʻzidan oldingi sheʼriyat misolida qofiya harf va harakatlarning tizimli qoʻllanganini koʻrsatib berganlar. Raviy qofiyaning asos - tayanchi sifatida tadqiq etilib, uning ishtirok etish-etmasligi, undan oldin va keyingi harf va harakatlarning bevosita unga bogʻliqligi, raviy asosidagi qofiya turlarining shakllanishi kabi yondashuvlar risolalarning asosiy mazmunini tashkil qiladi.

**Qofiya harflarining ishtirokiga koʻra qofiya turlari**

Qofiya harflarining joylashuvi qofiyaning oʻzak tarkibiga koʻra turlarini hosil qilishda muhim ahamiyatga ega. Qofiyadan

oldin joylashuvchi ridf, ta'sis, qayd – qofiya harflari qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra mujarrad, muassas, murdaf, muqayyad turlarini hosil qiladi. Arabiy, forsiy va turkiy tildagi risolalarning hech birida mujarrad, muassas, murdaf, muqayyad qofiya turlari alohida sarlavha ostida keltirilmaydi. Bu qofiya turlari qofiya harflari izohi qismida keltiriladi. Faqat Nosiriddin Tursiyning "Me'yor ul-ash'or" asaridagina "Qofiya na'vlari" sarlavhasi ostida qofiyaning barcha turlari arab va fors shoirlari ijodi misolida o'zaro qiyosiy o'rganiladi. Olim arablarda raviyning holatiga qarab qofiyaning ikki: mutlaq va muqayyad turi borligini ta'kidlaydi. Arablar "moqabli raviy"ga ko'ra qofiyaning 3 turini farqlashlarini keltiradi: mujarrad, murdaf, muassas. Biroq risolaning "Fors shoirlari nazdida qofiya turlari" sarlavhali qismda qofiya fors adabiyoti ikki xil: mujarrad yoki murdaf bo'lishini ta'kidlaydi. Vohid Tabriziy qofiya harflari va harakatlarini izohlash maqsadida alohida qism ("Qofiya harf va harakatlarini tushuntirish uchun misollar") keltiradi. Bu qismda qofiyadosh so'zlar tarkibida kela oladigan qofiya harf va harakatlarini bir butunlikda taqdim qiladi. Shu o'rinda qofiyaning murdaf, mujarrad va muqayyad qofiya turlariga ishora qiladi. Arab bo'lmagan (ajam - fors) shoirlar ijodida qofiyaning uch turi amalda ekanligini ta'kidlaydi. Risolada garchi uch qofiya turi borligi aytilsa-da, ta'sis va daxil harfi sharhida ta'sis ishtirok etgan qofiya muassas qofiya deb nomlanishini ta'kidlaydi. Ahmad Taroziy qayd harfi izohida qayd harfi ishtirok etgan qofiyani olimlar muqayyad deb nomlashlarini ta'kidlaydi, xolos. Demak, "Funun ul-balag'a" asarida qofiya turlari sifatida muassas, murdaf, mujarrad, muqayyad qofiya turlari ajratilmagan. Abdurahmon Jomiy esa ta'sis va ridf harfi izohida murdaf va muassas qofiyani tushuntiradi. Faxri Isfahoniy qofiyaning shoygon qofiya turini keltirish bilan cheklanadi. "Me'yor ul-jamoli" va "Badoe ul-afkor" asarlarida qofiyaning bu turlari keltirilmaydi. Atoulloh Husayniy esa "Risolai qofiya"da ta'sis, ridf, qayd harflari izohida qofiya turlarini qofiya harflariga bog'lab tushuntiradi.

1. **Muassas qofiya.** Qofiyaning muassas qofiya turi ta'sis harfi izohi bilan bog'liq. Ta'sisning ishtiroki muassas qofiya turini hosil qiladi. Muassas qofiya turi dastlab Nosiriddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or" asarida keltiriladi.

*Ey ruyi tu oftobi olam,*

*Angushtnamoyi nasli odam.*

Baytdagi *olam - odam* qofiyadosh so'zlaridagi "alif" harfi ta'sis, tabiiyki, ta'sis daxil harfi bilan birga keladi. Demak, "lom" va "dol" harflari daxil sanaladi. Barcha baytlarda ta'sis – "alif" harfining

kelishiga to'liq rioya qilinishi muassas qofiya turini yuzaga keltiradi.

*Ey on ki lof mezanîy az dil, ki oshiq ast.*

*To'bū lak, ar zaboni tu bo dil muvofiq ast.*

*Oshiq* – muvofiq qofiyadosh so'zlardagi o unlisi – ta'sis harfi sanaladi.

Nosiriddin Tusiy muassas qofiya turini izohlashda mutlaq va muqayyad qofiya turi bilan bir butunlikda taqdim qiladi: mutlaqi muassas va muqayyadi muassas. Olim muassas, murdaf, mujarrad qofiya turini 9 holatdagi shaklini taqdim qiladi.

a) mutlaqi muassasi mavsuli mahraj. *Sohibuho* – *kotibuho* qofiyadosh so'zlardagi "bo" harfi raviy, raviydan keyingi harflarning ishtiroki mutlaq qofiya turini hosil qilgan. Asos tarkibidagi "alif" harfi ta'sisdir.

b) mutlaqi muassasi mavsuli g'ayrimaxraj. *Sohibo* – *kotibo* qofiyadosh so'zlaridagi vaslning ishtiroki mutlaq qofiya turini shakllantirgan.

s) muqayyadi muassas. *Roziy -homiy* qofiyadosh so'zlar tarkibidagi "re" raviy, qofiyadosh so'zlar raviy bilan tugaganligi sababli muqayyad, asos tarkibidagi "alif"ning ishtiroki muassas qofiya turini hosil qilgan.

*Vohid Tabriziy oqil – johil* qofiyadosh so'zlari misolida muassas qofiya, raviy, daxil, ta'sis, rass, ishbo' kabi qofiya harf va harakatlarini izohlaydi.

**2. Murdaf qofiya.** Murdaf qofiya turi ridf harfining ishtiroki bilan bog'liq. Murdaf qofiya turi barcha risolalarda ridf harfi izohida keltiriladi. Shamsiddin Qays Roziy murdaf qofiyaning ridfi asliy va ridfi zoyidga asoslangan turlarini alohida izohlaydi.

*Shabi oshiqat Laylatulqadrast*

*Chun tu biyrun kuni rux az jalbob.*

*Jalibob* so'zidagi "bo" harfi raviy sifatida belgilanib, raviydan oldingi "alif" – o unlisi ridfi asliy sanaladi.

*Guli sad bark-u mushk-u anbar-u sib*

*Yosamin safid-u mavrid bazib.*

*Iyn hama yaksaa tamom shudast,*

*Nazdi tu, ey bute, malukfirib.*

Ridfi asliy sifatida "alif", "yo" va "vov" harflari cho'ziq unli vazifasini bajargan holatda kela oladi. Shamsiddin Qays Roziy yuqoridagi baytda "yo" harfining (i unlisi) ridfi asliy sifatida holati va uning murdaf qofiyani shakllantirishga namuna sifatida keltiradi.

Nosiriddin Tusiy murdaf qofiya turini uch shaklini takdim qiladi:

a) mutlaqi murdafi mavsul mavsul maxraj. *Jamoluho – xayoluho* qofiyadosh soʻzlarida qofiyaning oʻzak tarkibiga koʻra murdaf qofiya turi, raviyning mutaharrik yoki sokin holatiga koʻra mutlaq qofiya turi ishtirok etganini koʻrish mumkin.

b) mutlaqi murdafi mavsul gʻayrimaxraj. *Jamolo – xayolo* qofiyadosh soʻzlardagi “alif”ning holati asosga bogʻlanmaganini koʻrsatib turibdi.

s) muqayyad murdaf. *Jamol – xayol* oʻzaro qofiyadosh soʻzlari raviyning sokinlik holatiga koʻra muqayyad qofiya turini hosil qilgan.

Jomiy har qanday ridfni oʻz ichiga oluvchi qofiyani murdaf qofiya deb “oʻqiydilar” shaklida izoh keltiradi. Jomiy ayni oʻrinda radif va ridf tushunchalarini farqlash kerakligi, murdaf va muraddaf qofiya bir tushuncha emasligiga eʼtibor qaratadi. “Murdaf soʻzidagi “re” sukunli, “dol” esa mutaharrik ekanligini aytadi. “Risolai qofiya”da ridfi asliy va ridfi zoyidning ishtiroki murdaf qofiyaning ikki turini hosil qilishi baytlar asosida tushuntiriladi.

1. *Mufradli murdaf qofiya.* Ridfli bu qofiya turida raviy va ridfning oʻrtasi sukunli holatda boʻladi.

*Ey az gunafsha soxta gulbargro niqob,  
V-az shab tabonchaho zoda bar roʻi oftob.*

2. *Murakkab ridfli murdaf qofiya.* Bu qofiya turi ridfi zoyid asosida hosil boʻladi. Raviy va ridfi asliy oʻrtasida bir undosh harf vosita boʻlsa, bunday qofiya turi murakkab ridfli murdaf qofiya sifatida keltiriladi.

*Az baski tanam z-otashi ishq tu gudoxt,  
Natvon tanam az sham-i sahar bozshinoxt.*

Vohid Tabriziy murdaf qofiya 3 harf asosida yuzaga kelishini aytadi: “alif”, “yo”, “vov”. “Qofiya harf va harakatlari izohi uchun namunalar” qismida ridfi asliy, yaʼni “alif”, “yo”, “vov” harfi asosida shakllangan qofiya turlarini murdaf qofiya sifatida keltiradi.

1. “Alif” harfi bilan ifodalangan murdaf qofiya: *jom – kom.*

2. “Vov” harfi bilan ifodalangan murdaf qofiya: *hur – dur.*

3. “Yo” harfi bilan ifodalangan murdaf qofiya: *nagin – xushajin.*

Vohid Tabriziy ridfi asliy bilan ifodalangan soʻzlarni murdaf qofiya nomi bilan keltiradi. Biroq ridfi zoyid asosidagi qofiyadosh soʻzlarga nisbatan murdaf qofiya atamasini qoʻllamaydi. Shunchaki ularni “ridfi asliy va ridfi zoyidning ishtirok etishi” nomi bilan keltiradi: *dasht – kasht; boxtastamash – soxtastamash.*

3. **Muqayyad qofiya.** Qayd harfi ishtirok etgan soʻzlarning qofiyalanishi muqayyad qofiya turini hosil qiladi. Qayd



raviydan oldin joylashadi. Raviy va qayd o'rtasida biror harfning kelishiga ruxsat etilmaydi. Qayd sokin holatda bo'ladi. Shuning uchun ham Ahmad Taroziy qaydni "sokinu-l-qayd" deb ataydi.

*Soldi o'sruk ko'zunguz tavbau taqvog'a shikast,  
Bo'ldi olam yuzunguz davrida shurshidparast*

[Taroziy 1996, 66].

Bu qofiya turini murdaf qofiya (ridfi zoyidli) bilan farqlash lozim. Ridfi zoyid ridfi asliy bilan birga ishtirok etadi, ridfi zoyid ridfi asliy va raviy o'rtasida kela oladi: *rost – kost* kabi. Muqayyad qofiyada esa qayddan oldingi harf mutaharrik bo'ladi: *aqd – naqd, firdavs – qavs* kabi.

*Navro'z daromad, ey Manuchehri  
Bololai so'rxu va bo guli xamri.  
Murg'oni zaban go'fta ro yaksar,  
Bekushodi zaboni suri va amri* [Roziy 1997, 133].

Baytda keltirilgan *xamri - amri* qofiyadosh so'zlardagi "mim" harfi qayd bo'lib, bunday qofiya muqayyad qofiya sifatida keltiriladi.

*Yori mo sarvi baland ast, biguyim baland,  
Past guftan suxan az bimi raqibon to chand.*

Yoki

*Chu Zuhra vaqti sabo'h az ufuq bisozad chang,  
Zamona tez kunad nolai maro ohang.*

Vohid Tabriziy ham qofiyaning uch turidan biri sifatida muqayyad qofiya e'tibor qaratadi, *chand – qand, mard – dard* qofiyadosh so'zlari asosida qayd harfi izohi bilan bir butunlikda tushuntiradi.

4. **Mujarrad qofiya.** Mujarrad qofiya raviydan oldingi qofiya harakatlarining kelishiga asoslanadi. Raviydan oldingi tavjihning kelishi mujarrad qofiya turini hosil qiladi. Bunda daxilning harakati ishbo' bilan tavjihni farqlash muhim ahamiyatga ega. Ishbo' daxilning harakati bo'lib, daxil ta'sis harfi bilan yonma-yon holatda yuradi: *mohir – Tohir* kabi. Mujarrad qofiya turida esa daxil va ta'sis ishtirok etmaydi: *shakar – zahar* so'zlari kabi. Mujarrad qofiya turi Nosiriddin Tusiy va Vohid Tabriziy risolalardagina izohlanadi. Nosiriddin Tusiy mujarrad qofiyani uch turga bo'lib o'rganadi [Tuziy h.1325, 115-124].

1. Mutlaqi mujarrari mavsuli maxraj. *Zarabaha – xatabaha* qofiyadosh so'zlaridagi "he" harfi raviy, "bo"ning harakati tavjih sanaladi.

2. Mutlaqi mujarradi mavsuli g'ayrimaxraj. *Zadabo – xatabo* qofiyadosh so'zlar tarkibidagi raviydan keyingi "alif" asos

tarkibiga kirmagani bois g'ayrimaxraj sifatida keltirilgan.

3. Muqayyadi mujarradi. *Kar – xatar* qofiyadosh so'zlar tarkibidagi "re" harfi raviy, "kof" va "te"ning harakati tavjih sifatida mujarrad qofiyani hosil qilgan.

Nosiriddin Tusiy risolaning "Fors shoirlari nazdida qofiya na'vlari" sarlavhali qismda ham mujarrad qofiyaning mutlaq va muqayyad qofiya bilan bir butunlikdagi 8 ko'rinishini farqlab beradi. Ulardan to'rttasi mutlaq qofiya shaklida, to'rttasi esa muqayyad qofiya shaklida keladi. Olim yuqorida keltirilgani kabi mutlaq qofiyaning asosdan tashqari va asosga birikkan holatdagi ko'rinishlarini ham taqdim qiladi.

*Pisare – xabare* qofiyadosh so'zlar tavjih ("se" va "bo"ning harakati) ishtiroki asosida mujarrad qofiyani hosil qilgan bo'lsa, vaslning ishtiroki mutlaq qofiya turini shakllantirgan. *Pisari man – xabari man* qofiyadosh so'zlari ham qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra mujarrad qofiya turini shakllantirsa, "man" shakli g'ayrimaxraj sifatida asosdan tashqari ekanligini ko'rsatadi.

Abdurahmon Jomiy mutlaq va muqayyad raviy izohida mujarrad qofiya turiga murojaat qiladi. Olimning fikriga ko'ra ridf va qayddan xoli qofiya turi mujarrad qofiya sifatida keltiriladi. "Va muqayyad raviykim, qofiya tarkibida undan boshqa harf bo'lmasa, uni mujarradli muqayyad derlar, *sarvar* va *dilbar* kabi. Agar boshqa harf mavjud bo'lsa, ushbu harfga qarab ridfli yoki qaydli muqayyad deb atarlar" [Jomiy 2006, 308].

Vohid Tabriziy qofiya harf va harakatlarini baytlar misolida izohlaganda mujarrad qofiyaning mutlaq va muqayyad turi, ulardagi harf va harakatlarning ishtirokiga alohida e'tibor qaratadi. Muqayyadi mujarrad qofiya turiga *siym-u sahar – sar* qofiyadosh so'zlarini namuna sifatida keltiradi. Mujarrad qofiyaning mutlaq turida vasl, xuruj, mazid va noyira ishtirokidagi qofiyadosh so'zlar qatnashgan baytlarni taqdim qiladi.

1. Vaslli mujarrad qofiya: *nasimi sahari – sipari*.
2. Vasl, xurujli mujarrad qofiya: *sohibqadam ast – muhtaram ast*.
3. Vasl, xuruj, mazidli mujarrad qofiya: *gulastash – bulbulastash*.
4. Vasl, xuruj, mazid, noyirali mujarrad qofiya: *xamsarastamash – chokarastamash*.

Qofiyaning murdaf, muqayyad, muassas, mujarrad kabi turlari qofiya harflari va harakatlarining ishtirokiga qarab belgilanadi. Shuning uchun ham temuriylar davriga oid risolalarda qofiyaning bu

turlari alohida emas, qofiya harf va harakatlari tarkibida o'rganilgan.

### **Qofiya qismlari ishtirokiga ko'ra turlari**

Qofiya qismlari ishtiroki qofiyaning boshqa bir turini hosil qilishda muhim ahamiyatga ega. Arab va ajam shoirlari qofiyadosh so'zlar tarkibidagi sukunli va mutaharrik harflarning joylashish o'rniga qarab qofiyaning alohida turlarga ajratganlar. Qofiyadosh so'zlar bir mutaharrik va bir sokin, ikki mutaharrik yoki uch mutaharrik va bir sokin holatida yoki uch mutaharrik yoki to'rt mutaharrik va bir sokin holatida bo'lishi mumkin. Qofiyadosh so'zlardagi bu qismlar turlicha bo'lishi mumkin. Qofiyadosh so'z tarkibidagi sokin va mutaharrik harflarning miqdori qofiyaning qismlari, ba'zi manbalarda taqti'lari jihatiga ko'ra ajratiladi. Shu nuqtayi nazardan bu qofiya turlari vazn bilan o'zaro uyg'un holatda taqdim etiladi.

Arab shoirlari tomonidan qofiya qism(taqti'l)lari tarkibiga ko'ra 5 turga ajratilgan holda o'rganilgan.

1. Mutakovis.
2. Mutarokib.
3. Mutadorik.
4. Mutavotir.
5. Mutarodif.

Mumtoz qofiyaga oid risolalarning deyarli barchasida qofiyaning besh turi izohlanadi. Faqat Ahmad Taroziy fors shuarosi tomonidan qo'shilgan 3 tur izohini ham keltiradi.

1. Mutavosiy.
2. Mutarojih.
3. Mutazoyid.

Nosiriddin Tusiy qofiyaning bu turini "qofiya qismlari" atamasi bilan ataydi. Olim bu qofiya turlarini nomlarining so'nggi harflarini birlashtirgan holda SBKTR qisqartamasi bilan beradi. Kitobxonning xotirasida saqlanishi maqsadi bilan ularning so'nggi harflarini jamlab ko'rsatadi.

Qofiyaning bu turi aruz vazni bilan uyg'un holda tadqiq etiladi. Misra so'ngidagi sabab, vatad va fosilaning ishtiroki qofiyadosh so'zlar qismlarini tashkil qiladi. Sabab, vatad, fosila ishtirok etgan qismlar qofiya turlari bilan birga vazniy holatini ham belgilab beradi.

Shamsiddin Qays Roziy ham "Al-mo'jam" asarida dastlab arab she'riyatidagi qofiyaning bu turi xususida ixcham ma'lumot keltiradi. Olim arab she'riyatidagi qofiyaning 35 turi haqida maxsus risola yozganiga ishora qiladi. Qofiyaning asosiy besh turi izohini baytlar misolida tushuntiradi.

Abdurahmon Jomiy ham "Risolai qofiya" asarida yuqoridagi

qofiyaning besh turini izohlaydi. Faqat bu izoh juda ixcham shaklda keltiriladi. Jomiy bu qofiya turlarining qismlari tarkibini sanab o'tadi, xolos, baytlar keltirilmaydi.

*Mutarodif, mutavotir, mutadorik mexon,*

*Mutarokib, mutakovis laqabi qofiya don* [Jomiy 2006, 308].

Faxri Isfahoniyning "Me'yor ul-jamoli", Husayn Voiz Koshifiyning "Badoe' ul-afkor" asarlarida qofiyaning bu turi haqida ma'lumotlar keltirilmaydi. Atoulloh Husayniy "Risolai qofiya"ning oltinchi qismida qofiyaning taqti' e'tiboriga ko'ra turlarini keltiradi. Olim an'anaviy shaklda qofiyaning hijo e'tiboriga ko'ra 5 turini taqdim qiladi [Husayniy h.1393, 55].

*Mutarodif buvad onga mutavotir digar,*

*Mutadorik, mutarokib, mutakofis bingar.*

1. **Mutavotir** ("paydar-pay", "ketma-ket"). Qofiyaning mutavotir turi izohi "Funun-ul-balog'a" va "Risolai qofiya" da dastlabki tur sifatida keltiriladi. Shamsiddin Qays Roziy va Nosiriddin Tusiy risolalarida mutakovis qofiya turi birinchilardan bo'lib izohlanadi. Mutavotir qofiya qofiya qismlari e'tiboriga ko'ra qofiyaning to'rtinchi qofiya turi ekanligi aytiladi. Bu qofiya turida qofiyadosh so'zdagi raviy sokin holatda yakunlanadi, raviydan oldingi harf mutaharrik holatda bo'ladi. Ya'ni sababi xafifdan iborat bo'ladi, fa' (-)vaznida bo'ladi. *Axtar – anbar* qofiyadosh so'zlarning oxirgi bo'g'ini, ohangdorlikni ta'minlab turgan qismi bir mutaharrik va bir sokin harfdan iborat. "Re" harfi raviy sifatida sokin holatda turibdi.

*So'zidin rashk olur, shakkar yuzidin ham chamanu gul,*

*Ko'zidin uftonur nargis, sochidin to'lg'onur sunbul.*

Baytdagi *gul – bulbul* qofiyadosh so'zlardagi *gul* so'zi va *bulbul* so'zining ikkinchi qismi sababi xafifdan iborat.

*Soqiy, barafroz ishab charog'i majlis.*

*Xilvat besoz xoli az zohidi musavvis.*

Atoulloh Husayniy sababi xafifi ishtirokidagi qofiyaga quyidagi baytni keltiradi.

*Shakar dahano g'ame nadoriy,*

*Dayr odaniyi mag'ona darkash.*

Shamsiddin Qays Roziy "mutavotir" so'zining "vaqti-vaqti bilan takrorlanmoq" ma'nosini keltirib, bu qofiya turining o'ziga xos xususiyati sifatida sukunli harfga bog'lanishini ko'rsatadi. Boshqa qofiya qismlarida mutaharrik harfdan so'ng yana mutaharrik harf keladi. Shamsiddin Qays Roziy fors she'riyatida mutavotir qofiya turi 11 o'rinlarda uchrashi mumkinini aytadi. Bu holat ruknlar bilan bog'liq bo'lib, bu ruknlarning oxirgi juzvi sababi xafifdan iborat

bo'ladi.

- *Mafoiylun.*
- V - - -
- *Foilotun.*
- V - -
- *Failotun.*
- V V - -
- *Faulun.*
- V - -
- *Maf'uvlun.*
- - -
- *Fa'lun.*
- -
- *Foilotun fa'.*
- V - - -
- *Failotun fa'.*
- V V - - -
- *Mafoiylun fa'.*
- V - - - -
- *Muftailun fa'.*
- V V - -
- *Maf'uvlun fa'.*
- - -

2. **Mutarodif** (“bir-birining ma’nodoshi”, “ridfli”). Bu qofiyaning o’ziga xos xususiyati shundaki, qofiya qismlari mutaharrik harfdan so’ng ikki sokin harfning kelishidan tashkil topadi. “Funun ul-balog’a”da sababi mutavassit (~) bu qofiya turini shakllantirishi aytiladi. Atoullloh Husayniy esa sodda uslubda tushuntiradi: ikki harfning yonma-yon kelishi mutarodif qofiya turiga asos bo’ladi. *Muxtor* – *ag’yor* qofiyadosh so’zlari tarkibiga e’tibor qilinsa, “alif” va raviy – “ro” harfi sokin holatida turibdi. *Ta’bir* – *tafsir* qofiyadosh so’zlardagi “yo” va “re” harfi ham ikki sokin harf sifatida mutarodif, ya’ni ridfli qofiya turini shakllantirgan. Bu qofiyadosh so’zlar qofiya harflarining ishtirokiga ko’ra tahlili qilinsa, raviydan oldingi ridfning ishtiroki murdaf qofiya (ridfli) turini hosil qilganini ko’rish mumkin.

Shamsiddin Qays Roziy mutarodif qismli qofiya turi forslarda mashhur ekanligiga ishora qiladi.

*Di bomdodi iyd kay bar sadri ro’zgor.*

~

Misradagi *ro’zgor* so’zining so’nggi hijosi “alif” va “re” sokin holatda.

Qamar bo'ldi yuzung davrinda mashhur,

~

Qoshingdin ham qamug' mehrobi ma'mur.

~

Baytda keltirilgan *mashhur* – *ma'mur* qofiyadosh so'zlar so'ngi ikki sokin harf (“vov” va “re”) bilan tugagan.

Misli jomi porsiyon hast,

Lab dar yodi murg'i dabu tumor.

~

“Funun ul-balog'a”da keltirilgan Xoqoniyning ushbu bayti keltirilgan *tumor* so'zi tarkibida ham “alif” va “re” harfi sokin holatda.

Atoulloh Husayniy *dilnavoz* – *boz* o'zaro qofiyadosh so'zlari asosida qofiyaning mutarodif turini tushuntiradi:

Hast pes'hi mo labat obi hayot yey dilnavoz,

~

Omada hamchu hubobi az vay brun tabxola boz.

~

Shamsiddin Qays Roziy mutarodif qofiya ajam she'riyatida 11 holatda qo'llanishi mumkinligini aytadi:

- *Mafuvlon.*

- - ~

- *Foilon.*

- V ~

- *Failon.*

V V ~

- *Fauvlon.*

V - ~

- *Fa'lon.*

- ~

- *Mafoiyl.*

V - ~

- *Faul.*

V ~

- *Fo'.*

~

- *Mafoiylon.*

V - - ~

- *Foiliyyon.*

- V - ~

- *Failiyyon.*

V V - ~

Shamsiddin Qays Roziy bu qofiya turining mutarodif deb nomlanishini sukunli harf, ya'ni ridf o'zidan keyingi harfning ham sukunli holatda kelishini talab qilishida deb izohlaydi.

3. **Mutadorik** (“etishuvchi”, “orqadan kelib qo'shiluvchi”, “bir-birini topib olgan”, “bir-biriga yaqin”). Bu qofiya turida qofiya

qismlari vatadi majmu' (**V-**), ya'ni ikki mutaharrik harf va bir sokin harfdan iborat bo'ladi. *Muxtasar* – *mo'tabar* va *muntahan* - *yosuman* qofiyadosh so'zlar yakuni ikki mutaharrik va bir sokin harfdan iborat.

Banom Xudovandi jon -u xirad.

V -

Misradagi *xirad* so'zi ikki mutaharrik va raviyning ("dol") sokin holatidan tashkil topgan.

Chu qadu oraz fikridin qilsam, vidoi anjuman,

V -

Qabrimdin o'tgusi base sarvi sihivu nastaran.

V -

Baytda keltirilgan *anjuman* – *nastaran* qofiyadosh so'zlardagi "jim", "mim"

, "te", "re" harflari harakatli, raviy – "nun" sokin holatda keltirilgan.

Chandon bigiryam bar dari on bevafo shomu sahar,

V -

K-az obi chashmam ovarad sarve az onjo sar ba dar. [Taroziy 1996, 54].

V -

Vatadi maqrundand tashkil topgan ushbu qofiya qismlari fors shoirlari ijodida besh o'rinda qo'llana oladi:

1. *Foilun*.

- V -

2. *Mustaf'ilun*.

- - V -

3. *Mafoilun*.

V - V -

4. *Faulun fa'al*.

V - - V -

5. *Mafoiylu fa'*.

V - - V -

4. **Mutarokib** ("bandli", "bog'langan", "otning ustida o'tirmoq"). Mutarokib qofiya qismlari fosilai sug'rodan (**VV-**) iborat bo'ladi, ya'ni uch mutaharrik va bir sokin harfdan tashkil topgan qofiyadosh so'zlar bir butunlikda qofiyaning mutarokib qofiya turini shakllantiradi. Ahmad Taroziy mutarokib qofiya qismlari faalan vaznida yozilishini ta'kidlaydi.

Az ishq tu man dar jahoni samaram.

V V -

Misrada keltirilgan *samaram* so'zidagi "sin", "mim", "re"



harflari mutaharrik, raviy – “mim” sokin holatda, qofiya qismlari fosilai sug’rodan iborat.

Yo Rab, el ichinda ehson-u ato bo’ldi adam,

V V -

Yo magar yer yuzida qolmadi hech ahli karam.

V V -

Yoki

Xoki poyi tu az on ro’z ki omad ba nazar,

V V -

Diydaho minnati surma naqashindandi digar.

V V -

Atoulloh Husayniy qofiyaning mutarokib turiga o’z ijodidan namuna keltiradi:

Yey Atoiy dil-u din raft zi mo suyi adam,

V V -

Dar dili mo chu raqam bast sar zulfi sanam [Husayniy h.1393, 57].

V V -

Mutarokib qismli qofiya shakli ajam shoirlari ijodida to’rt juzv holatida uchraydi:

1. *Failun.*

V V -

2. *Muftailun.*

- V V -

3. *Maf’uvlu faal.*

- - V V -

4. *Mafoiyilu faal.*

V - - V V -

5. **Mutakovis** (“mo’l-ko’llik”, “ko’plik”). Mutakovis qismli qofiya turida qofiyadosh so’zlar tarkibi to’rt mutaharrik va bir sokin harfdan iborat bo’ladi, ya’ni qofiya qismlari fosilai kubro (**VVV**)dan tashkil topadi. Shamsiddin Qays Roziy va Ahmad Taroziy bu qofiya qismlari failatun vaznida ekanligini ta’kidlaydilar: *shakari man – jigari man*.

Gar yori man g’am dilam bixuradi

V V V -

Ziyn behtaraki beholi man nigaradi [Roziy 1997, 150/ Husayniy h.1393, 57].

V V V -

Baytdagi qofiyadosh so’zlar tarkibiga e’tibor qilinsa, to’rt harf mutaharrik va raviy – “yo” sokin holatda turganini ko’rish

mumkin. Bu bayt Atoullloh Husayniyning “Risolai qofiya” asarida ham keltirilgan. Olim qofiyaning mutakovis turini izohlashda “Almo’jam” va “Me’yor ul-ash’or” asarlariga murojaat qiladi. Risolalarda keltirilgan baytlarni namuna sifatida keltiradi.

Nisbat emas tishinga gavhari Adan.

V V V -

Hech o’xshamas yuzungga ham guli chaman.

V V V -

Ahmad Taroziy mutakovis qismli qofiya turiga Mavlono Iroqiydan bayt keltiradi:

Dog’i nehad husni tu bar ruxi qamar.

V V V -

Otash zanad la’li tu dar dili shakar [Taroziy 1996, 56].

V V V -

Shamsiddin Qays Roziy va Abdurahmon Jomiy mutakovis qismli qofiya turi fors she’riyatida uchramasligini ta’kidlaydilar.

Ahmad Taroziy ajam fuzalolari tomonidan qofiya qismlarining besh turiga qo’shimcha uch tur ixtiro qilinganini ta’kidlab, “Funun ul-balog’a”da ularni birma-bir izohlaydi. Ahmad Taroziy keltirgan uch qofiya turlarining barchasi qofiya qismlarining oxirgi hijosi o’ta cho’ziq hijob bilan tugallanishiga asoslangan.

1. **Mutavosiy.** Mutavosiy qismli qofiya turi vatadi kasrat ( $V \sim$ ) juzvidan tashkil topadi. Qofiya qismlari ikki mutaharrik va ikki sokin harfdan tashkil topadi, ya’ni fa’ol vaznida bo’ladi: dilsiton – sho’d nihon.

Ey jamolingdin topibtur husn har dam ehtiom.

V ~

Mubtalo bo’ldi g’ami ishqing bila har xosu om.

V ~

Yoki

Ey pardai muazzamu banuyi ro’z(i)gor.

V ~

Ey pishi oftobi garm abri soyador.

V ~

“Funun ul-balog’a”da keltirilgan ushbu baytdagi ro’zgor – soyador qofiyadosh so’zlar qismlari mutarodif qofiya qismlari bilan juda o’xshash. Shamsiddin Qays Roziy ro’zgor so’zi qofiya sifatida kelgan baytni mutarodif qofiya turida namuna sifatida keltiradi. Mutarodif qismli qofiya turi sababi mutavassitga asoslangani bois ro’zgor so’zining ikkinchi juzvi ( $\sim$ ) aynan mutarodif qofiya turiga to’g’ri keladi. Ahmad Taroziy imola hodisasi orqali “ze” harfini

“kasra” bilan talaffuz qilish orqali vatadi kasratni hosil qilgan bo’lsa kerak. *Ro’zgor* so’ziga qofiyadosh so’z sifatida keltirilgan *soyador* so’zi *ro’zgor* so’zidan farqli imola hodisasiz ham aynan mutavosiy qismli qofiya turiga to’g’ri keladi. “Yo” harfining “fatha” bilan kelishi mutaharrik harfni hosil qilgan.

2. **Mutarojih.** Mutarojih qismli qofiya turi uch mutaharrik va ikki sokin harfdan tashkil topadi. Ahmad Taroziy bu mutarojih qofiya turi faulot (**VV~**) vaznida yozilishini ta’kidlaydi: *naqshi jahon – boriganron*.

Ol engin bossa yengi birla o’shul javhari jon,

V V ~

Ko’zlarim shul dam etar yer yuzini lolas(i)ton.

V V ~

3. **Mutazoyid.** Mutazoyid qismli qofiya turi to’rt mutaharrik va ikki sokin harfning kelishiga asoslanadi, ya’ni failaton (**VVV~**) vaznida yoziladi: *ey shahi jahon – dar dili kason*.

Pinhon tutar rozing ki bu dili hazin,

V V V ~

Saqlar oni payvasta chun duri samin

V V V ~

Yoki

Bo in qadu raftor, ey shahi jahon,

V V V ~

Jo kardai chu rux dar dili kason.

V V V ~

Yuqoridagilardan ko’rinib turibdiki, qofiyaning taqti’ e’tiboriga ko’ra turi bevosita aruz vazni bilan bog’liq. Ahmad Taroziy taqdim etgan 3 tur taqti’ e’tibori bilan fors va turkiy she’riyatga xos. Chunki fors va turkiy she’riyatda odatda misra so’ngi o’ta cho’ziq hijolar bilan yakunlanadi.

## Xulosa

Temuriylar davridagi turkiy va forsiy risolalarda qofiya turlarini tahlil qilish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Temuriylar davriga oid risolalarda qofiya turlari qonuniyatlari qat’iy tizim asosida ishlab chiqilgan. Qofiyadosh so’zlar tarkibida so’z va grammatik shakllarning ishtirokiga ko’ra asliy, ma’muliy, va shoygon qofiya turlari maxsus tadqiq etilgan. Bu qofiya turlari qofiya harakatlari va ayblari qismi tarkibida o’rganilgan. Qofiya turlari mumtoz qofiyaga oid risolalarda to’liq shaklda izohlanmaydi. Shamsiddin Qays Roziyning “Al-mo’jam”

asari asliy, Nosiriddiy Tusiyning “Me’yor ul-ash’or” va “Funun ul-balog’a”da asliy, ma’mul va shoygon, Atoulloh Husayniyning “Risolai qofiya” asarida shoygon va ma’muliy qofiya turi, Jomiyning “Risolai qofiya” asarida asliy va qofiyai ma’muliy, Vohid Tabriziyning “Jam’i muxtasar”, Shams Faxri Isfahoniyning “Me’yor ul-jamoli” asarlarida shoygon qofiya turlarining nazariy asoslari keltiriladi.

2. Garchi risola mualliflarining aksariyati Shamsiddin Qays Roziyning “Al-mo’jam” asaridan ta’sirlanib, o’z risolalarini yaratgan bo’lsalar-da, qofiyaning turlarini belgilashda o’z yondashuvlarini taqdim qilganlar. Qofiya turlarining nomlanishida ham farqli xususiyatlar ko’zga tashlanadi. Asliy qofiya Jomiy tomonidan ma’mul qofiya sifatida ma’muliy qofiya esa g’ayri ma’muliy istilohi ostida keltiriladi.

3. Ahmad Taroziy qofiyaning asliy, ma’muliy va shoygon turlarini turkiy til qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqadi.

4. Olimlar tomonidan raviyning mutaharrik va sokin holda kelishiga qarab qofiyaning mutlaq va muqayyad turi farqlanadi. Biroq shuni alohida ta’kidlash kerakki, hech bir risolada qofiyaning bu turi mutlaq qofiya va muqayyad qofiya sifatida izohlanmaydi. Raviy harfi izohida raviyi mutlaq va raviyi muqayyad shaklida beriladi. Shamsiddin Qays Roziy, Nosiriddin Tusiy, Jomiy, Atoulloh Husayniy qofiya turlarini keltirganda bu ikki turni muqayyad raviy va mutlaq raviy sifatida izohlaydilar.

5. Atoulloh Husayniy “Risolai qofiya” asarida vasl, xuruj, mazid, noyirali mutlaq raviyli qofiya turining 24 sifatga asoslangan holatini baytlar misolida tushuntiradi.

6. Qofiyaning murdaf, muqayyad, muassas, mujarrad turlari temuriylar davriga oid risolalarda qofiya turi sifatida izohlanmaydi. Bu qofiya turlari – nomlari qofiya harflari izohi qismida keltiriladi. Risola mualliflari qofiya harflarining ishtirokiga ko’ra bu qofiya turlarini taqdim qiladilar.

7. Qofiya taqti’larining ishtirokiga ko’ra turlari qofiya nazariyasi keltirilgan risolalarda qofiyaning asosiy turlari sifatida keltiriladi. Qofiya va vazn uyg’unligi qofiyaning asosiy qonuniyati sifatida qofiya harf va harakatlariga nisbatan muhim jarayon sifatida baholanadi. Shuning uchun ham qofiya harf va harakatlaridan oldin qofiyaning taqti’ e’tiboriga ko’ra turlari izohlanadi.

8. Shamsiddin Qays Roziy “Al-mo’jam” asarida qofiyaning taqti’ etiboriga ko’ra turlarini berish barobarida bu qofiya turlari qaysi ruknlarning oxirgi juzfi bo’la olish mumkinligini ham ko’rsatib

beradi. Bu orqali qofiyaning bu turlari qaysi vaznlarda kela olishi mumkinligini bilish mumkin bo'ladi.

9. Qofiya taqti'larining ishtirokiga ko'ra turlari qofiya nazariyasiga bag'ishlangan risolalarning barchasida arab shoirlari tomonidan taqdim etilgan beshta: mutakovis, mutarokib, mutadorik, mutavotir, mutarodif turlari keltiriladi. Ahmad Taroziy besh turga 3 tur qo'shgan holda (mutavosiy, mutarojih, mutazoyid), ularni birmabir izohlaydi.

### Adabiyotlar

- Жомий, Абдурахмон. 2006. Рисолаи қофия // Шарқ мумтоз поэтикаси Ҳамидулла Болтабоев талқинида. (Таржимон Д.Юсупова). Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти.
- Ибн Рашиқ. 1972. Ал-Умда фи маҳосин аш-шиър ва-адаби ва-нақди. 4-е изд. Т. 1-2, Байрут.
- Исфаҳоний, Фаҳри. 1337. Меъёр ул-жамоли (Кия Садек). Техрон.
- Крачковский, И.Ю. 1956. Арабская поэтика в IX в. / Избранные произведения. Т.2. Москва.
- Замахшарий, М. 1989. Ал-Қистос ал-мустақим фи илмул-аруз. Байрут: Мактабат ул-амориф.
- Мусульманкулов, Р. 1989. Персидско-таджикская классическая поэтика X-XV вв. Москва: Наука.
- Розий, Шамси Қайси. 1997. Ал-Муъжам фи маъойири ашъору-л-ажам. Перевод с персидского исследование и комментарий Н.Ю.Чалисова. М.: "Восточная литература" РАН.
- Розий, Ш. 1991. Ал-Муъжам фи маъойири ашъору-л-ажам. Душанбе: Адиб.
- Самарқандий, Низомий Арузий. 1986. Нодир ҳикоялар. Тошкент: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Табризи, Воҳид. 1959. Джем и мухтасар. Критический текст, пер. И примеч. А. Е Бертельса. М.: Наука.
- Туси, Носир ад-Дин. 1325. Ми'йар ал-аш'ор. Техрон.
- Тўйчиев, У. 2011. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. Тошкент: Янги аср авлоди.
- Тарозий, А. 1996. Фунуну-л-балоға. Тошкент: Хазина.
- Ҳусайний, Атоуллоҳ, ҳ.1393. Рисолаи дар қофия. Техрон.
- Makhmudovna, M. S., Saripul, A. R., & Eisar, J. (2023). ANALYSIS OF TEXT DIFFERENCES IN MUTRIB'S WORKS. *American Journal Of Philological Sciences*, 3(04), 41-47.

Madirimova, S. (2019). Mutrib Xonaxarob asarlari qo 'lyozmalarining ilmiy tavsifi. *Oltin bitiglar–Golden Scripts*, 3(3).

## Theoretical foundations and sources of rhyme types

Orzigul Hamroyeva<sup>1</sup>

### Abstract

The science of classical rhyme as a separate independent science was studied separately in the treatises as a component of poetics. In all the treatises on poetics, the theory of the science of rhyme is presented under separate sections, along with such sciences as literary types and genres, artistic arts, aruz weight. In classical literature, the types of rhyme are studied according to several aspects. It should be noted separately that the perfect use of these types according to different aspects of rhyme determined the perfection of stanzas. In the article, the theoretical bases of several types of rhyme, according to the participation of the weight, the narrative letter, according to the participation of the rhyme letters, and according to the structure of the rhyme, given in the treatises on poetics, are comparatively studied.

**Key words:** *rhyming letters, rhyming movements, institution, mujarrad, muqayyad, murdaf, absolute, mutazaid, mutawatir, mutarajih.*

### References

- Jomiy, Abdurahmon. 2006. Risolai qofiya. Sharq mumtoz poetikasi Hamidulla Boltaboyev talqinida. (Tarjimon D.Yusupova). T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nariyoti.
- Ibn Rashiq. 1972. Al-Umda fi mahosin ash-shi'r va-adabi va-naqdi. 4-ye izd. T. 1-2, Bayrut.
- Isfahoniy, Faxri. 1337. Me'yor ul-jamoli (Kiya Sadek). Tehron.
- Krachkovskiy, I.Yu. 1956. Arabskaya poetika v IX v. / Izbranniye proizvedeniya. T.2. Moskva.
- Zamaxshariy, M. 1989. Al-Qistos al-mustaqim fi ilmul-aruz. Bayrut: Maktabat ul-amorif.
- Musulmankulov, R. 1989. Persidsko-tadjikskaya klassicheskaya poetika X-XV vv. Moskva: Nauka.
- Roziy, Shamsi Qaysi. 1997. Al-Mu'jam fi ma'oyiri ash'oru-l-ajam. Pervod s

---

<sup>1</sup>Hamroyeva J. Orzigul - Doctor of Sciences, Associate Professor, Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek language and Literature.

E-pochta- arguvon87@mail.ru.

ORCID ID : 0000-0002-3904-9712

For citation:: Hamroyeva, O.J.. 2023. "Theoretical foundations and sources of rhyme types". *Uzbekistan: Language and Culture. Literature* 1 (2): 33-60.

- persidskogo issledovaniye i kommentariy N.Yu.Chalisova. M.: "Vostochnaya literatura" RAN.
- Roziy, Sh. 1991. Al-Mu'jam fi ma'oyiri ash'oru-l-ajam. Dushanbe: Adib.
- Samarqandiy, Nizomiy Aruziy. 1986. Nodir hikoyalar. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Tabrizi, Voxid. 1959. Djam i muxtasar. Kriticheskiy tekst, per. I primech. A. Ye Bertelsa. M.: Nauka.
- Tusi, Nosir ad-Din. 1325. Mi'yar al-ash'or. Tehron.
- To'ychiyev, U. 2011. O'zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari. Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Taroziy, A. 1996. Fununu-l-balog'a. Toshkent: Xazina.
- Husayniy, Atoullloh. h.1393. Risolai dar qofiya. Tehron.
- Makhmudovna, M. S., Saripul, A. R., & Eisar, J. (2023). ANALYSIS OF TEXT DIFFERENCES IN MUTRIB'S WORKS. *American Journal Of Philological Sciences*, 3(04), 41-47.
- Madirimova, S. (2019). Mutrib Xonaxarob asarlari qo'lyozmalarining ilmiy tavsifi. *Oltin bitiglar-Golden Scripts*, 3(3).



## Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliy “Layli va Majnun” dostonlari muqaddimalarining qiyosiy tahlili

Yulduz Abdulhakimova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Maqolada turkiy adabiyotda mavjud ikki yirik asar – Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliyning “Layli va Majnun” dostonlari qiyoslandi. Qiyoslar natijasida dostonlarning vazni, janri, kompozitsiyasiga xos xususiyatlar, qahramonlar tasviri va voqealar ifodasidagi o‘ziga xoslik masalasi tadqiq etilib, har ikki ijodkorning mavzuga yondashishdagi o‘xshash va farqli tomonlari aniqlangan. Layli va Majnun haqidagi afsonaning doston shaklida forsiy va turkiy adabiyotga kirib kelishi masalasi ko‘rib chiqilgan. Majnunning tarixiy shaxs yoki to‘qima obraz ekanligi haqidagi olimlarning fikrlari o‘rganilib tahlil qilindi.

**Kalit so‘zlar:** *“Xamsa”, doston, ishq, kompozitsiya, masnaviy, qissa, Layli va Majnun, hamd, na‘t.*

### Kirish

Sharq xalqlari adabiyotida “Layli va Majnun” mavzusidagi dostonlar, qissalar ko‘p uchraydi. Ular o‘zining yaratilish davri, muhiti, adabiy hayotdagi o‘rni bilan farqlansa-da, mazmun va syujet jihatdan bir-biriga o‘xshab ketadi. Doston va qissalarning kelib chiqishi arab xalqlari orasida og‘izdan-og‘izga o‘tib keluvchi voqealarga borib taqaladi. Manbalarda keltirilishicha, Majnun tarixiy shaxs bo‘lib, Shimoliy Arabistondagi Bani Omir qabilasiga mansubdir. Uning ismi manbalarda Qays ibn Mulavvah, Mahdiy ibn Muod, al Aqra va ba‘zan al Buhturiy ibn al Ja‘d tarzida keltiriladi. Ibn Qutaybaning “Kitob ush she‘r vash shuaro” kitobida Majnun o‘z qabilasidagi Layli ismli qizni yaxshi ko‘rgani va unga bag‘ishlab she‘rlar yozgani aytiladi. Lekin ba‘zi mualliflar Majnun tarixiy shaxs

---

<sup>1</sup>*Abdulhakimova Yulduz G‘ofur qizi* – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-mail:** abdulhakimovayulduz4@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0002-1492-4568

**Iqtibos uchun:** Abdulhakimova, Y. 2023. “Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliy “Layli va Majnun” dostonlari muqaddimalarining qiyosiy tahlili”. *O‘zbekiston: til va madaniyat. Adabiyotshunoslik* 1 (2): 61-83.

emas, balki ummaviy bir yigit o'z amakisining qizini sevib qolib, unga atab she'rlar yozgan va unga Majnun taxallusini qo'yg'an deb aytishadi. Shu tariqa VII asrning ikkinchi yarmidan boshlab arab she'riyatida Majnun taxallusi bilan ishq mavzusida yozilgan g'amgin she'rlar paydo bo'la boshladi [Sirojiddinov, 2016, 132].

Badiiy adabiyotga bu qissani ilk bora Nizomiy Ganjaviy doston shaklida olib kirdi va shu bilan Layli va Majnun dostonchiligining mukammal asosi yaratildi. Unda muallif Majnun va Laylining el og'zida mashhur bo'lgan tashqi go'zalligini emas, balki ruhiy va ma'naviy dunyosini ham boy va mukammal qilib ochib berdi. Doston o'zining badiiy qimmati bilan Sharq xalqlari adabiyotida katta shuhrat qozondi. Nizomiy dostoni Sharq xalqlari adabiyotida keng shuhrat qozondi va oradan bir asrdan ziyodroq vaqt o'tgach, Amir Xusrav Dehlaviy unga javob yozdi. Dehlaviy dostoni 1299-yilda yaratilgan bo'lib, «Majnun va Layli» deb ataladi. Muallif doston qahramonlari nomini almashtirish bilan yangilikka, o'z salafidan o'zgachalikka intilganligini ta'kidlaydi hamda ushbu qissaning arab xalqlari orasida dastavval «Majnun va Layli» shaklida ommalashganligiga e'tibor qaratadi. U Nizomiy dostonining kompozitsion qurilishini asosan saqlab qolgan holda uning syujetiga ba'zi o'zgartirishlar kiritadi (munajjimning Majnun taqdiri haqidagi bashorati, Navfalning o'z qizini Majnunga nikohlab berishi va b.) Xusrav Dehlaviy ushbu dostoni bilan Sharq xalqlari adabiyotida «Layli va Majnun» mavzusidagi dostonga javob yozish an'anasini boshlab berdi [Sirojiddinov, Yusupova, Davlatov, 2020, 133]. Dehlaviydan keyin bu mavzuda ko'plab ijodkorlar qalam tebratdilar. Turkiy tilda bu yo'nalishda yaratilgan dostonlar orasida Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliy dostonlari alohida o'rin egallaydi. Biz ushbu maqolamizda bu ijodkorlarning dostonlaridagi muqaddimaviy boblarning qiyosiy tahlilini amalga oshirmoqchimiz. D.Yusupovanning yozishicha, «Xamsa» dostonlaridagi muqaddimalar voqelikka shunchaki an'anaviy kirish bo'lmay, balki dostonlar mundarijasi uchun ochqich vazifasini ham o'taydi. Shu ma'noda muqaddimalarda keltirilgan fikrlarga alohida e'tibor berish dostonlar tagzaminida yashiringan ramziy ma'nolarni ochishga yordam beradi" [Yusupova 2016, 29].

Ma'lumki, Alisher Navoiy o'zigacha yaratilgan dostonlardan farqli o'laroq, "Layli va Majnun"ni turkiy tilda yaratadi. U o'zigacha bo'lgan dostonchilik an'alarini chuqur o'zlashtirib, unga turkona libos kiygizadi, turkiy ruh bag'ishlaydi. Muhammad Fuzuliy ham dostonchilikda Navoiy yo'lidan borib, turkiy tilning jozibali o'g'uz

lahjasida mazkur ishq qissasini yangi bosqichga ko'taradi.

Ba'zi bir turk olimlari Muhammad Fuzuliy Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonidan xabardor bo'lganmi yoki yo'q? degan savol atrofida munozara qiladilarki, bu haqda Ibrahim Akyol "Nevai ile Fuzuli'nin Leyla' ve Mecnun" Mesnevilerinin Yapi ve Konu Bakimindan Karşılaştırılması" nomli maqolasida batafsil javob beradi [Ibrahim Akyol, 2019, 267-293]. Masalan, Latifi: Ali Sir Nevai'nin Fuzuli uzerindeki tesiri konusunda; "Nevai tarzina karib bir tarz-i dil-firib ve uslub-i acibi vardir" ifadesini kullanir [Latifi 2000, 435].

Ahdi ise; "lisan-i Tazi'de olan ebyati fusaha-yi "Arab"da meshur guftar-i Nevayi- ayini Turkan-i Mogol yaninda mezkur va zeban-i Furs'de olan divani pesendide-i su'ara-yi her merzmub ve as'ari Turkisi makbul-i zurafa-yi Rum olmishdur".

Ali Nihat Tarlan da; Fuzulinin Sarktaki Çagatay şairlerini ve Garptaki Anadolu sairlerini iyi tanidig'ini, Divani'nin mukaddimesinde bunlardan bahsettigini soyledikten sonar Leyla vu Mecnun'unda "Olmusdu Nevai-Isuhandan Manzur-I Şehenşeh-I Horasan" dedig'ini, bunlardan hic bahsidilmese dahi Fuzulinin o kadar Nevai'nin havasi icinde yasadig'ini ki dil hususiyetleri olmasa bunlarin bir birinden ayirt etmenin guc oldug'uni, so'ylar [Cetindag' 2011, 254].

Muhammad Fuzuliy Alisher Navoiyning chin muxlisi bo'lgan. Ijodda undan juda katta quvvat olgan. Ijobiy va ijodiy ta'sirlangan. Fuzuliyning ijodida bunga ko'plab misollar bor. Birgina "Layli va Majnun" dostoni tarkibida Fuzuliy 2 ta hamd va 3 ta munojot keltiradi. Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoni tarkibida ham 4 ta munojot va 5ta na't kelganligi bizga ma'lum. Fuzuliy Alisher Navoiy va Navoiy davri adabiyotini puxta o'rganib qolmay, Navoiy an'analaridan o'rinli foydalangan ham.

### **Muqaddimaviy boblar qiyosi**

Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni 38 bob, 3623 baytdan iborat. Muqaddima 9 bobni o'z ichiga oladi.

Navoiy dostonning 1-bobida Allohni go'zal sifatlar bilan ulug'laydi: "Kimgaki go'zallik ato etgan bo'lsang unga ne-ne navqironlarni shaydo qilding. Sen qayerdagi jilva qilgan bo'lsang o'sha jilva odamlarga Layli timsoli bo'lib ko'rindi. Sening Majnunlarning aql-idrokdan ozoddir. Ularning ohlari aqlni yelga sovurgan. Aql sening yo'lingda g'ofil-bexabardir. Sening yo'lingda aqlli kishilar telbalanadilar" [Navoiy 2006, 214].

*Ey kimniki aylabon parivash,  
Majnun anga yuz asiri g'amkash.  
Ey kimni qilib parig'a majnun,  
Ashki suyin oqizib jigargun.  
Ey har sorikim qilib tajalli,  
Ul mahzar o'lub jahonda Layli.  
Ey Majnuning xiraddin ozod,  
Ohi erdin xiradni barbod [Navoiy 2006, 5].*

Muhammad Fuzuliyning "Layli va Majnun" dostoni esa 113 bob, 3098 baytni o'z ichiga oladi. Doston Sharq dostonchilik an'analariga muvofiq yozilgan bo'lsa-da, biroq Fuzuliy dostonni masnaviyning o'zida yozishni lozim topmay, unga bir qator janrlarni ham qo'shadi. Masalan, shoirning o'zi bu haqda 9-bobda, ya'ni "Soqiy bilan bo'lgan suhbat" da shunday deydi:

*Gah taarzi- qasida aylarəm saz,  
Şəhbazini olur büləndpərvaz.  
Gah də'bi –qəzəl olur şüarim,  
Ol də'bə rəvon verər qərorim.  
Gah məsnəviyə olub həvəsnək  
Ol bəhrdə istərəm dūri-pak [Fuzuliy 2005, 34].*

Fuzuliy dostoni nasriy debocha bilan boshlanadi. Debocha 238 so'zdan iborat bo'lib, unda shoir Layli va Majnun afsonasini bayon etishda Allohdan kuch va g'ayrat so'raydi. Shu o'rinda Fuzuliy dostonidagi boshqa janrlar bilan bog'liq jihat haqida ikki og'iz so'z. Ma'lumki, Fuzuliyning g'azallari qo'shiqqa aylanib, turkiy, arab, ajam xalqlarining dilidan chuqur joy olgan. Demak, ijodkorning ko'ngli turli janrlarda ijod qilishni istagan. Yozganda ham shunchaki yozish emas balki, qasidaning balandparvoz bo'lishini, g'azalda fikri tiniq, ravon bo'lishini, masnaviyda esa uning har bir misrasi durdek pok bo'lishini istaydi.

Shuning uchun ham doston tarkibiga kiritilgan ruboiy, g'azal, soqiynoma, murabba', qasida kabi janrlar dostonning ta'sirchanligini oshirib, fikrning oson tushunilishiga xizmat qiladi.

Doston boshlanmasida 3 ta ruboiy keltirilgan. Ruboiylar bir birini to'ldirib, ayni paytda ma'naviy jihatdan dostonning asl mazmunini ochib berishga ham xizmat qiladi:

*Ey nə'səti –hüsni- eşqə tə'sir qılan!  
Eşqifə binayi- kövni tə'mir qılan!  
Leyli səri- zülfini girehdir qılaü!  
Məcnuni- həzin boynina zəncir qılan! [Fuzuliy 2005, 10].*

Ushbu ruboiyda shoir Allohga murojaat qilar ekan, shunday deydi: "Sen ishqing bilan husnlar na'shasiga ta'sir qilding. Va bu Ishq bilan qalblar binosini ta'mir qilding, go'zallashtirding, poklading. Va Laylining (yoki Laylidek minglab ma'shuqlarning) zulfini zanjir qilib, Majnunlarning bo'yniga ishq savdosini osding".

Turk olimi Burhan Basharslan "Fuzulinin Leyla vu Macnun Mesnevisi-Dibace" nomli maqolasida yuqoridagi ruboiyni quyidagicha sharhlaydi: "Ilk rubaide kainatin yaratilmasinin isk ile olusundan bahsettikten sonar Hakk'a yaranici vasfiyla bir niyaza baslanir. Bu rubaide zannediyorom ki husn ve ask kavramlarindan husn Leyla'ya, ask ise Mecnun'a isaret etmektedir." [Burhan Basharslan, Marmara ilahiyat.com (muif blog); 14 Agustos 2019] Ya'ni: Birinchi ruboiyda koinotni ishq bilan yaratilganligini aytib, Haqdan yorining vasfini tilab yolvoradi. Bu ruboiyda husn Layliga, ishq esa Majnunga ishoradir.

*Tutsam täläbi -häqiqätä rahi- mäcaz,  
Əfsanə bəhanəsilə orz etsəm raz,  
Leyli səbəbilə vəsfm etsəm aq'az,  
Məcnun dili ilə etsəni izhari- niyaz* [Fuzuliy 2005, 10].

Navbatdagi ruboiyda esa Fuzuliy dostonidan ko'zlangan maqsadi haqida so'zlaydi: Men haqiqatni aytmoqchiman va bu haqiqatni bir afsona bahonasida arz etmoqchiman. Laylining ta'rifini esa shunchaki o'qiguvchi bo'lib emas, balki Majnunning tilidan bayon qilgum.

Burhan Basharslan ikkinchi ruboiyni quyidagicha sharhlaydi: "Fuzulinin taleb-i hakikatte rah-i mecaz tutmasi ne anlama gelmektedir? Ortada bir hakikatinvarlig'i ve bu hakikatin mecaz yoluyla talep edilmesi durumu vardir ki kanaatime go're Divan siirini karakterizeeden ifade bu cumledegizlidir. Zira Leyla' ve Mecnun, mensur kisimdan da anləşilacagiuzere iki remizdir. Leyla hakikatin, Mecnun ise onun talepkarinin remzidir" [Burhan Basharslan. Marmara ilahiyat.com (muif blog); 14 Agustos 2019]. Yani: Fuzuliyning taleb-i hakikatte rah-i mecaz jumlasida qanday ma'no anglashiladi? O'rtada bir haqiqatning borligi va bu haqiqatga majoz yo'li orqali talabgor bo'lish dostonning asl mazmunini ochib beradi. Zero, Layli va Majnun ikki ramzdir. Layli haqiqatning, Majnun esa haqiqatga talabgorning ramzidir.

*Lütəf ilə şə'bi -ümidimni ruz eylə!  
İqbalımı tövfiq ilə firuz eylə!  
Leyli kimi ləfzimi diləfruz eylə!*

*Məcnun kimi nəzmimi cigərso'z eylə!* [Fuzuliy 2005, 10].

So'nggi ruboiyda shoir yana Allohning o'ziga murojaat qilib, dostonidan ko'zlagan maqsadini amalga oshirishini, iqbolini porloq etib, Laylining har bir so'zini dilga yoquvchi qilishini va Majnunning so'zini jonso'z, jigarso'z qilishini so'raydi.

Fuzuliyning "Layli va Majnun" dostoni forsiy tilda yozilgan bo'lib, 38 baytdan iborat. Bob an'anaviy Allohga hamd bilan boshlanadi. Unda Allohning go'zalligi, buyukligi, uning azaliy va abadiyligi aytiladi. Allohni san'atlar orqali tanidik, deydi shoir. "Sen bu olamni bezab unda Odam nasllarini yaratding. Haqiqat gavharining sarrofi, yaratilish binosining Me'mori ham Sensan". Bobning so'nggida esa Allohdan o'ziga yupanch yordam so'raydi. "Hunar shuhratidan xabarim, hunarsizlikdan o'zga xunarim yo'qdir. Oldimga qandayin vazifa qo'ymayin, uning avvali va oxiri qayg'ulidir. Mening yo'limga tushgan har bir tosh, har bir tomchi menga xavf solur. Agar Sen marhamat etmasang, dardim tashqariga chiqmasa, bu nazm dengizida qo'limni sof yozuvlar bilan naqshlantirki, xotiramning oyinasi pok, aqlimning chirog'i porloq bo'lsin".

*Sarrafi-cəvəhiri-həqaiq,  
Kəşşafi-qəvəvizü dəqaiq.  
Peydakoni-hər nəən ki, başəd,  
Poyhankoni-hər oyan ki, başəd.  
Memari-binayi-afərinış,  
Sirabkoni-riyazi-biniş.  
An kon ki, diləm fūrüg' girəd,  
Lövham rəqəmi səfa pəzirəd* [Fuzuliy 2005, 11-12].

Fuzuliy ham Ishq bobida Alisher Navoiy ko'zlagan manzilni maqsad qilgan esa-da, bu manziliga o'ziga xos bo'lgan yo'ldan ketishni istaydi. Dostonning tarkibiy tuzilishi bunga yaqqol dalil bo'la oladi.

Alisher Navoiy dostonning ikkinchi bobida Munojotni keltiradi. Munojotda Allohning yagona, qudratli zot ekanligini aytadi va o'zining gunohlarini kechirishini so'raydi. Dostonni yozishga kirishar ekan, Allohdan o'ziga madad so'raydi:

*Qilmay da'viyi xush adoliq,,  
Arz ayla, Navoiyo, gadoliq.  
Shukrungg'a tilimni qoyil ayla,  
Sajdangg'a boshimni moyil ayla...  
Bo'l rohnemun mango ul ishga,  
Kim, bo'lsa sanga rizo ul ishga...  
Raddig'a qabulni mute' et,*

*Jurmumg'a rasulni shafe'et* [Navoiy 2006, 10-11].

Fuzuliy dostonining 2-bobi 68 baytdan iborat. Bu bobda ham Fuzuliy Allohga hamd aytadi, Allohni go'zal sifatlar bilan madh etadi va Allohdan o'ziga madad so'raydi:

*Ey munisi-ahli-zòvq yadın,  
Əbvabi-oraəl kilidi adın!  
Ey gəni-əta tilismi ismin,  
Sən gənji- nihan, cahan tilismin!* [Fuzuliy 2005, 13].

Mazmuni: Ey! Yodi munislik ila zavq berguvchi, olamdagi hamma tilsimotlarning kaliti sendadir. Ey, ismi xazinalar tilsimi jahon tilsimlariga sening hazinalaring yashirilgandir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Fuzuliyning "Layli va Majnun" dostoni muqaddimasi tarkibiy tuzilishi jihatidan Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonidan farq qiladi. Dostonning 3,4, 5-boblarida munojot keltiriladi.

Fuzuliy dostonning munojot qismida atrofidagi ijodiy muhitdan ko'ngli to'lmasligini bayon qiladi. Keyingi avlodlar orasida arziqli ijodkorlar yo'qligidan iztirobga tushadi. "Dardlarim ko'p, gunohlarim undanda ko'p" – deydi shoir.

Dostonning 3-bobi 86 baytdan iborat bo'lib, aynan shu bobdan munojot boshlanadi. Unda shoir o'zining nafsini taftish qilib, aql bilan jismini boshqarishda Allohdan madad tilaydi: Ey Tangrim, karamingni men xor-u zordan darig' tutmaginki, men Sening panohingdan umidvorman. Meni tuproqdan yaratding. Aql, jon ato qilding. Gar jon istasam, Sening dargohing xokidan istaymay. Aqlimni esa soliklik yo'lida bergin- deb iltijo qiladi.

*Nəm var ki, laf edəm özümđen,  
Məhv eylə məni mənim gözümdən.  
Ol gün ki, yox idi məndə qüdrət,  
Qıldın mənə qeybətimdə rəğbət.  
Fərz oldu bir əzmə cazm qılmaq  
Me'raci kəmalə əzm qılmaq.  
Bu rahdən etmək olmaz ikrah,  
Xoş rahdurur sənə gedən rah* [Fuzuliy 2005, 15-17].

Mazmuni: Meni o'zimning ko'zimdan, nafsimdanda asragin. Menda qudurat yo'q edi. Sen meni rag'batlantirding. Jon berding-u sohibi dil etding. Mening insofimni bergin, imonimni mustahkam qilgin. O'zingning toat yo'lingda aqidamni har lahza mahkam qilgin. Qaerdaki nur ko'rsam Sening nuring deb yugurdim va bu holdan



sharmandalik ahvolga tushdim. Seni aql bilan izladim va bu yo'lda aqlimdan ayrildim. Mening yo'lim faqat Sen tomondir, deb panoh so'raydi.

Dostonning 4-bobida ham munojot davom etadi. Ikkinchi munojot 57 baytdan iborat. Bob quyidagi fikrlar bilan boshlanadi:

*Bilmək gərək onu kim, cəvahir  
Ne gənci-nihandan oldu zahir?  
Ne dairədir bu dövri-əflak,  
Ne zabitədir bu mərkəzi-xak?  
Cismə ərəzi kim etdi qaim,  
Narə nədən oldu nu lazim?  
...Gər kaf ilə nundan oldu aləm,  
Aya, nədən oldu kafü nun həm?  
Gər qayətə eyləsən təəmmül,  
Zahir olur onda məzhəri- küll.  
Versən özünə fənayı- mütləq,  
İsbat olur ol fəna ilə həq.  
...Gər yetsə idi bu sirrə idrak,  
Demozdi Rəsul "məərəfhak"  
Xəlq oldu bu bəbri-heyrətə qərq,  
Ta xəlqdən ola Xaliqə fərq.  
Bir kimsə əgər olaydı agah  
Kim, xəlqi necə yaradır Allah.  
Fəş oldu ki, sirri-Həq nihandır,  
Aləmdə nişani binişandır [Fuzuliy 2005, 18-19].*

Mazmuni: Jismimizni haqiqatga yetkazguvchiga tahsinlar bo'lsin! Bilishimiz kerakki, U Kim? Qanday javohirki, nega jamiki xazinalarning siri unda zohir bo'lgay. Jismimizni Kim tik etdi? Bizga qaerdan nur berdi? Olamni K (KOF) va N (NUN)dan yaratdi. Bu dunyo bir dam bo'lsa-da sohibining nazaridan chetda emas. Bu turfa naqshinkorlikning qirralariga boq, naqqoshning qanchalik pok ekanligiga guvoh bo'lasan. Har bir zarrada porloq nuring bor. Agar chuqurroq nazar tashlab qaralsa, har zarrada KULL paydo bo'ladi. (Fuzuliy bu o'rinda Kull va Juz' ya'ni butun va qismni nazarda tutmoqda. Kull butun bu Allohgagina xos bo'lib, olam va undagi yaralguvchilar esa Juz', ya'ni shu butunning qismlaridir). Sening bor ekanligingning yana bir dalili umrboqiyiligingdir. Gar ma'rifat zavqi bo'lsa, u ham Sendandir. Haq uchun hamma ham bir inson, ammo bir Zot borki, hilqati barcha yomonliklarning aksidir. Xalq esa bor narsaga ishonmay, yo'q narsalarga aldanib o'tiribdi. Ey, Tangrim! U Zot haqida ularga bildirgin va odob bergin. Hech kim o'rtadagi

pardani olib tashloldi va U Zot kim ekanligini idrok qilolmadilar. Gar idrok qilolganlarida edi, Rasulni "Seni tanimadik" demasdilar.

Xalq bu xabardan hayratga tushdi. Alloh hammasini ayon etdi, sirlarni esa pinhon qoldirdi. Biror kimsa ham bundan ogoh bo'lmadi. Agar bilganlarida edi, Alloh jamiki insoniyatning do'sti ekanligini anglardilar. Bu yo'lni chuqurroq o'rgansang, har bir ramzda Haqning hikmatini ko'rasan. Haqning siri doim yashirin, ammo olamdagi hamma yaralmish uning nishonasidir.

Dostonning 5-bobi 56 baytdan iborat. Bu bobda Fuzuliy jism va ruhning og'riqlariga, jabr-u-sitamlariga doim ham dunyoni aybdor qilmaslik haqida so'zlaydi. Seni yo'qdan bor qilib yaratdi. Nimaniki so'rasang, barini berdi. Charxning ishi doim sen bilan bo'ldi. Sening o'zing charxga nima qilib berding"-quyidagi baytlarni keltiradi:

*Qildi səni hiçdən bir adəm,  
Əsbabi-tənə'ümün fərahəm.  
Çərxin xud işi səninlə böylə;  
Sən neylədin onun İlə, söylə?  
Hər dəm onu ,bivəfa oxursan,  
"Dunsan" deyə bəddua oxursan [Fuzuliy 2005, 20-21].*

Fuzuliy har bir bobda albatta o'ziga, nafsiga tanbih beradi va eng to'g'ri yo'l Haqqa eltuvchi yo'l ekanligini qayta-qayta ta'kidlaydi.

Hazrat Navoiy dostonining 3-bobi Na't bo'lib, bu bobni Hazrat Navoiy Rasululloh (s.a.v)ning madhlariga bag'ishlaydi va u zotning nuridan falaklar nurlangani, qadamlaridan jamiki koinot quvongani, Alloh u zotni bir nafasda barcha ilmlarda mukammal qilganligi haqida so'zlaydi:

*Sun' ilgi chekib bu nomag'a tam.  
Orqasiga bosti naqshi xotam.  
Me'roj tuni taboh bo'ldi,  
Borcha anga hoki roh bo'ldi,  
Borisig'a har guzin avqot,  
Yuz ming salovat ila tahiyot [Navoiy 2006, 14].*

Muhammad Fuzuliy dostonining 6-bobi Na't bo'lib, 91 baytdan iborat. Bu bobda Payg'ambarimiz (s.a.v) sifatleri ta'riflanadi.

*Sərdəftəri-ənbiyayi-mürsie,  
Onlara həni axirü həm əvvəl!  
İrfani-sifatü zate arif,  
Keyfiyyəti-kainatə vaqif!  
...Ey vazei-istilahi-iman,*

*Həqdən səbəbi-nüzuli-fürqan!  
...Ey xəlvəti-qürba şə'mi-məhfü,  
Cibril tərəddüdünə mənzil!  
...Ey qiblənüməyi-əhli-taət,  
Gəncineyi-gövhəri-şafaət.  
"Yasin" sədəfi-düri-sifatın,  
"Taha" güli-bustani-zatın.  
Xəlqə verib intizari-məqdəm,  
Ol dəm gəldi ki, gəldi Adəm [Fuzuliy 2005, 22-24].*

Mazmuni: "Ey butun Olamlarning podishohi, tuproq-u-falaklarning egasi bo'lgan Zot, senga hamdlar bo'lsin! Payg'ambarlik maqomining shahanshohi, qoidasi adolat bo'lgan Zot! Osmon-u-yerlarni birlashtirib turgan mahshar daftarining hisobdori! Payg'ambarlarning peshqadami! Ularning ham avvali, ham oxiri! (Bu o'rinda Fuzuliy ikki narsaga urg'u beradi. Birinchidan, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) payg'ambarlarning so'nggisidir. Ammo Allohning U Zotga buyuk muhabbati sabab, Me'roj tunida jamiki nabiyilar bilan ko'rishib, payg'ambarlik taxtini egalladilar. Eng baland martabaga yetishdilar.

Ikkinchidan, Alloh payg'ambarimiz(c.a.v)ning nurini butun insoniyatni yaratishdan ancha avval yaratdi va o'sha nurdan Odam Atoni yaratdi. Bunga misol sifatida N. Komilovning "Tasavvuf" kitobida quyidagicha fikrlar keladi: "Tasavvuf falsafasiga binoan, Alloh taolo (uni Javhari zot, Mutlaq ruh, Aqli kull ham deydilar) avval Muhammad(s.a.v)ning nurini yaratdi. So'ngra shu nur tufayli olamlarni va odamlarni yaratdi. Shunday qilib, olam asosida Muhammad nuri yoki Muhammad haqiqati yotadi. Olamlar boshida Muhammad nuri mavjud bo'lganligi sababli birinchi inson hazrati Odam Safiullohni Muhammadning o'g'li, boshqacha aytganda, Muhammad alayhissalomni Odam Atoga nisbatan ham ota, ham o'g'il deyish mumkun" [Komilov 1996, 42].

"Haqdan amr bo'lgach senga "Qur'on" nozil bo'ldi sening har bir va'zing imon bilan nurlandi. Jabroil (a.s) sening manziling tomon taraddudlandi. Ey, toat ahllarining qiblanamosi! Shafolat ganjining gavhari, arshdan to tuproq qadar toju-taxt sohibi, qutlug' nur sohibi! Sen inson bo'lib yaratilding. Ammo hamma farishtalar senga sajda qiladilar. Sening sifating "Yosun"ning duru sadaflaridek, zoting esa "Toha" bo'stonining gullaridandir. Sen donishlik maktabining muallimisan!

*Dərgahinə ənbiya rücuı,*

*Tə'ziminə asiman rükui.  
Təhsin sənə, ey xüçəstəfərcam  
Kim, ə'z qılıb təriqi-islam.  
...Sən bildirdin ki, kimdir Allah,  
Sənsiz kim olurdu ondan agah?  
Faş oldu nəsihətin cəhanə,  
Sən qoymadın ortada bəhanə.  
...Asilərin olasan pənahi,  
Nomidlərin ümidgahi.  
Gər məndə ola təmam taət,  
İzhar nədən bular şəfaət?  
...Hər əsrda bir nəbi zühuri,  
Hər düvrda bir rəsul nuri.  
...Xəlqə verib intizari-məqdəm,  
Ol dəm gəldi ki, gəldi Adəm.  
...Bir-bir yetib özgə ənbıyayə,  
Me'racə çıxardı payə-payə.  
...Bu aləmə erdi idi vayə,  
Ola ləmə salmış idi sayə.*

Mazmuni: Sen payg'ambarlar dargohiga borar ekansan, butun koinot Senga ta'zim qilib ikki bukildi. Islom yo'lidan yurgan insonning ahvoli ravshan, oqibati yaxshi bo'lishini aytding. Va bizga jamiki insoniyatning ahvolini bayon qilding. Sen bizga Allohni tanitding, gumrohlarni yo'lga solding. Nasihatlarining butun jahonga ma'lum bo'ldi. Senga itoatdamiz va marhamatingdan umidvormiz. Osiylarni panohingga olasan, noumidlarga umid bag'ishlaysan, kimdir osiy bo'lsa, sen shafolat qilasan. Agar menda ixtiyor bo'lib sen bilan ko'rishsam, shafolat aylashingni qanday so'rayman? Har asrda bir payg'ambar keldi. Har davrni bir payg'ambar nuri yoritdi. Ular o'zining nuri bilan fitrat yo'llarini yoritdi. Ammo sen u payg'ambarlarning ham shohisan. Sen falakka qadam qo'yar ekansan, yo'ling navbatma navbat nurafshon bo'lib bordi. Jamiki yaralmish (insondan boshqa) sening jismingdan avval nuringni ko'rdi. Sening nuring olamga fayz bag'ishladi. Me'rojga chiqar ekansan, har qavatda bittadan payg'ambar uchradi. Yo'lingda avval Odam (a.s) uchradi. Sening soyang yo'q edi. Qadding niholdek, yuzing oydek edi. Sening tashrifingdan falaklar yuksalib, bu olamga soya solardi".

Alisher Navoiy dostonning 4-bobini Me'roj tuniga bag'ishlaydi. Bobning boshida tunning qorong'uligi xuddi dilbarning sochidagi qoralik kabidir deb sifatlanadi. Oshiqning ko'ngli shu qorong'ulik ichida-yu, xayoli Haqning nurida ekanligiga ishora qilinsa,

bobning davomida Navoiy Payg'ambarimiz (s.a.v)ning Me'rojga chiqayotganlarida butun olam bundan baxtiyor bo'lganligi va muborak qadamlari tekkan har bir sayyoralar cheksiz quvonganligi haqida so'zlaydi:

*Dilbar sochidek harosi jonda,  
Men munda, nechukki, ko'nglim onda.  
Bor ishdin etib o'zni ma'zul,  
Mahbub xayoli birla mashg'ul,  
Zuhra yo'lida tuzub navo zer,  
Mutriblardek bo'lib miyongir.  
Bahrom ko'rub biyik janobin,  
Tashlab qilichin, o'pub rikobin.  
Soyislig'ig'a Zuhul urub fol,  
Gazdasta bila so'lida g'irbol [Navoiy 2006, 15-17].*

Dostonning 7-bobi 82 baytdan iborat bo'lib, Fuzuliy unda Me'roj tuning ta'rifini keltiradi. Davomida esa payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ga bag'ishlangan qasida o'rin olgan bo'lib, 18 baytdan iboratdir.

*Cün feyzi-vüçudin ilə ey pak,  
Rəşki-fələk oldu ərseyi-xak,  
Didarini görməgi mələklər,  
Pabusuna yetməgi fələklər.  
...Bir yaxşı zaman, şərəfli saat  
Rəf oldu dualara icabət.  
Cibril yetib, yetirdi fərman:  
-Key sərvi-riyazi-elmü erdi!  
Xurşidini ərşə sayə qılğıl,  
Me'raci büləndpayə qılğıl!  
Eyvani-sipehrdə sitarə  
Min-min göz açıbdır intizarə.  
Xoş ol ki, minib Bùraqi xoşhal,  
Bu kun dərəcəti-izzü erdi.*

Mazmuni: "Sening pok vujuding fayzi falakka yetganida yer rashq kilib qoldi. Malaklar sening chehrangni ko'rish uchun, falaklar senga ta'zim qilish uchun iztirob bilan Allohdan izn so'radilar. Bir saodatli, sharafli palla keldiki, duolar ijobat bo'lib o'rtadagi parda ko'tarildi. Shu payt Jabroil (a.s) kelib farmonni e'lon qildi. "Kel ey ilmu-irfon sohibi, quyoshing arshga soya solsini! Me'rojni boshlagin. Ey qadri baland podishoh, endi oradagi pardalar ko'tarilib loma-konni sayr aylagin. Sening jamolingga malaklar mushtiq, sening

visolingga falakalar muhtoj". Yulduzlar intizor bo'lib osmon ayvonida ko'z ochdi. Buroqda shod chiqib borasan, osmonning eng baland darajasigacha chiqding.

*Ne'ləyninə sūrtdü üz mehi-növ,  
Xurşid rüxöndən aldı pərtöv.  
Göstərdi Ütarid ehtiramın,  
Xətt erdi ki, mən sənin qulamın.  
...Tiğində bulub nizam əyyam,  
Tə'limi-şücaət aldı Bəhram.  
...Rə'yət səfi-sabitata çəkdi,  
Ol məzəər mehr toxmun əkdi.  
Qıldın fələk etləsini rəngin,  
Ol məhfilə verdin özgə ayin.  
Cibrili qoyub, Būraqi saldın,  
Tövhid yolunda fərd qaldın.  
Rəf oldu sənə hicabi-mabeyn,  
Nüzhətgəhin oldu qabə-qövseyin.*

Mazmuni: Oy o'ziga niliy(ko'k)rangni surtdi. Quyosh sendan o'ziga porloqlik oldi. Falakning kotibi bo'lmish Utorud (Merkuriy) sayyorasi senga in'om ko'rsatib, men sening qalamingman dedi. (Qadimgi afsonalarga ko'ra, Merkuriy sayyorasi kotiblarning yo'ldoshidir). Bahrom (Mars sayyorasi) shijoatni sendan o'rgandi. Fayzingdan barcha shodlandi. Raiyat safiga chiqding va ularning qalbiga mehr urug'ini qadading. Sening mehringdan falaklar lavhining qalami ziynatlanib, atlasini rangin qildi. Jabroil (a.s) yo'llarini davom ettira olmasliklarini aytib, Buroqning tizginini qo'yib yubordilar. (Chunki bu darajaga yetganda, Allohning nuriga Jubroil (a.s) ham dosh bera olmasdilar). Sen esa yo'lingni yolg'iz davom ettirding. Ko'ngil ochadigan, rohatlanadigan joying qoba qovsayn bo'ldi.

Shu o'rindan boshlab, dostonning tarkibiy tuzilishida yana o'zgarish sodir bo'ladi. Aynan shu 7-bobdan boshlab boblar so'ngida qo'shimcha qasida yoki soqiynoma berib boriladi. Bu esa bobning mazmunini ochish uchun kalit vazifasini bajaradi.

Dostondagi ilk qasida 18 baytdan iborat. Forsiyda yozilgan. Payg'ambarimiz (s.a.v) vasfiga bag'ishlanadi. Qasida so'ngida ozarbayjon tilida tarjimai ham beriladi. Rasulullohning Alloh tomonidan mo'minlarga xabarchi qilib yuborilganliklari, u kishining panohida bo'lganlarga zarar yetmasligi, Alloh U kishini azizlardan-da aziz qilib yaratgani haqida aytiladi. Va yana aytiladiki, Iso (a.s) ham falakka chiqdi, biroq uning maqomi Muhammad (s.a.v)ning Me'rojga

chiqqanlarichalik ulug' emas, Me'roj kechasining oldida Muso (a.s) chiqqan Tur tog'ining qiymati esa qadrsizdir. Ibrohim (a.s)ga atab yoqilgan o'tni o'chirgan ham sening suving edi deb ta'riflanadi. Barcha payg'ambarlar oldida Muhammad (s.a.v)ning nisbatlari "Alif" kabidir. Payg'ambarlar silsilasi u kishiga bog'langandir. Avval ham, oxir ham Rasululloh(s.a.v)dir. Qasida taqdir uning roziligidan boshqasiga ko'nmasligi haqidagi fikr bilan yakunlanadi:

*Isa nāmīrāsād be to dār qādrū mānzālāt,  
Bār çarx ağər nəhəd ze səri-iqtidar pa.  
Me'rac yafti to vū bār Tur şod Kəlīm,  
Fərq əz to ma Kəlīm ze ərşəstū ta səma.  
Ba ənbīyast nesbətī-zatī-to çun əlif,  
Həm ibtida toi be həqiqət, həm intiha* [Fuzuliy 2005, 27-28].

Alisher Navoiy dostonning 5-bobida o'zidan avval yashab ijod qilgan ustozlari Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviylarni madh etadi. 6-bobda esa ustoz Abdurahmon Jomiyning ta'rifi keladi. Fuzuliy o'zidan avval ijod etgan salaflar haqida dostonning 8-bobida bayon qiladi. Dostonning davomida "Soqiynoma" o'rin oladi va unda Nizomiy Ganjaviy hamda Alisher Navoiyning qisqacha madhi keladi. Ma'no jihatidan yaqin mavzu Alisher Navoiyning dostonida 5, 6-bob, Fuzuliyning dostonida esa 8 bob va Soqiynomaning tarkibiga kiritiladi.

Alisher Navoiy dostonning 5-bobida so'zga ta'rif berar ekan, dunyoning avvali ham, oxiri ham so'zdir, deydi. So'z bilan til yuksaldi, tishlar esa unga injudek tasbeh bo'ldi.

*Til zikring ila chu topti tarjih,  
Tishlar anga bo'ldi inju tasbih* [Navoiy 2006, 21].

Ushbu bobda Navoiy Nizomiyga nisbatan nazm ahlining eng go'zal so'z tizuvchisi, so'zni durdek tartibga soluvchidir. U Ganjada ganjdek yashirin edi, besh dostonga tartib berdi-yu o'zidan o'chmas iz qoldirdi, degan ta'rifni keltiradi:

*Nazm ahlining afsahul-kalomi,  
So'z durrig'a muntazim Nizomiy.  
Ul Ganjada ganjdek nihoni  
Besh ganj qo'yub, vale nishoni* [Navoiy 2006, 22].

Navoiy Dehlaviyni "Hind sehrgari" "Sohiri Hind" deb ataydi. Qalamining uchi afsungardek sahifalarga tegsa, ul sahifalar, yozuvlar jahonga fitna soladi. Xazinadek tovlanib turguvchi besh qal'a yaratdiki, u xazinaning siri butun olamga oshikor bo'ldi, deb



Dehlaviy yaratgan besh dostonni ta'riflaydi:

*Ko'rgach bu tilism sohiri Hind,  
Jodulig' ishida mohiri Hind.  
Kilki uchi safhag'a fusunrez,  
Ul safha jahong'a fitnaangiz.  
Besh qal'aki barcha erdi xoro,  
Besh maxfi ganji oshkoro [Navoiy 2006, 22-23].*

Muhammad Fuzuliy esa dostonning 8-bobida "Dunyoning foniyligi haqida shikoyat" qiladi. Bob 46 baytdan iborat bo'lib, unda shoir soqiyga murojaat qilib, qadahini to'ldirib, may quyib berishini va uning bilan bu mayxonada hamdard bo'lishligini so'raydi. Tasavvufda, Soqiy-Pir, may-ma'rifat, jom esa qalbdir. Demak, Fuzuliy bu o'rinda Pirga murojaat qilib, uning qalbini ma'rifat bilan, ishq bilan to'ldirmoqligini va Allohga eltguvchi mashaqqatli bu yo'lda yo'ldosh bo'lishligini so'raydi:

*Sən ver badə, mən eyləyim nuş,  
Mən nəzm oxuyun, sən ona tut guş!  
...Min riştəyə türfə lə'l çəksəm,  
Min rövzəyə nəzənin gül əksəm,  
Qılmaz ona hiç kim nəzarə,  
Derlər gülə xar, lə'lə xarə.  
Ancaq deməzəm ki, xaki-Bağdad  
Alayışı-nəzmdəndir azad [Fuzuliy 2005, 30].*

Mazmuni: Bu bazmda (zamonnı nazarda tutadi) birorta ham yaxshi shoir qolmadi, she'r qoidalari buzildi, bu zamonda nazmning qadri qolmadi, san manga boda ber man uning ta'midan lazzatlanay, man she'r o'qiyman, san quloq sol, deydi.

Bu nazm gulzoriga man ham gul eksam, mazmuniga ibrat joylab har tuyg'uga turli qimmatbaho toshlarni qadasam, unga hech kim nazar solmasa va qimmatbaho toshlarni xor qilibdi derlar, aslo bunday demasinlarki, Bog'dod tuprog'i yomon shoirlardan holidir.

*Nə Hind, nə Fors, nə Xorasan,  
Nə Rumü Əcəm, nə Şamü Şirvan.  
...Hala məgər iqtizayi-dövrən  
Oldur ki, ola o gənc pünhan [Fuzuliy 2005, 30-31].*

Hozir na Hindda, na Forsda, na Xuroson-u-Ajamda birorta yaxshi shoir yo'q. Lekin, bu nazm xazinası bo'shab qo'lmaydi. Hali zamonning o'zi bizga ko'plab xazinalarnı ochib beradi, deydi va Allohdan madad so'rab, bobni yakunlaydi.



Bobning so'ngida Soqiynoma keladi. Soqiynoma 62 bayt bo'lib, unda shoir soqiyga murojaat qilib, o'zini sadaf, soqiyni esa yomg'ir deb ataydi:

*Mən bir sədəfəm, sən əbri-niysan,  
Ver qətrəvü al dürri-qəltan.  
Bulmuşdi səfayi-dil Nizami,  
Şirvanşəhə düşüb girami.  
Olmuşdu Nəvaiyi-süxəndon  
Mənzuri-şəhənşəhi-Xorasan [Fuzuliy 2005, 32].*

Mazmuni: Har bir tomching bilan meni sayqallagin. Sen quyoshsan, men bir qora tuproqman. Meni javharlaring bilan ziynatlagin deb iltijo qiladi. Fuzuliy, menga hamdam bo'lgan bir nechta shoirlar navbat bilan dunyo shohlarining nazariga tushdi, deb havas bilan aytadi.

*Çün qalmadı, qalmadı fəsaḥət,  
Ərbabi-fəsaḥət içrə rahət.  
Ol taifə çəkdi xirqəyə baş,  
Halətlərin etməz oldular faş.  
Eylər həsəd əhli bağlayib kin,  
Təhsin əvəzinə nefyü nifrin.*

Mazmuni: Bobning davomida Fuzuliy iztirob bilan endi bulardek go'zal so'z aytguvchi qolmaganligini, ular ulug' ijodkor bo'lsalarada, o'zlarining moddiy ahvollarini biror kishiga bildirmasliklarini balki doimo darvishlik hirqasini egnilaridan yechmaganliklarini aytadi. Shoir o'zini ularning davomchisi sanab, endi u ham so'zni ustuvor qilishini va egniga hirqa tashlashini aytadi. So'zning ilohiy ekanligini aytib, "buning uchun menga har majlislarda adovat qilsalar ham, g'araz qilsalar ham tahsin deb qabul qilaman", deydi.

Alisher Navoiy dostonning 6-bobini Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhiga bag'ishlaydi. Navoiy Abdurahmon Jomiyning otiga to'xtalib, uning oti Abdurahmon bo'lsa-da, o'zi Jomiy nomi bilan olamda shuxrat topganini aytadi. Uning qalamidan ma'no durlari oqadi va bu so'z durlarini nutqiga tizib chiqadi:

*Abdurrahmondin oti nomiy,  
Lekin topib ishtihor Jomiy.  
Xomangdin durri ma'ni oqib,  
So'z silkiga nutqung oni toqib [Navoiy 2006, 25].*

Bob davomida Navoiy Jomiyning "Silsilat uz- zahab", "Tuhfat

ul-Ahror", "Suhbat ul-abror", "Ahsan ul-qasas" ("Yusuf va Zulayho") dostonlari va "Devon"ning besh xazina deb baholaydi.

Muhammad Fuzuliy dostonning 9-bobini "Bu soqiyga bazm uchun may so'rash xitobi" deb nomlaydi, bob 36 baytdan iborat:

*Feyzi-hünərim şərabdan sor,  
Suzi-cigərim kəbabdən sor.  
Gəh tərzi-qəsida eylərəm saz,  
Şəhbazını olur büləndpərvaz.  
Gəh də'bi-qəzəl olur şüarım.  
Ol də'bə rəvan verər qərarım.  
Gəh məsnəviyə olub həvəsnak,  
Ol bəhrdə istərəm düri-pak.  
Dükkanım ola rəvaci-bazar,  
Hər istədigin bula xiridar [Fuzuliy 2005, 34].*

Mazmuni:Shoir soqiyga murojaat qilib, ahvoli xarobligining sababini maydan so'rashligini, she'riyat bo'stonida o'z o'rni bo'lishini istashini va bu bo'stonda pok durlar qadalgan misralardan kim neni istasa xaridor bo'lishligini aytadi. "Goh qasida, goh g'azal, goh masnaviy yozaman. G'azalni ravon yozaman, masnaviyda havasnok bo'lsamda, uning bahrlariga pok durlarni qadashni istayman", deydi.

Alisher Navoiy 7-bobda Sulton Husayn Boyqaronining madhini keltiradi. Navoiy Husayn Boyqaroni din peshvosi, saxovatpesha, bunyodkor shoh sifatida ta'riflaydi. U qilich bilan sherni yengishdek kuchga ega bo'lsa-da, ammo chumoliga nohaq azob berishdan qo'rqadi. Shoh sifatida shohlarning ichida qanchalik yuksak bo'lsa, darvishlar oldida tuproqdek hokisordir, deb ta'riflaydi:

*Shahlar aro o'rni toqi aflok,  
Darveshlar ollida ovuch xok.  
Darvesh desam ulus uza shoh,  
Shohi darvesh borakalloh! [Navoiy 2006, 28].*

N.Komilovning "Tasavvuf" kitobida yozilishicha, "Ushbu bag'ishlovda Navoiy Husayn Boyqaroning taxtda o'tirib, tariqat rusumi bilan oshno bo'lgani, o'zini pir (Jomiy) ixtiyoriga topshirgani, qadamjolar, xonaqolarni ziyorat etgani, xirotdagi darvesh-oriflar, shayxlar ahvolidan xabar olib turishi, qalban darvishligi haqida so'z yuritadi" [Komilov, 1996].

Muhammad Fuzuliy dostonining 10-bobida Zamona sultonining madhini keltiradi. Bob 52 baytdan iborat. Bobning avvalida shoir o'zining an'anasiga sodiq qolgan holda, Soqiyga murojaat qiladi:

*Tə'siri salib dimağə təşvir,  
Təşviri məcazım etdi təğyir.  
...Olsaydı mənim sözümdə bir hal,  
Əlbəttə olurdum əhli-iqbal.  
...Müstəhfizi-din, pənahi-islam,  
Məxdumi-zəman, məlazi-əyyam.  
Əbr istehsanü bərq kinə,  
Şahənşahi-Məkkeü Mədinə.  
...Ərbabi-hünər ümidgahi  
Türkü ərəbü əcəm pənahi.  
Tuğraymisai-Ali-Osman,  
Sultani-sipəhşikən Süleyman!*

Mazmuni: Sen quygan maydan mening mijozim o'zgardi. Qani endi bir chiroyli so'z ayta olsam. Shunda zamona sultonining nazariga tushgan va iqbol ahlidan bo'lardim. U podshoh dinning himoyachisi, islomning panohi, U Makka va Madinaning shahanshohi, u odil sulton, turk, arab, ajamning panohi, u sulton Sulaymondir!

Bobning davomida Sulton Sulaymon sha'niga qasida keladi. Qasida 42 baytdan iborat bo'lib, shoir unda zamona sultonining tengsiz himmat sohibi ekanligini, dinning chin panohi, orif, fozil, ulamolarning rahnomosi ekanligi aytadi.

Alisher Navoiy dostonning 8-bobida shahzoda Badiuz-zamonning ta'rifini keltiradi. Bobda shahzodaning adolati, saxovati, kuch-qudrati madh etiladi. Uni saltanat osmonida quyosh deb ta'riflaydi. Taxt ustida tojini yarqiratib o'tirganida minglab qullar uning bir imosini kutib qo'l qovushtirib turishadi:

*Egri qoyubon boshi uza toj,  
Yuz tojvar itlarig'a muhtoj.  
Qo'llarni qovushtirib yiroqdin,  
Farmonig'a muntazir qiroqdin [Navoiy 2006, 33].*

Fuzuliy dostonning 11-bobini "Kitobning yozilish sabablari"-deb nomlaydi. Bob 94 baytdan iborat. Bob Fuzuliyning an'anasiga ko'ra yana soqiyga murojaat bilan boshlanadi:

*Bir g'un ki, meyi-Süheyltə'sir  
Vermişdi mizaci-paka təğyir.  
...Ol bəzm idi afiyət bəhari,  
Mən bülbüli-zarü biqəran.  
...Yə'ni ki, qamu həqaiq əhli,  
Hər məs'ələdə həqaiq əhli.  
...Kim eylər idi həqaiqi-raz,*

*Şeyxidənü Əhmədidən ağaz.  
Kim söylər idi ögüb kelami,  
Övsafi-Cəliliyü Nizami.  
...“Lütf eyle!-dedilar, -ey süxənsənc!  
Fəş eyla cəhanə bir nihan gənc!  
Leyli-Məcnun əcəmdə çoxdur,  
Ətrəkdə ol fəsanə yoxdur” [Fuzuliy, 2005, 39,40].*

Mazmuni: “U kunda may mening yonimda edi, ichgan sari zavqim kelib, shavqim toshardi. U bazm ofiyat bahori edi va men unda bulbuli zor edim. U yerda ilm ahllari, haqiqat ahllari yig’ilgan edi. Kimdir Shayxdan, kimdir Axmatdan gapirar edi. Yana kimdir Nizomiyning baytini so’ylardi. Ular menga so’zlarga ganj qadab, yashirin xazinani jahonga fosh qilishimni aytishdi. Layli va Majnun haqidagi afsona ajamda yo’q, deyishdi.

*Bildim, bu qəziyyə imtəhandır,  
Zira ki, bu bir bəlayi-candır.  
...Bir bəzmi-müsibəti-bələdir  
Kim, əvvəli qəm, sonu fənadır.  
...İdrakı verər xəyalə azar,  
Əfgan adər məlalı əfgar.  
...Bir iş ki, qılır şikayət ustad,  
Şagirdə olur rücuı bidad [Fuzuliy 2005,40,41].*

Mazmuni: Sen unga tartib berib, bu bo’ston xazinasini yangilagin deyishdi va men bildimki, bu men uchun imtihondir. Bu bazm musibatlar bazmidir, uning mazmuni fig’on, nola va ohdir. Uning yukini xayollasam, idrokingada og’irlik qilur, malollanur. Agar uning yozilishi rohat bo’lsa edi, kamolotga rag’bat bo’lardi:

*Əsbabi-soxən nişatü nazəst,  
Zin hər do soxən bəhanəsazəst.  
Meydani-soxən fərax bayəd,  
Ta təb’ səvarayi nomayəd.  
Dər gərmiyi-rigü səxtiyi-kuh  
Ta çənd soxən rəvəd beənbuh? [Fuzuliy 2005,40].*

Zero, bu haqda Nizomiy shunday deydi: “So’zning asosi shodlik, iyhomdir. Yana so’zga ehtiyoj seziladi. So’z maydonida ilhom sayr etsin. Qumliklarga, dashtliklarga ilhom ketsa tuproqqa qanchalik ta’sir qiladi”. Nizomiy tomonidan aytilgan ushbu baytni Fuzuliy bobning tarkibiga forsiyda kiritgan va azarbayjon tiliga Samad Vurg’unun tomonidan tarjima qilingan.

*Düşdü səfərim diyari-dərdə,  
Kimdir mənə yar bu səfərdə?  
Hər kimdə ki, vardır istitaət,  
Dərdü qəmü möhnətü qənaət,  
Oldur bu müsafirətdə yanın,  
Zövq əhlinə yoxdur e'tibarım* [Fuzuliy 2005, 41].

Mazmuni: “Bu ishning mashaqqatidan ustoz shunday shikoyat qilganda men shogirdi nima ham deya olardim. Lekin bu ishning turgan bitgani sitam va g’amdır. O’z uzrimni aytib bu ishni tavakkal bilan boshladim. Mening tanlagan bu yo’limda kim hamrohlik qiladi, yo Rab? Mening zavq ahli bilan ishim yo’qdir. Men hamma qanoatim va dardimni shu ishga bag’ishladim”, deb shoir bobni yakunlaydi.

Alisher Navoiy dostonning 9-bobini tun ta’rifiga bag’ishlaydi. N.Komilovning “Tasavvuf” kitobida yozilishicha, “Majnunda “kimyolanish” Laylini ko’rgandan keyin boshlanadi, ammo ishq o’ti unga ancha ilgari u dunyoga kelgandayoq tekkan edi. Alisher Navoiy buni asar boshida Ishq vodiysining dahshatlarini xayolan tasvirlash orqali ko’rsatadi.

*Andoqki qilib karashma mayli,  
Zulfichra jamolin ochsa Layli* [Navoiy 2006, 36].

Navoiy Ishq vodiysida “nori ayman” shoxlari shu’lalanib turgan daraxtni ko’radi. Qissa boshlanib, Layli va Majnunning birinchi uchrashuvi tasvirlanganda shoir haligi tashbehni takrorlab, Majnunni xuddi shu shu’lali daraxt qiyofasida chizadi, ya’ni Layli yuzining shu’lasidan Majnun qalbi, balki butun vujudining niholi alanganib ketadi:

*Menkim otim o’ldi hodii ishq,  
Maskan manga ushbu vodii ishq* [Navoiy 2006, 39].

Shu tariqa, o’t, barq, nur, partav, chaqin, otash, lam’a kabi so’zlar bu asarning asosiy belgilovchi tashbehotiga aylangandir. Layli husni ham o’t, Majnun ishq ham o’t, ikki o’t bir-biriga tortiladi va bir-biriga tekkanda jonni kuydiruvchi alanga kelib chiqadi” [Komilov 2009, 197].

Muhammad Fuzuliy “Layli va Majnun” dostonining 12-bobi 56 baytdan iborat bo’lib, zamona hukmdorining madhiga bag’ishlanadi. Bobda sulton Salmanning madhi keladi:

*Mə’mur edibən binayi-ali,  
Cənnət sifəti, İrəm misali.  
Ta ruzi-əbəd bunu məqam et,*

*Bidağdağə işrəti-müdam et!* [Fuzuliy, 2005].

Mazmuni: Baytda sulton nihoyatda adolatli va ilmli zot ekanligi, shu bilan birga u qurdirgan binolar jannatning bog'larini eslatguvchi ekanligi aytiladi. Sulton shijoati bilan jahonga mashhur bo'lganligi va quyosh misoli barchaga mehr-shafqat nurlarini ulashishi maqtaladi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliyning "Layli va Majnun" dostonlari turkiy xalqlar ma'naviy hayotining ko'zgusi bo'lib, unda o'tmishdagi ajdodlarimizning ijtimoiy turmushi, xalq hayoti, urf-odatları, ikki buyuk mutafakkirning olam va odam, ishq haqidagi qarashlari o'z ifodasini topganligi bilan ham bugungi kun uchun ahamiyatlidir:

1. Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni 38 bob, 3623 baytdan iborat bo'lsa, Muhammad Fuzuliyning "Layli va Majnun" dostoni 113 bob, 3098 baytni o'z ichiga oladi;

2. Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni masnaviy janrida yozilgan. Fuzuliyning "Layli va Majnun" dostoni esa masnaviy janrida yozilishi bilan birga, dostonida: 3 ta qasida: 60 bayt (Munojot, na't, Sulton Sulaymon madhiyasi), 26 ta g'azal: 162 bayt (Laylining tilidan 8 ta, Majnunning tilidan 12 ta va Fuzuliyning o'zini tilidan 2 ta, munojot g'azal 2 ta), 2 ta murabba': 26 bayt (Laylining tilidan 1 ta, Majnunning tilidan 1 ta);

3. Muhammad Fuzuliy Alisher Navoiyning nafaqat "Layli va Majnun" dostonidan, balki "Xamsa" dan ham ta'sirlangan o'rinlariga guvoh bo'ldik. Masalan, Fuzuliy doston tarkibida 2 ta hamd va 3 ta munojot keltiradi. Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoni tarkibida ham 4 ta munojot va 5 ta na't keladi.

### **Adabiyotlar**

Alisher Navoiy. 2006. *Layli va Majnun*. Toshkent: G'afur G'ulom.

Муҳаммад Фузулий. 1958. *Лайли ва Мажнун*. Азарбайжан Ушаг вә Қәнчләр Әдәбийяты.

Муҳаммад Фузулий. 1968. *Лайли ва Мажнун*. Тошкент: Ғафур Ғулум.  
Məhəmməd Füzuli. 2005. II Cild-BAKI: "ŞƏRQ-QƏ RB".

Комилов, Н. 2009. *Тасаввуф*. Тошкент: Movarounnahr – O'zbekiston.

Комилов, Н. 1996. *Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи*. Toshkent: Yozuvchi.

Назруллаева, С. 1983. *Тема «Лейли и Меджнун» в истории литературы народов Советского Востока*. Тошкент: Фан.

Sirojiddinov, Sh., Yusupova D., Davlatov O. 2020. *Navoiyshunoslik*. Darslik. Toshkent: Akademnashr.

Yusupova D. 2016. *O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti* (Alisher Navoiy davri). Toshkent: TAMADDUN.

Ibrahim Akyol. 2019. *Nevai ile Fuzulinin Leyla ve Mecnun Mesnevilerinin*

*Yapi ve Konu Bakmindan Karsilastirilmesi-Dil ve Edabiyat Arastirmalari (DEA), 267-293.*

- Burhan Basharslan "Fuzulinin Leyla vu Macnun Mesnevisi-Dibace" marmara ilahiyat.com (muif blog); 14 Agustos 2019.
- Jabborov, N. (2022). Alisher navoiy an'alarining Abdulla Oripov she'riyatidagi poetik sintezi poetic synthesis of alisher navoi's traditions in the poetry of abdulla oripov. in *Library*, 22(1), 112-125. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/19399>
- Jabborov, N. (2021). Mirzo Ulug'bek davri adabiyoti Alisher Navoiy talqinlarida. in *Library*, 21(2), 76-92. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/17777>
- Makhmudovna, M. S., Saripul, A. R., & Eisar, J. (2023). ANALYSIS OF TEXT DIFFERENCES IN MUTRIB'S WORKS. *American Journal Of Philological Sciences*, 3(04), 41-47.
- Madirimova, S. (2019). Mutrib Xonaxarob asarlari qo 'lyozmalarining ilmiy tavsifi. *Oltin bitiglar-Golden Scripts*, 3(3).
- Rahmonova, D. (2021). Ривожи миллат истар эрсанг. in *Library*, 21(1), 3-15. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/8139>

## Comparative analysis of the prologues of Alisher Navoyi and Muhammad Fuzuliy's «Layli and Majnun» epic

Yulduz Abdulhakimova<sup>1</sup>

### Abstract

The two great epics in Turkish literature, Alisher Navoi and Muhammad Fuzuli's «Layli and Majnun» are compared. As a result, of our comparisons, opinions and conclusions about the weight, genre, composition, individuality of the protagonist and events of both epics are expressed. The similarities and differences between the two artists' approaches to the topic will be analyzed. The article discusses the emergence of the legend of Layli and Majnun in the form of epics in Turkish and Persian literature, which was passed from language to language among the Arab peoples. The idea that the Majnun is a historical figure or

---

<sup>1</sup>*Abdulkhakimova, Y.* – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

**E-mail:** [abdulkhakimovayulduz4@gmail.com](mailto:abdulkhakimovayulduz4@gmail.com)

**ORCID ID:** 0000-0002-1492-4568

**For citation:** Abdulhakimova, Y. «Comparative analysis of the prologues of Alisher Navoyi and Muhammad Fuzuliy's «Layli and Majnun» epic». *Uzbekistan: Language and Culture. Literature* 1 (2): 61-83.



a fabricated character is supported by the views of scholars.

**Key words:** *Hamsa, epic, love, composition, masnavi, story, Layli and Majnun, hamd, na't.*

### References

- Alisher Navoiy. 2006. *Layli va Majnun*. Toshkent: G'afur G'ulom.
- Muhammad Fuzuliy. 1958. *Layli va Majnun*. Азарбайчан Ушаг вә Қәнчләр Әдәбийяты.
- Muhammad Fuzuliy. 1968. *Layli va Majnun*. Toshkent: G'afur G'ulom.
- Məhəmməd Füzuli. 2005. II Cİld-BAKİ: "ŞƏRQ-QƏ RB".
- Komilov, N. 2009. *Tasavvuf*. Toshkent: Movarounnahr-O'zbekiston.
- Komilov N. 1996. *Tasavvuf yoki komil inson axloqi*. Toshkent-Yozuvchi.
- Nazrullaeva, S. 1983. *Tema «Leyli i Medjnun» v istorii literatury narodov Sovetskogo Vostoka*. Toshkent: Fan.
- Sirojiddinov, Sh., Yusupova D., Davlatov O. 2020. *Navoiyshunoslik*. Darslik. Toshkent: Akademnashr.
- Yusupova D. 2016. *O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri)*. Toshkent: TAMADDUN.
- Ibrahim Akyol. 2019. *Nevai ile Fuzulinin Leyla ve Mecnun Mesnevilerinin Yapi ve Konu Bakmindan Karsilastirilmesi-Dil ve Edabiyat Arastirmalari (DEA)*.
- Burhan Basharslan "Fuzulinin Leyla vu Macnun Mesnevisi-Dibace" marmara ilahiyat.com (muif blog); 14 Agustos 2019.
- Jabborov, N. (2022). Alisher navoiy an'alarining abdulla oripov she'riyatidagi poetik sintezi poetic synthesis of alisher navoi's traditions in the poetry of abdulla oripov . in *Library*, 22(1), 112–125. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/19399>
- Jabborov, N. (2021). Mirzo Ulug'bek davri adabiyoti Alisher Navoiy talqinlarida. in *Library*, 21(2), 76–92. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/17777>
- Makhmudovna, M. S., Saripul, A. R., & Eisar, J. (2023). ANALYSIS OF TEXT DIFFERENCES IN MUTRIB'S WORKS. *American Journal Of Philological Sciences*, 3(04), 41-47.
- Madirimova, S. (2019). Mutrib Xonaxarob asarlari qo 'lyozmalarining ilmiy tavsifi. *Oltin bitiglar–Golden Scripts*, 3(3).
- Rahmonova, D. (2021). Ривож ми ллат истар эрсанг. in *Library*, 21(1), 3–15. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/8139>



## Elbekning yangi hikoyalari tahlili

Gulzoda Soatova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Maqolada milliy adabiyotimiz rivojiga munosib hissa qoʻshgan Elbekning hikoyanavislik mahorati haqida mulohaza yuritilgan. Ijodkor ning “Maorif va oʻqitgʻuvchi”, “Yer yuzi” kabi jurnallarda nashr etilgan, joriy nashrlarda uchramaydigan “Qishloqqa sayohat”, “Kelgusining quyoshi”, “Kuzatishda”, “Yangi turmush izlovchi”, “Moshqochi Erboʻta”, “Jadidchi Qoravoy” kabi hikoyalari tahlil etilgan. “Qishloqqa sayohat” hikoyasida xarobaga aylangan qishloq va buning sabablari, “Kelgusining quyoshi” hikoyasida tunda kitob oʻqiyotgan bola, “Kuzatishda” hikoyasida yangi jaddilar maktabida oʻqib, otasining eʼtiroziga uchragan farzand, “Yangi turmush izlovchi” hikoyasida yangi, yengil hayotni sevuvchi Qahhorxoʻjaning hayoti, “Moshqochi Erboʻta” hikoyasida boylar qoʻlida ishi yurishmagan Erboʻta ning turmushi, “Jadidchi Qoravoy” hikoyasida esa bir savdogar boyning oʻgʻli Qoravoy haqidagi fikrlar tahlilga tortilib, ilmiy xulosalar chiqarilgan.

**Kalit soʻzlar:** *Elbek, ilm, milliy ozodlik, jaddid, taʼlim-tarbiya, kelajak, hikoya, hikoyanavis.*

### Kirish

Elbek oʻzbek adabiyoti rivojiga oʻzining sheʼrlari, hikoyalari, dostonlari va tarjimalari bilan munosib hissa qoʻshgan ijodkorlardandir. Ijodkor sheʼriy va nasriy asarlarida oʻzbek xalqining yaqin tarixidan olingan, shu jumladan, shoirning oʻtmishi bilan bogʻliq voqealar tasviri gavdalanadi. U tarixiy oʻtmishga murojaat etganida ham, zamonaviy mavzularda qalam tebratganida ham ibratli voqealarni tasvirlashga, zamondoshlarining, ayniqsa, yosh avlodning dunyoqarashi va axloq odobini shakllantirishda katta ahamiyatga ega boʻlgan masalalarni koʻtarishga intilgan. Bolalarga bagʻishlangan asarlari bilan oʻzbek bolalar adabiyotining rivojiga sezilarli hissa qoʻshib, XX asr oʻzbek adabiyotida birinchi boʻlib sheʼriy roman janrini boshlab bergan. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun “Yozuv

---

<sup>1</sup>Soatova Gulzoda Nurmamat qizi – filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-mail:** soatovagulzoda@navoiy-uni.uz ; soatovagulzoda001@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0002-2064-8088

**Iqtibos uchun:** Soatova G.N. 2023. “Elbekning yangi hikoyalari tahlili”. *Oʻzbekiston: til va madaniyat. Adabiyotshunoslik* 1 (2): 84-95.

yo'llari" (birinchi bo'lak, 1921), "O'rnak", "Boshlang'ich maktabda ona tili" (1923), "Go'zal yozg'ichlar" (1925) kabi o'quv qo'llanmalari va majmualarni yaratgan.

Elbek juda murakkab qatag'on davrida Cho'lponga ergashib ijod qildi. XX asrning 80-yillaridan ijodkor hayoti va ijodini o'rganish boshlandi. N.Qobulobning "Elbek" adabiy portreti [Qobulov 1988], A.Aliyevning "Elbek va davr adabiy jarayoni" [Aliyev 1989, oktabr, 3-4] maqolasi, H.Uzoqovning "Momaguldurak", [Uzoqov 1993], 1999-yillarda nashr ettirgan "Tanlangan asarlar"i [Elbek 1999], U.Amonovning "Armug'on yolqinlar" [Amonov 2017] she'riy to'plami, O.Abdullaevning "Mungli qushim" [Abdullayev 1999] she'riy to'plami shular jumlasidandir.

### **Asosiy qism**

Elbekning nasriy asarlariga e'tibor qaratsak, Haydarali Uzoqov tomonidan 1993, 1999-yillarda tayyorlangan "Tanlangan asarlari" da 8 ta "Fohisha", "Ona", "Anorgul", "Dadamat", "Chirchiq", "Men kim bo'laman", "Qahhorxo'ja", "Qo'shchi Turg'un" nomli hikoyalari berilgan. Boshqa elbekshunos olimlar nashrlarida Elbek hikoyalari bosilmagan, ular haqida mulohaza yuritilmaydi. H.Uzoqov Elbekning "Dadamat", "Qo'shchi Turg'un" hikoyalar to'plamini "eskirgan, bo'sh asarlar" [Elbek 1999, 19] deydi. "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalida Elbekning joriy nashrlarda uchramaydigan "Qishloqqa sayohat" [Elbek 1925, 1, 136-143] "Kuzatishda" [Elbek 1925, 2, 60-62], "Kelgusining quyoshi" [Elbek 1925, 9-10, 74-76], "Yangi turmush izlovchi" [Elbek 1926, 7-8, 25-27], "Mashshoqchi Erbo'ta" [Elbek 1926, 9, 40-41] nomli hikoyalari, "Yer yuzi" jurnalida esa "Jadidchi Qoravoy" [Elbek 1926, 4, 15-16] hikoyasi chop etilgan. Ushbu hikoyalar bilan tanishganimizda H.Uzoqovning yuqoridagi fikrlari to'lig'icha o'zini oqlamasligiga guvoh bo'ldik. Chunki yoshlarni ilm-ma'rifatga yo'naltirish, istiqbolli yorug' kelajakka intilish g'oyalari hech qachon eskirmaydi.

"Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalining ilk sonida Elbekning "Qishloqqa sayohat" hikoyasi chop etilgan. Muallif ko'pdan beri bormagan, bolaligi o'tgan qishlog'iga bahor faslida borishga to'g'ri kelib qoladi. Bu, albatta, unga o'zgacha kayfiyat, ruh bag'ishlaydi. O'sha bolaligidagi ko'm-ko'k o'rmonlar, tiniq suvlar, fayzli ko'chalar ko'z oldidan o'tadi. Juda sevinib, ot aravada yo'lga tushadi. Ilk bor uni keksa tog'lar kutib oladi va shunday deydi. *"Biz seni ko'p kutdik. Va nihoyat kelding. Biz keksayib, belimiz bukilib qoldi. Bolam, endi bizda kuch qolmadi, biz saqlay olmaymiz, endi bizga ishonma, mana yurtingni*

*endi o'zing saqla!"*

So'ng yo'lidan daryo chiqib, unga mahzun so'zlaydi. So'zlari tushunarsiz, yoki o'n to'qqizinchi yil o'choqlaridagi falokatdan so'zlaydi yoki mening charchab, bolaligim o'tgan qishlog'imning hozirgi xarob, eski, och holatini ko'rib xafa bo'lganim uchun mening kayfiyatimni ko'taradi. Shunda birdan ko'za ko'targan qizlar kelib, ushbu qo'shiqni birgalikda kuylaydi.

*Daryolarni bo'ylaymiz,  
Erkinlikda o'ynaymiz.  
Qurib ketsun qari chollar,  
Biz ularga tegmaymiz.  
Soylar to'lib suv oqar,  
Tursun sochpopuk taqar.  
Boyaqish cholg'a tushibdur,  
Ko'z yoshig'a kim boqar.*

Hikoya qahramoni qishloqqa kelganida bolaligidagi qishlog'idan asar ham qolmaganini, xayolidagi orzulari sarob yekanini anglaydi. Och-nahor, ozib ketgan, umidsiz odamlarni, xaroba, buzilgan eski uy va ko'chalarni ko'rib o'kinadi va o'tkinchilardan buning sababini so'raydi. Ular buning sababi tinimsiz bo'lib turadigan urushlarda ekanligini aytadi. Ammo muallif bunday ayanchli turmushning sababi odamlarning yalqovligi, bilimsizligi, yashash yo'llarini o'rganmaganligi degan xulosaga keladi.

Elbek o'z davrining hur fikrli ijodkori sifatida u yerda ya shovchi kimsalarga rahmi keladi, ularning bu ahvolga tushishiga o'zlari sababchi ekanligini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, ilmi, mehnatsevar, tadbirkor insonlar har qanday vaziyatda ham farovon turmush kechirish yo'llarini topa oladi. Muallif bunday xulosaga kelishdan oldin bolaligi o'tgan qishloqning abgor holatini, odamlarning achiqararli ahvolini "19-yil o'choqlaridag'i falokatdandir" deb ham o'ylaydi. Bu bejiz emas, albatta. Tarixdan ma'lumki, birinchi jahon urushi hamda oktabr inqilobidan so'ng boshlangan fuqarolar urushi mamlakatda katta inqirozni vujudga keltirdi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotning butunlay izdan chiqishi natijasida sho'rolar mamlakatining aksariyat hududlarida ocharchilik boshlandi. Shu mamlakatning bir o'lka-si sifatida Turkiston ham bu falokatdan chetda qolmadi. Bu haqida Q.Rajabov shunday deydi: "O'tgan asrning yigirmanchi yillarida yuz bergan ocharchilik va qahatchiliklar million-million kishilarning hayotiga zomin bo'ldi va shuning barobarida rus xalqi tarixida ham mudhish sahifalar bo'lib qoldi" [Rajabov 2021, 44, 5]. Shuningdek, hikoyada suv olib ketish uchun daryo bo'yiga kelgan qizlarning

qo'shiqlari ham keltiriladi. Aslida, bu qo'shiq zamirida qizlarning taqdiri yoritilgan. Kambag'allik, bechoralik sabab boy chollarga tegib mahzun bo'lgan qizlar daryo bo'yida xonish qiladi. Bu voqealar tariximizning qora kunlari sifatida xotiralarda saqlanadi.

Elbekning "Qishloqqa sayohat" hikoyasi murakkab davr dagi tariximizning bir darakhchisi va bu musibatlarga chora izlagan xalqparvar bir ijodkorning qalb nidosidir.

Elbekning "**Kuzatishda**" nomli hikoyasida oddiy, sodda, taqdir sinovlarini ko'raverib ko'zi qotgan Toshboboning boshidan kechirganlari hikoya qilinadi. U dunyoda biron kishini, ayniqsa, yaqin insonini uzoq safarga jo'natishdek og'ir ish bo'lmasligini aytib, o'zining temir yo'l bo'lmagan paytlardagi safari haqida so'zlaydi. Safarga chiqish oldidan oila a'zolarining holatini quyidagicha tasvirlaydi: *"Birov o'ldirib qo'ysa, o'liklari dala-toshda qolib, biz bularni, bular bizlarni ko'rolmay qolarmi ekanlar, deyishib bizning jo'nashimiz oldidan barchalari qayta-qayta quchoqlashib ko'rishar edilar, onala rimiz bo'lsa bo'ynimizg'a yopishib, sira qo'yg'isi kelmay yig'lab-yig'lab nochor qolishar edilar"*. Taqdir taqozosi bilan 45 yoshga to'lganida bir o'g'il ko'rib, yoshiga yetganida uni o'qish uchun maktabga bergani, ammo 6-7 yilda ham hech narsa o'rgana olmagan uchun uni bir o'rtog'ining gapi bilan yangi maktabga ko'chiradi. U maktab shunday maktab ekanki, hatto ota-onasidan ham uzoqlashib, bezib, hech kimni tanimaydigan bo'lib qolishi, faqat o'qishni xohlashi, o'g'li hozir uylanib, ikki bolalik bo'lsada, o'rtoqlari bilan "L" shahriga borib o'qib kelishini, Toshbobo esa har doim o'g'lini kuzatish uchun stansiya-ga chiqqanida o'z ota-onasi yodiga tushishi kabi masalalar hikoya qilinadi.

Ushbu hikoya Elbekning Haydarali Uzoqov tomonidan 1999-yilda nashrga tayyorlangan "Tanlangan asarlari"da va boshqa to'plamlarda uchramaydi. Elbekning bu hikoyasi orqali yoshlarning o'qishi, chet davlatlarda ta'lim olishi, dunyo kezib, bilimni yuksal tirish, har tomonlama mukammal, ma'naviyatli yosh kadrlar millat kelajagi uchun zarur ekanligi ta'kidlanadi. Toshboboning o'g'li yangi maktabga o'qishga kirib, tezda savodli bo'lishi, o'qishini davom ettirish uchun murakkab davr sinovlaridan qo'rqmaganligi, oilali bo'lsada, o'qishini davom ettirishi yuqoridagi fikrimizning isbotidir. Yana muallif negadir o'g'li ta'lim olayotgan shahar nomini sirli ravishda "L" shahar deb beradi, ochiq ko'rsatmaydi.

Elbek o'z davrining yosh avlodga bilim tarqatuvchi fidoyisidir. Ashurali Zohiriy ta'biri bilan aytganda: "Shoir Elbek – xalq mulki – og'iz adabiyotini xalqdan olish va xalqqa qaytadan yetkazishda el

tilining tushunarli ta'sirlaridan ko'p foydalangan, el bolalar adabiyo tida masalchilikni yaratgan katta san'atkor" [Elbek 1999, 10] edi. 20-30-yillarning yetuk munaqqidi, professor Abdurahmon Sa'diy ta'biricha: "Masalchilikni Elbek boshladi, tarjima yo'li bilan emas, balki masalchilikni tug'dirish yo'lini tutdi. Hali bu yo'lda undan boshqa kishi ko'rinmagan" [Elbek 1999, 9].

Elbekning **"Kelgusining quyoshi"** hikoyasi tunda sham yog'dusida kitob o'qiyotgan bola obrazi orqali millat istiqboli ana shunday ilmg'a chanqoq farzandlarga bog'liq ekani tasvirlangan. Hikoyada quyosh botib qorong'ulik butun kechani o'rab oladi. Tunda ko'chada ketayotgan yo'lovchi yarim tun bo'lishiga qaramay, bir uyeshi gidan yorug'lik tushib turganini ko'radi. Yo'lovchi eshik tirqishidan uyga ko'z tashlaydi. Siniq oynali, eshiklari ochiq uyda uch kishilik joy solingan, joylarning biri bo'sh, ikkisida odam bor. Yotganlardan biri uxlolmay bir tarafga ko'z tikadi. Bo'sh joy egasi yosh bola bo'lib, u chiroq yorug'ida kitob o'qib o'tirar, uxlay olmayotgan uning onasi edi. Hikoyada bu parcha quyidagicha tasvirlanadi: *"... Qorong'ida bo'lg'on narsalarni ko'raturg'on ko'zlarim nechun yorug'da yaxshi ko'ra olmaydirlar?" deb qo'ydimda takror qaradim. Bu gal chiroq yaqinida qimirlamoqda bo'lg'on bir narsaga ko'zim tushdi. Yana diqqat bilanoq qaradim, ko'rdim: yoshg'ina bir bola kichik o'rindiqqa o'ltirib kitob o'qimoqda edi. Darhol dedim: "Yorug'liq yorug'liqg'a qo'shilg'ach qanday ko'rinsun? Bu vaqt men, bir tomong'a termulib yotg'on kimsaningda, kelgusining quyoshi bo'lishig'a tayyorlanmoqda bo'lg'on bolaning onasi ekanligin angladim"*.

Mazkur hikoyada ham yuqoridagi hikoya kabi ilmli bolalar kelajagimizning quyoshi ekanligi ta'kidlanadi. Kechasi sham yorug'ida kitob o'qiyotgan bola, farzandining yoniga kelib joyida uxlashini kutib yotgan ona obrazida yosh avlodni ilm olishi uchun ko'maklashish zarurligi, shunda yurt kelajagi porloq bo'lishi tasvirlanadi. Kitob o'qib, ilm olayotgan bola nurga, yorug'likka qiyoslanadi. Bu yerda tasvirlangan tun, jaholat qorong'uligida qolib ketayotgan jamiyat, sham yorug'ida kitob o'qiyotgan bola esa bu qorong'ulikni daf qiluvchi yorug'lik ramzidir.

Hikoyada ko'tarilgan mavzu bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Yoshlarning ilm olishi erkka erishishning birinchi yo'li sifatida ko'rsatiladi. Ushbu g'oya Elbekning "Erk nima?" [Elbek 1999, 71] she'rida ham quyidagicha tavsiflanadi.

*Erk ma'nisi erkin bo'lmoq,  
Ilm-u hunar bilan to'lmoq.  
Yo'qsil elga bilim bermak,*

*Mashaqqatga ko'krak kermak!*

**“Yangi turmush izlovchi”** hikoyasida bugungi kunda ham dolzarb bo'lgan mavzu qalamga olinadi. Unda xotinboz Qahhorxo'janing yengil tabiatliligi, turmushga to'g'ri baho bermasligi, o'tkinchi hoy-u havasga berilib, ayol zotiga past nazar bilan qarashi va uning ayanhli turmushi haqida hikoya qilinadi. Bir kuni u do'sti bilan birgalikda ziyofatda o'tirib, ichkilikdan mast bo'ladi va do'stiga shunday deydi: *“Endi, do'stim, yangi turmushg'a ko'chsam deyman; ota-onam bir narsa demaydurku, lekin xotanim qarshi bo'ladir, o'zi nodon bo'lg'ani ustiga, ish bilmas, yaramas bir xotun. Uni qo'yub, o'zimga yarasha bir xotun olsam deyman... Senga ayta qolsam, men bir qizni sevaman, u qiz ham, men kabi, yangi turmushni sevgan bir qiz. O'zi yaxshi, xat-savodli. Men unga bir necha topqir xat yozdim, lekin qat'iy javob ololmadim. Har holda u, xatimni o'qig'on bo'lsa kerak. Shuning uchun tezdin, xotunimni quvishim lozim”*. Qahhorxo'ja xotinini haydab, ma'shuqasiga uylanadi. To'yida o'rtoqlari: *“Bizga ham shunday yangi hayot nasib etsin”,* - deb duo qilishadi. Qahhorxo'ja esa mag'rur lanib, endi ota-onaning rayiga qarab uylanadigan vaqt o'tdi, endi o'z sevganiga uylanadigan zamon keldi. Shunda yangi turmush yanada totli bo'ladi, - deydi.

Qahhorxo'ja yangi rafiqasi bilan baxtli yashay boshladi. Ammo ularga ota-onasi xalaqit berardi. U shunday o'yladi: *“Endi qan day bo'lsa-da, shul muhitdan uzoqqa qochish kerak. Bu churuk miyali ota-ona ularning turmushini og'ulaydir, bu turg'on gap. Eski hayotdan butunlay qutulish uchun muhitni tuzatish kerak. Buning uchun Ovro'pa hayotiga ko'chish zarur!”*. U shu fikrlar bilan rafiqasini oldi va Ov-ro'paga ko'chib ketdi. Boshida u yerda juda baxtli yashadi, lekin ko'p o'tmay Ov-ro'palik bir qizni sevib qoldi-da, bu rafiqasidan ham voz kechadi. Ayol qo'lidagi bola bilan yurtiga qaytar ekan, Qahhorxo'janing: *“Seni hech qachon tashlab ketmayman”,* - degan so'zlari qu-loqlari ostida jaranglar edi. O'ksib-o'ksib yig'lar ekan, dunyo uning holig'a kulib boqqanday bo'ldi.

Elbek tarbiyaviy mavzularda ham saviyasi yuksak hikoyalar yaratgan. **“Yangi turmush izlovchi”** hikoyasi shular jumlasidan. Yengil hayotga uchib, hoy-u havasga berilgan Qahhorxo'janing qismati barcha davrda uchraydigan illat. Buning yechimi tarbiya mas-alasiga borib taqaladi. Oilada mustahkam tarbiya topgan, dunyoqarashi keng farzand hech qachon bunday hayot yo'lini tanlamaydi.

Qahhorxo'ja chiroyli ayollar bilan yashashni xohlaydi, ammo o'sha ayolning ko'ngli bilan qiziqmaydi. Nima istashi, kelajak uchun nimalar qilish zarurligi, yoshlikdagi hayoti keksalik uchun zamin



hozirlash degani ekanligini tushunmaydi. Faqat bugungi kun bilan nafsining quli bo'lib yashaydi. Eng qizig'i, uning bu ishi noto'g'ri ekanligini tevarak-atrofidagilarining hech biri aytmaydi. Hattoki, o'rtoqlari orasida unga havas qilganlari ham bo'ladi. Ish shu darajaga yetib boradiki, endi Qahhorxo'jaga ota-onasi ham og'irlik qilib qoladi. Demak, uning qalbida ayoli u yoqda tursin, o'zining ota-onasiga ham mehr yo'q. Natijada, uning qo'lida qancha ayollar azob chekadi. Achinarlisi, bu hodisaga odamlar befarq qaraydi. Davr jaholatga yuz tutadi.

Hikoya Qahhorxo'janing Yevropaga borib, sevib uylangan ayolini ham haydab yuborishi, ayolning iztiroblar ichida qolishi bilan yakunlanadi.

Hikoya mavzusi ancha keng va dolzarb. Muallif ilmsizlik va ma'rifatsizlik, jaholat zamiriga qurilgan hayotni yetarlicha ochib beradi.

Elbek har bir hikoyasida jamiyatdagi tomir otgan illatlardan birini fosh qiladi. Elbek hikoyalari haqida Salimxon Tillaxonov shunday deydi: "Elbek O'zbekistonning Cho'lpondan keyingi milliy shoiridir. Lekin Elbek Cho'lponga o'xshagan sodda emas, juda pishiqdir. Shuning uchun ko'p vaqtlarda yozg'on she'rlarining ko'pini zamong'a to'g'rilag'on bo'lib yozadir" [Tillaxonov 2002, 1, 147-148].

Elbekning "**Moshoqchi Erbo'ta**" hikoyasini S.Tillaxonov ta'kidlaganidek, zamonga to'g'rilab yozilgan hikoyalardan biri desak bo'ladi. Hikoyada otasi Qurbon ota tif kasalligidan o'lib, keksa onasi bilan qolgan Erbo'taning og'ir hayoti, moshoq terib, qattiq non yeb, xor-u zorlikda kechirgan kunlari hikoya qilinadi. Qishda kun kechirishi yanada og'irlashgan Erbo'ta Do'smat boyning uyiga borib ish so'raydi. Boy esa uni oddiy bir xizmatkor sifatida qabul qiladi. U boyning uyida besh yil xizmat qilib, hayotini yo'lga solish o'rniga, aksincha, boy undan uyini olib qo'yadi. Bu hikoyada shunday kel tirilgan. *"Bir kuni Erbo'ta og'ildagi mollarni qarab yurar edi, birdan xo'jayini kelib uni so'ka boshladi. Erbo'ta oldin buning sababini bil-madi. So'ngra uning "Ahmoq, to'yib qolding-da a?! Mening so'zlarim qulog'ingga yoqmayturg'on bo'lib qolibdir-da? Ahmad kalning o'g'li – Zikr kalga nima deding? Meni unga xo'p yomonlabsan-a? Men senga shuncha yaxshiliq qilsam ham oxirgi ishing shul bo'ldimi? Hali sen menga do'q qilib qutulib ketmakchimi eding, seni besh yil boqdim, buning haqqini to'lab ket, hovlingni sotdirib bo'lsa ham, haqqimni un-dirib olaman!.."*

*Buning bilan ham qolmay, boyaqishning boshig'a ikki daf'a kaltak ham kelib tushdi. Boyaqish Erbo'ta xizmat haqqin olish emas,*

*hovlisidan ham ajralib qolaturg'on bo'ldi.*" Bunga chiday olmagan Erbo'ta shaharga ish izlab ketadi. Shahar firqa idorasi uni ishchi dehqonlar manfaatiga mas'ul ishchi etib tayinladi. Shundan so'ng uning turmushi yaxshi tomonga o'zgardi.

Ushbu hikoyaning o'ziga xos tomoni shundaki, unda o'zbek dehqonlarining, xizmatchilarining og'ir ahvoli, ezilishlari qalamga olinadi.

Elbekning "Yer yuzi" jurnalida nashr etilgan **"Jadidchi Qoravoy"** hikoyasida Qoravoy ismli yigit taqdiri hikoya qilinadi. U bir boy savdogarning o'g'li bo'lib, savdogarchilik bilan shug'ullanishi, inqilob davriga kelib esa bu hunarini tashlab jadidchilik libosini kiyganligi ta'kidlanadi. Voqealar rivojida Qoravoy qo'lga kitob olib o'zini aqlli ko'rsatishi, teatrga borishi, u yerda go'zal ayollarni qarmog'iga ilintirishi, o'zining xotini esa g'am-alamdan sil kasaliga chalib vafot etishi, Qoravoyning hatto xotining marakasida ham yo'qligi hikoya qilinadi. Ushbu lavha hikoyada quyidagicha keltiriladi: *"Uylanganiga bir necha yillab vaqt o'tsa-da, baxtsiz xotiniga qaramay doim ko'chada kezardi. Xotin boyaqish eri qayg'usida ko'p yillarni o'tkazdi. Eng so'ng og'ir kasalga yo'liqdi. Qayg'u alam orqasidan bosh ko'targ'uvchi varam (sil) uning yoqasidan tutdi. Buning oh-u qayg'ulari Qoravoyning o'ynoqi ko'zlariga ko'rinmadi. Ul haligi xotinning ishqig'a tutilg'on, go'yoki oshiq bo'lg'on edi"*.

Ushbu hikoyada jadidchi Qoravoyning hayoti bilan birgalikda o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot ham namoyon bo'ladi. Boy savdogar o'g'li Qoravoyning bolsheviklar davri boshlanishi bilan jadidga aylanib olishi, jadidchilarning qo'lida kitob bilan tasvirlanishi, teatrga borib namoyish etilgan asarlardan bahramand bo'lishi, ayollarning ochiqlikka chiqishi bunga misol. Albatta, har bir davrning ziyoli ijodkori o'z asarida ijtimoiy muhit, oddiy xalq turmushini aks ettiradi. Qoravoyning xurmacha ishlari hikoyada asosiy masala qilib olingan. Ammo hikoya qahramoni Qoravoy hikoyaning sarlavhasida "Jadidchi Qoravoy" deb berilsa-da, haqiqiy jadidchi emas. Qoravoy ham shu davrning Behbudiy qalamiga mansub "Padarkush" asaridagi Toshmurod kabi savodsiz yoshlardan biri. Bu haqida hikoyada shunday deyiladi: "Yoshliqdan savdogar kasbi bilan o'sgan Qoravoy har narsani pul bilan o'lchab o'rganganlikdan ilmining kerakmi, yo'qmi ekanligi to'g'risida boshini qotirmas edi. Biroq ko'z og'rig'iday to'satdan bo'lib qolg'on inqilob uning kayfini biroz qochirdi".

Bu masalalar davr nashrlarida keng muhokama qilingan. Bu borada "Sharq haqiqati", "Inqilob", "Yangi yo'l", "Er yuzi", "Alanga",



“Bilim o‘chog‘i”, “Maorif va o‘qitg‘uvchi” kabi gazeta va jurnallar jamoatchilik nazarini tortgan va ularda davrning til siyosati, adabiyotning ilmiy muammolari, adabiy taftish va adabiy tanqid bilan birgalikda ta‘lim-tarbiya masalasi ham erkin muhokama ob‘ekti bo‘lgan. Fitrat so‘zlari bilan aytganda “... millatimiz, xalqimiz, bu darajada tuban qoluvlariga, shu martabada yomon kunlarga tushuvlariga nodonlig‘lari sabab bo‘ldi, bizning uchun o‘quv, ilm-ma‘rifatga yopishuv lozim, vatanimiz, mamlakatimiz va millatimiz ilm nuri birla yoq tursun, din ham dunyo ilmlari birla jihozlansun” [Fitrat 1991, 13,4].

Elbek hikoyani badiiy jihatdan mukammal tarzda sayqallashtirmagan bo‘lsa ham bir podsholik ikkinchi bir davrga o‘z o‘rnini bo‘shatib berayotgan murakkab bir sharoitda oddiy qora xalqning ahvoli, ilmsizlik, ta‘lim-tarbiya kabi masalalarga befarq bo‘lmagani, ushbu muammolarni ommaga ochiq-oydin ko‘rsatishga harakat qilganining guvohi bo‘lamiz.

### Xulosa

Xullas, Elbek 20-asr o‘zbek adabiyotida birinchi bo‘lib she‘riy roman janrini boshlab berish bilan birgalikda hikoyanavis sifatida ham adabiyotimiz tarixida iz qoldirdi. Elbek hikoyalari orqali ilmiy, shijoatli yoshlar millat kelajagi ekanligi, ayollar erki, bilim olishi, ozod va farovon vatan qurish uchun o‘zlikni anglash, tilimizni, adabiyotimizni yuksaltirish lozimligi haqidagi muhim fikrlarni xalqqa yetkazdi.

Elbek nafaqat muallimlik-tarbiyachilikda, 20-30-yillar bolalar adabiyoti ravnaqi uchun haqiqat va istiqloq yo‘lida kurashishda, ona tilimizni e‘zozlash va unga sadoqat bilan qarashda, sochma va tizma asarlarning mohir tarjimoni sifatida yetakchi, balki haqli ravishda u nosirlik faoliyatida qudratli, ilm-ma‘rifatli yoshlar taqdiri, milliy istiqloq harakatini aks ettira olgan iste‘dodli ijodkordir.

### Adabiyotlar

- Қобулов Нурмуҳаммад. 1988. *Элбек*. Тошкент: Ғафур Ғулум.
- Алиев Аҳмад. 1989. *Элбек ва давр адабий жараёни*. Ўзбек адабиёти ва санъати. Октябръ.
- Алиев Аҳмад. 1989. Элбек ижоди билан қайтди. *Тошкент ҳақиқати*, 24 июнь.
- Машриқ Юнусов (Элбек). 1993. *Момагулдурак*. (Нашрга тайёрловчи Узоқов Ҳайдарали). Тошкент: Чўлпон.
- Машриқ Юнусов (Элбек). 1993.1999. *Танланган асарлар*. (Нашрга тайёрловчи Узоқов Ҳайдарали). Тошкент : Шарқ.
- Mashriq Yunusov (Elbek). 2017. *Armug‘on yolqinlar*. (Nashrga tayyorlovchi Amonov Ulug‘murod). Toshkent: Turon zamin ziyo.

- Машриқ Юнусов (Элбек). 1999. *Мунгли қушим*. (Нашрга тайёрловчи Абдуллаев Ортиқбой). Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти.
- Машриқ Юнусов (Элбек). 1999. *Танланган асарлар*. (Нашрга тайёрловчи Узоқов Ҳайдарали). Тошкент: Шарқ.
- Mashriq Yunusov. (Elbek). 1925. Qishloqqa sayohat. Maorif va o'qitg'uvchi. № 1. – B.136-143.
- Mashriq Yunusov (Elbek). 1925. Kuzatishda. Maorif va o'qitg'uvchi. № 2. – B.60-62.
- Mashriq Yunusov (Elbek).1925. Kelgusining quyoshi. Maorif va o'qitg'uvchi. № 9-10. – B.74-76.
- Mashriq Yunusov (Elbek).1926. Yangi turmush izlovchi. Maorif va o'qitg'uvchi.№ 7-8. – B. 25-27.
- Mashriq Yunusov (Elbek). 1926. Moshoqchi Erbo'ta. Maorif va o'qitg'uvchi. № 9. – B. 40-41.
- Mashriq Yunusov (Elbek). 1926. Jadidchi Qoravoy. Yer yuzi. № 4. – B. 15-16.
- Қаҳрамон Ражабов. 2021. Туркистонда очарчилик оқибатлари. Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 29 октябрь. 44(4651-сон).
- Тиллахонов Салимхон. 2002. Хотиралар. Шарқ юлдузи. 1. – B.147-148.
- Фитрат Абдурауф. 1991. Жоҳилона мутаасибга мисол. Халқ сўзи. № 13 декабрь. – B.4. (Мақола “Очиқ сўз” газетасининг 15-январ сонидан олинган).
- Jabborov, N. (2022). Cho'lpon – chin yurak va his shoiri . in Library, 22(3), 297–304. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/17732>
- Pardaev, K. (2021). Interpretation of historical events in the work of Mukimi. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 278-283.
- Normurotovich, A. S. (2023). A DESCRIPTION OF THE SOURCES OF THE LITERARY HERITAGE OF AKHMAD TABIBY. Open Access Repository, 4(2), 305-311.
- Soatova, G. N. Q. (2022). «MAORIF VA O 'QITG 'UVCHI» JURNALIDAGI TARIJIMA ASARLARDA ASLIYAT MANBANING SAQLANISH DARAJASI (1925-1929 YILLARDAGI SONLARI ASOSIDA). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(7), 665-675.
- Rahmonova, D. (2021). Ривож ми́ллат истар э́рсанг. in Library, 21(1), 3–15. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/8139>
- Makhmudovna, M. S., Saripul, A. R., & Eisar, J. (2023). ANALYSIS OF TEXT DIFFERENCES IN MUTRIB'S WORKS. *American Journal Of Philological Sciences*, 3(04), 41-47.
- Madirimova, S. (2019). Mutrib Xonaxarob asarlari qo 'lyozmalarining ilmiy tavsifi. *Oltin bitiglar–Golden Scripts*, 3(3).

## Analysis of Elbeck's new stories

Gulzoda Soatova<sup>1</sup>

### Abstract

The article discusses the story-writing skills of Elbek, who made a significant contribution to the development of our national literature. The author's stories published in magazines such as "Maorif va o'qitg'uvchi", "Yer yuzi", "Qishloqqa sayohat", "Kelgusinin quyoshi", "Kuzatishda", "Yangi turmush izlovchi", "Moshqochi Erbota", "Jadidchi Qoravoy" are not found in current publications analyzed. In the story "Qishloqqa sayohat" the village turned into ruins and the reasons for it, in the story "Kelgusining quyoshi" a boy reading a book at night, in the story "Kuzatishda" a child studying at a new modern school and being objected by his father, in the story "Yangi turmush izlovchi" the life of Kakhorkhoja, who loves a new, easy life, In the story "Moshqochi Erbo'ta", the life of Erbota, whose business was not in the hands of the rich, and in the story "Jadidchi Qoravoy", the thoughts about Karavoy, the son of a rich merchant, were analyzed and scientific conclusions were drawn.

**Keywords:** *Elbek, science, national liberation, past, education, future, story, story writer.*

### References

- Qobulov Nurmuhammad. 1988. Elbek. Toshkent: G'ofur G'ulom.
- Aliyev Ahmad. 1989. Elbek va davr adabiy jarayoni. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. oktabr.
- Aliyev Ahmad. 1989. Elbek ijodi bilan qaytdi. Toshkent haqiqati, 24-iyun.
- Mashriq Yunusov (Elbek). 1993. Momaguldurak.(Nashrga tayyorlovchi Uzoqov Haydarali). Toshkent : Cho'lpon.
- Mashriq Yunusov (Elbek). 1993. 1999. Tanlangan asarlar (Nashrga tayyorlovchi Uzoqov Haydarali). Toshkent: Sharq.
- Mashriq Yunusov (Elbek). 2017. Armug'on yolqinlar. (Nashrga tayyorlovchi Amonov Ulug'murod). Toshkent: Turon zamin ziyo.
- Mashriq Yunusov (Elbek). 1999. Mungli qushim. (Nashrga tayyorlovchi Abdullaev Ortiqboy). Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi.
- Mashriq Yunusov (Elbek). 1999. Tanlangan asarlar. (Nashrga tayyorlovchi

---

<sup>1</sup>*Soatova Gulzoda Nurmamat qizi* – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

**E-mail:** soatovagulzoda@navoiy-uni.uz ; soatovagulzoda001@gmail.com

**ORCID ID:** <https://orcid.org/0000-0002-2064-8088>

**For citation:** Soatova, G. 2023. "Analysis of Elbeck's new stories". *Uzbekistan: Language and Culture. Literature* 1 (2): 84-95.

- Uzoqov Haydarali). Toshkent: Sharq.
- Mashriq Yunusov (Elbek). 1925. Qishloqqa sayohat. Maorif va o'qitg'uvchi. №1. – B.136-143.
- Mashriq Yunusov (Elbek). 1925. Kuzatishda. Maorif va o'qitg'uvchi. № 2. – B. 60-62.
- Mashriq Yunusov (Elbek). 1925. Kelgusining quyoshi. Maorif va o'qitg'uvchi. № 9-10. – B.74-76.
- Mashriq Yunusov (Elbek). 1926. Yangi turmush izlovchi. Maorif va o'qitg'uvchi. № 7-8. – B. 25-27.
- Mashriq Yunusov (Elbek). 1926. Mashshoqchi Erbo'ta. Maorif va o'qitg'uvchi. №9. – B. 40-41.
- Mashriq Yunusov (Elbek). 1926. Jadidchi Qoravoy. Yer yuzi. №4. – B. 15-16.
- Qahramon Rajabov. 2021. Turkistonda ocharchilik oqibatlarini. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 29-oktabr. 44(4651-son).
- Tillaxonov Salimxon. 2002. Xotiralar. Sharq yulduzi. 1. 147-148-betlar.
- Fitrat Abdurauf. 1991. Johilona mutaasibga misol. Xalq so'zi. № 13-dekabr. – B.4. (Maqola "Ochiq so'z" gazetasining 15-yanvar sonidan olingan).
- Jabborov, N. (2022). Cho'lpon – chin yurak va his shoiri . in *Library*, 22(3), 297-304. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/17732>
- Pardaev, K. (2021). Interpretation of historical events in the work of Mukimi. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 278-283.
- Normurotovich, A. S. (2023). A DESCRIPTION OF THE SOURCES OF THE LITERARY HERITAGE OF AKHMAD TABIBY. *Open Access Repository*, 4(2), 305-311.
- Soatova, G. N. Q. (2022). «MAORIF VA O 'QITG 'UVCHI» JURNALIDAGI TARJIMA ASARLARDA ASLIYAT MANBANING SAQLANISH DARAJASI (1925-1929 YILLARDAGI SONLARI ASOSIDA). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(7), 665-675.
- Rahmonova, D. (2021). Ривож ми ллат истар эрсанг. in *Library*, 21(1), 3-15. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/8139>
- Makhmudovna, M. S., Saripul, A. R., & Eisar, J. (2023). ANALYSIS OF TEXT DIFFERENCES IN MUTRIB'S WORKS. *American Journal of Philological Sciences*, 3(04), 41-47.
- Madirimova, S. (2019). Mutrib Xonaxarob asarlari qo'lyozmalarining ilmiy tavsifi. *Oltin bitiglar–Golden Scripts*, 3(3).

**ZAMONAVIY ADABIYOT MUAMMOLARI****Ijodkor uslubi va badiiy mahorat**Umida Rasulova<sup>1</sup>**Abstrakt**

Maqolada badiiy ijod olami, iste'dod va mahorat, san'atkor uslubi borasidagi mulohazalar ilgari suriladi. Badiiy asar yozib bo'lingach, kitobxon hukmiga havola etiladi. Matnni o'qish, uqish jarayonida kitobxon qabul qiluvchi, o'zlashtiruvchiga aylanadi. Badiiy matnni mutolaa qilish, ma'nolar mahzanini idrok aylash kitob muhibidan ma'lum tayyorgarlikni taqozo etadi. U aqlu zakovati, hissiyot olami bilan asar dunyosi asrorini kashf etib boradi. Kitobxon voqealar silsilasini kuzatadi, adabiy qahramon qiyofasi, portretini tasavvur qiladi, ruhiyat iqlimini his etib boradi.

Adabiy jarayonda ijodkor shaxsiyati va iste'dod tabiati, so'z san'atining mohiyati bashariy qadriyat maqomida o'rganiladi. Ijodkor shaxsiga, badiiy adabiyotga estetik tuyg'u nuqtai nazaridan yondashish kuzatiladi. Badiiy, estetik tafakkur masalalarini go'zallik, ezgulik singari qadriyatlar, shakl va mazmun birligi, adabiy janrlar xilma-xilligi hamda uslubiy yo'nalish, badiiy til, ifoda vositalari nuqtai nazaridan o'zlashtirish, xulosalar chiqarish adabiy jarayonning tabiiy ehtiyojiga aylandi.

**Kalit so'zlar:** *ijod, san'at, badiiyat, uslub, poetika, nazm, nasr, mahorat.*

**Kirish**

Kitobxon qalbi va shuuri ila badiiy asar olamida yashaydi, kishilar baxtu saodati yoxud foje holatini tuyishga chog'lanadi. Yozuvchi bilan muloqotga kirishgan kitobxon uning dardini nozik his qiladi, bu holat asarni o'qish, o'zlashtirish asnosida sodir bo'lar ekan, tinglovchining badiiyat namunalari uqish saviyasini oshiradi.

San'atkorning teran fikr, inja tuyg'u, oliy maslagi kitobxon tomonidan qayta his qilinmas ekan, anglash, idrok etish maromiga yetmagan sanaladi. Matn tirik, jonli, so'zlar serjilva bo'lmasa, ular kitobxonni rom etmaydilar, yangi ma'no qatlamlarini ifodalamaydilar.

---

<sup>1</sup>Rasulova Umida Yo'ldosh qizi – Filologiya fanlari doktori, Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-mail:** rasulovaumida12@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-9762-4407

**Iqtibos uchun:** Rasulova U. 2023. "Ijodkor uslubi va badiiy mahorat". *O'zbekiston: til va madaniyat. Adabiyotshunoslik* 1 (2): 96-109.

Inson go'zallik, nafosat shaydosi ekan, uni targ'ib etgan badiiyat namunasi ruhni o'ziga oladi. Kitobxon asarni o'qib zavqlanadi, voqea, hodisa rivojini qunt bilan kuzatadi, qahramon bilan taqdir so'qmoqlarida sinovdan o'tadi. Badiiy yetuk asargina asrlar osha yashab, kitobxon auditoriyasini kengaytirib boradi.

### **Asosiy qism**

Kishi qalbini barcha murakkabligi bilan poetik ifodalash ijodkordan unga chuqur mushohadakorlik bilan yondashishni talab etadi. Natijada, falsafiy o'ylar bilan to'yintirilgan asarlar paydo bo'lmoqda. Janr tabiatida, lirik qahramon ruhiyatini namoyon qilishda intellektuallik, falsafiylik, fikriy tolerantlik singari belgilar teranlashib bormoqda.

Kitob muhibi ko'ngliga manzur bo'lgan badiiy asar, uning muallifidan o'zga ijodkor ham ta'sirlanib, unga ixlosini bildirishi mumkin. Muhammad Yusufning shahid millatdoshlari qismati borasidagi nidosi bunday sadolanadi:

*Qodiriyning qabri qizg'aldoqlarga  
To'lgay kunlar hali kelmog'i bordir*

\*\*\*\*\*

*She'ring qo'y, yur Qo'qon ketaylik, Usmon  
Sen do'stim deganlar hammasi dushman.*

\*\*\*\*

*Otabek Kumushin ko'zlarin yopib,  
O'zi ham ortidan qilgach safarlar  
Qodiriy boboning qo'llarin o'pib  
Chohga itargan ham laganbardorlar [Yusuf 2004, 45].*

Shoira Zulfiya Mo'minovaning yoniq satrlari zimnida ham fidoyi shaxslarga samimiy ehtirom sezilib turadi:

*Qodiri-yu Usmon o'tgan ko'chalarin  
Sochim bilan supurishni sharaf bildim.*

Kitobxon notanish muallif asariga asta, xavotir bilan yondashadi, kutilgan natija chiqmasa kitob javonda sarg'ayib turaveradi. Aksi bo'lganda, o'sha muallifning boshqa kitoblarini topib, o'qishga oshiqadi. Hozirgi kunda badiiylikdan yiroq sayoz asarlarning nashr etilishi oqibat muallifiga ziyon keltiradi. So'zning asl ma'nosini his etadigan, tafakkuri boy kitobxon bunday asarga vaqt sarflamaydi. Bunday asarlar sarob misoli yo'qolib ketadi.

Qadriyatlarini e'zozlab, mangu barhayot asarlarni tushunib, his

qilib talqin qilish, yaratilayotgan ko'plab asarlarning sarasini bexato ajrata bilish fikrlovchi, sinchkov insonlarning murakkab yumushidir. Mustaqillik yillarida kishilarimizdagi mushohadakorlik, talqin qila bilish uquvi o'sdi. Istiqlolning ilk kunlaridanoq xalqni ma'naviy yuksaltirish, ruhan boyitish masalasi asos qilib qo'yilgan edi. Milliy istiqlol g'oyasi tushunchalari asosida keng jamoatchilik, ziyolilarimiz, ilm-fan va madaniyat namoyandalari, avvalo, ma'naviy-ma'rifiy soha xodimlari milliy mafkurani takomillashtirish hamda uning asosiy tamoyillarini odamlar ongiga va qalbiga singdirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarishlari zarur

Adabiy jarayonda yaratilayotgan badiiyat namunalari doim munaqqidlar tomonidan kuzatilib, ularga munosabat bildiriladi. Adabiyotshunoslar asarlar poetikasidagi o'zgarishlar borasida ilmiy mulohazalarini tadqiqotlarida asoslab beradilar. Ozod Sharafiddinovning "Ijodni anglash baxti", Umarali Normatovning "Ijod sehri", Abdug'afur Rasulovning "Badiiylik-bezavol yangilik", No'mon Rahimjonovning "Istiqlol va bugungi adabiyot", Qozoqboy Yo'ldoshevning "So'z yolqini", Abdulla Ulug'ovning "Qalb qandili", Bahodir Karimovning "Ruhiyat alifbosi", Dilmurod Xoldorovning "Hozirgi o'zbek qissalarida badiiy uslub muammosi", Islom Yoqubovning "Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi", Olim To'laboyevning "Milliy shuur shu'lasini", Ruxsora To'laboyevaning "Xudoyberdi To'xtaboyev romanlarida badiiy psixologizm" kabi monografiyalarida badiiy estetik tafakkur mahsullarining adabiy hayotimizdagi o'rni xolis yoritib beriladi.

No'mon Rahimjonov ijodkor tafakkur olamidagi o'zgarishlar, milliy istiqlol g'oyalari talqini borasidagi qarashlarini tahlillar bilan asoslab boradi. Abdulla Ulug'ov san'atkor uslubi masalasini muayyan shoirlar asarlari misolida kuzatib boradi. Bahodir Karimov modern asar tabiati, shoir-u nosirlar uslubidagi xosliklarni baholab boradi. Dilmurod Xoldorov Nazar Eshonqul, Shoyim Bo'tayev nasri xususiyatini izchil o'rganadi. Islom Yoqubov istiqlol davrida faol ijod qilayotgan romannavislar uslubini kuzatadi. Olim To'laboyev Rauf Parfi ijodining yangi qirralarini faktik materiallar vositasida yoritib beradi.

Adabiyotshunos Abdug'afur Rasulov: "Uslub – o'zlik. Uslub qaysidir ma'noda taqdir. Uslub – ijodkorning botiniy, ruhiy surati", – deya baholaydi [Rasulov 2013, 17].

Har bir ijodkorning so'z qo'llash mahorati matn tahlilida reallashib boradi. Shavkat Rahmonning:



*Faqat ishq...  
faqat ishq...  
Boshqasi sarob,  
Boshqasi shamolning oniy suroni.*

Satrlaridagi falsafiy teranlik kitobxonni yaralishdagi mud-daoni anglashga undaydi. Oshiq banda uchun ilohiy ishq oliy maslak, boqiylik va foniylilik asrori. Takror soʻzlar taʼkid ohangini kuchaytirib, maʼnaviy koʻlamni qabartib koʻrsatadi. Uning ruhi ishqqa oshiqadi, sarob, oniy narsalarga qiyo boqmaydi, vasvasaga berilmaydi. Imon halovati ahli siddiqni Alloh huzurida azizu mukarram aylaydi.

Abdulla Oripovning “Birinchi muhabbatim” sheʼridagi misralar yuqoridagi bitikka hamohangligi bilan eʼtiborga molik:

*Dildagi ohim mening, birinchi muhabbatim  
Yolgʻiz Allohim mening, birinchi muhabbatim*

[Oripov 2001, 55].

Shoir bir hisga asir boʻlib umr sahifalarini asta varaqlaydi, har pallasida muhabbatga suyanib, tayanib sinovlarni yengib oʻtadi. Ishqi ilohiy imon sohibi ruhini sakinat saltanatiga parvoz ettiradi.

Halima Ahmedovaning kishining vijdoni oldidagi taftishini muxtasar ifodalaydi:

*Men oʻzimga oʻzim eng katta raqib  
Sen meni oʻzimdan asragin Xudo.*

Inson xato, adashishdan xoli emas. U bilib bilmay sagʻiru kabir gunoh sodir etishi mumkin. U botinan oʻz fazilatu illatini sezib turadi. Yaratganning bandasiga amallari uchun ajr yo jazo belgilashini anglagan kishi nafs, iblis nayrangidan ayro boʻlishni ixtiyor etadi.

Ikrom Otamurod kanguldagi inja tuygʻularni obrazli ifodalaydi:

*Vatan  
bobolardan qolgan eʼtiqod  
ruhim mundarijasin koʻhna suvrati.  
Ruhim ranglariga rang berib bot-bot  
Ruhim mundarijasin bezab turadi [Otamurod 2022, 57].*

Shoir musavvir yangligʻ Vatani tarovati, salobatini turfa ranglar uygʻunligida badiiy polotnoda chizishga azm etadi. Ruh soʻzi tayanch mohiyat, ishq makon topgan ozod manzil ekani taʼkid xossasini tiniqlashtiradi. Vatanni sevmoq imondandir eʼtiqodiga



siddiq salaflar suluki ruhiyatga malham bo'lib, kangulni shoyon etadi. Ikrom Otamurod lirikasida aynan ruh erkinligi ma'nolar mahzanini inkishof etishga turtki beradi.

*Yolg'izlik  
sen ruhim yo'qotgan savob,  
Ruhim topgan gunoh sen  
Yolg'izlik.*

Ikrom Otamurod yo'qotgan-topgan, gunoh-savob kontrastida tazod san'atidan o'rinli foydalanadi. Yolg'izlik, tanholik kishini botin sasini tinglash, tafakkur qilish imkonini beradi. Poklanish, tozarishga ilhaq ruh ibtidodagi gunohga tazarru etib, savob xayriga mushtiq bo'ladi. Yolg'izlikda Yaratganga iltijo aylab tavoze, xokisor holatda tavba manziliga yo'l oladi.

Usmon Azimning lirikasida fasllar jozibi, iqlimi kishi tuyg'ulariga parallel yoxud kontrast suratlanadi:

*Tong chog'i tun bilan kunduz uchrashdi,  
Tunda armon bilan yulduz uchrashdi.  
Bahor bilan kuzak baxtxush uchrashdi  
Toshlar uchrashdilar, biz uchrashmadik.*

Subhi sodiq tun pardasining kun haririga almashish onlariga shohid bo'ladi. Tun samo ziynati yulduzlarning hazin armon sadolarining guvohiga aylanadi. Bahoriy surur kuzgi tarovatga qadar baxt lazzatini tuyushga muyassar bo'ladi. Vaqt hukmi ila tog'u toshlar uchrashadi, ammo oshiq'larga visol daqiqalari nasib etmaydi. Shoir kishi ko'ngil rozlarini obrazli ifodalashga noil bo'ladi.

Shodmonqul Salom lirikasidagi ohorli misralar, jozib ifodalar zimnidagi falsafiy tugallik kishi sezimlariga ta'sir etadi:

*Men yana tonglarga chiqaman peshvoz,  
Kafanim egnimda, erkim ko'nglimda  
To bulbuli ta'bim fig'oni ortar,  
Bog'larni bulg'agan zog'lar qoshinda  
Meni Mahshar qadar bir qismat kutar,  
Kafanim egnimda, qo'lim boshimda*

Haqiqat maslagiga siddiqlik, erkka tashnalik inson shaxsini, maqomini belgilab boradi. Bu bag'ishlov adabiyot, san'atga fidokorlikni namoyon etibgina qolmay, shoir tiynatidagi tavakallik, jo'mardlikka ham ishora beradi. Boqiy dunyoga qiyo boqmagan, o'limga tik borgan ozod ko'ngil parvozga shay turib, zog'lar

fitnasidan hayiqmaydi. Undagi qat'iyat, o'zlik dunyoning turli nag'malariga zarba berishda tayanch sanaladi.

Zebo Mirzoning "Onam xotirasiga " she'ridagi ayriliq onlari bunday sadolanadi:

*Fig'oni falakka chiqadi tandir,  
Dasturxon boshida soviydi choynak.  
Siz ekkан bulturgi tok novdalari  
Bag'ri xun, ezilib tomadi chak chak...*

Shoira o'zbek ayoli, onasi turmush tarzini u yashagan muhit, qadr-don narsalar doirasida qamrab olishga intiladi. Tandır aziz non ne'mati pishadigan, ayol pazandaligini namoyon qiladigan vosita emas, u o'z egasidan ayrilganini his etib faryod chekayotgan hamroh. Oila barakasi ona mehri, beminnat mehnati, qalb qo'ridan yuzaga keladi. Choyning sovishi ham aynan ayriliq nolasini, yosh tok novdalari sag'ir sasini tinglashga da'vat etadi. Har bir inson uchun ota, onadan judolik juda og'ir holat, shoira bu anduhni kitobxonga ham yuqtirib, darddoshiga aylantiradi.

Bugungi o'zbek she'riyatidagi yana bir tamoyil adabiyotning so'z san'atligi, uning o'ziga xos xususiyatlarini ramziylik, bo'yoqdorlik, jarangdorlik sifatlari bilan ziynatlashda kuzatiladi. Shoirning mahorati yaratgan poetik obrazlarida, ifoda madaniyatida namoyon bo'ladi. Yosh shoirlar ko'nglida kechayotgan jarayonning sirliligini, fikr, mushohada uyg'otgan to'lqinni yangi obrazlar tiliga ko'chira olganligini kuzatasiz

Badiiy asarga material to'plash jarayoni, ijod laboratoriyasi xususidagi e'tiroflarni o'rganish foydadan xoli bo'lmaydi. Habibulla Qodiriyning "Otam haqida " kitobida ikki qariyaning suhbatı Abdulla Qodiriyning taxayyul olamida yetilgan romanini qog'ozga tushirishga turtki bergani xotirlanadi: "Mehmonning ana shu soddagina tarixi menga chuvalgan ipning uchini topib berganday, yozmoqchi bo'lgan "O'tkan kunlar" romanining shaklini chizib berganday bo'ldi". O'zbek oyimning harakatlari, nutqidagi xoslik yozuvchining onasi Josiyat bibidan o'zlashgani ma'lum bo'ladi.

Adibning : "Yozganing agar o'zingni yig'latmasa, kuldirmasa, o'zgani ham yig'latmas, kuldirmas" izhori ayni haqiqatdir. Kumushning vafotida yozuvchining yig'lagani asar voqealari ijodkor ixtiyoridan chiqishi, vaziyat xolis, erkin baholanishiga turtki bergani ayonlashadi. Yusufbek hoji tiynatidagi sokinlik, adllik, mulohazakorlik Qodiriy fitratidan to'yingani bilan diqqatni tortadi.

Ijodkor tarjimai holiga doir hayotiy hodisalar kitobxonni u yaratgan asarlardagi makon tasviri, qahramon siyratini tiniq tasavvur etishga sabab bo'ladi. Abdulla Qodiriy, Oybek, Said Ahmad, O'tkir Hoshimov, Tohir Malik, Xurshid Do'stmuhammad kabi ijodkorlar Toshkent shahri, mahalla, bozor-u dahalarni makon sifatida tanlaydilar, uning iqlimini his qildiradilar. Murod Muhammad Do'st asarlarida Galatepa makonidagi kishilar turmush tarzi, an'anasi qalamga olinadi. "Galatepa qissalari", "Galatepaga qaytish" nomlarida ham qadrdon hududning jozibasi, tarovati, nasimi his ettiriladi.

Shukur Xolmirzayev, Usmon Azim, Erkin A'zam asarlarida Surxonning so'lim go'shasi Boysun sabosi qahramonlar fe'lidagi tantilik, mardlik, tabiatga oshuftalikni sezdiradi. Nazar Eshonqul Qashqadaryoning Tersota hududi manzaralari, ijtimoiy turmushini yoritib beradi. Normurod Norqobilov ham Qashqadaryo vohasidagi tog'u qoyalar shukuhi, viqorini, jonzot-u nabotot ajoyibotini tiniq tasvirilaydi. Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Iqbol Mirzo, Ulug'bek Hamdam, Isajon Sulton ijodida Farg'ona, Andijon vohasining jozib iqlimi kitobxonga huzur baxsh etadi. Ijodkor uslubining shakllanishida mahalliy koloritning o'rni bo'lakcha. U an'ana udumlarni, kishilar so'zlash tarzini, zavqini, kayfiyatini, sheva shukuhini yetkazishga muassar bo'ladi. Asarda xronotopni aniq berish, uning tarixiy, madaniy qatlamini yoritish kitobxonning eliga, xalqiga bo'lgan hurmatini oshirib boradi.

Ijod jarayoni borasidagi Tog'ay Murod holati e'tiborni tortadi: "Yuzlarim jiqqa ho'l bo'ldi. Men "Kuygay"ni dimog'imda xirgoyi qildim. Nihoyat ko'ngil buyurdi. Ko'ngil soz chaldi. Ko'ngil qo'shiq aytdi. Nihoyat asar bitdi. Asarni "Oydinda yurgan odamlar" deb atadim" Oq qog'ozga mungli musiqa suratini chizgan musavvirning ilhom onlari o'ziga xos sinov ekanligining shohidi bo'lasiz.

O'tkir Hoshimovning ijod borasidagi mushohadasida talabchanlik, tirishqoqlik, mas'uliyatlilik hissi bo'y ko'rsatadi: "Yozuvchi hayotiy materialni o'z qalbining dardiga, o'z vijdonining da'vatiga aylantira olishi, mana shu voqea-hodisalarning hammasini yurak-yurakdan chuqur his etishi kerak. Avvalo o'zim katta haqiqat deb bilgan narsani, yagona haqiqat deb bilgan narsani, o'zim nihoyatda chuqur his etgan, qalbimning dardiga aylangan narsani yozishni xohlayman"

Badiiy asar inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi san'at hosilasi. So'z ohangi, ma'nolar asrori turfa holat, vaziyatni teran ifodalashga yo'naltiriladi. Qahramon surati-yu siyratini yoritish, undagi evrilishni yetkazish ijodkordan nozik did, yuksak salohiyatni talab etadi. Hozirgi

globallashuv jarayonida inson qismati murakkablashib bormoqda. Axborot – kommunikatsiya ta'siridagi kishilar dunyoqarashi kun sayin o'zgarib bormoqda. Badiiy ijodda ham majoziy obrazlar, fanlar integratsiyasi, san'atlararo uyg'unlik, mifologik lavhalar, makro va mikro olam borasidagi hosilalar ortmoqda. Odamzotning nabotot hamda hayvonot dunyosi bilan yaxlitligiga doir diniy, dunyoviy ta'limotlar asosida badiiyat namunalari yaratilmoqda. Munaqqid adabiy jarayondagi yangi tasvir, ohorli mulohazalarni sinchiklab tahlil etish orqali matn badiiyatini tadqiq etmoqda.

Moddiy va ma'naviy qadriyatni e'zozlash, unga munosib voris bo'lish sharaflidir. Badiiy estetik madaniyatning merosxo'rlari ijodiy izlanishi, erkin mulohaza yuritishi diqqatga molik. Ular izlanishida inson shaxsiga, jamiyatga, ijtimoiy voqelikka nisbatan yangicha nuqtayi nazar ko'zga tashlanadi. Mana shu qarashlar dunyoni yangicha ko'rish hamda tushuntirishga yo'naltirilgani bilan e'tiborga molikdir. Yoshlar faoliyatini o'rganish tengdoshlarga rag'bat, ilhom berishi, yangi asarlar yozilishiga sabab bo'lishi bilan ahamiyatlidir.

Badiiy so'zning estetik ta'sir kuchi shundaki, u ifoda go'zalligi bilan chekinib qolmaydi. Aksincha, u mohiyatan hayotdagi go'zallikning o'zi bo'lib qoladi. San'atkor ko'zlagan muayyan maqsadga erishishda badiiy so'z go'zallik timsoliga aylanishidir. So'zning badiiyligi bu san'at asarlarida aks ettirilgan ma'naviy qadriyatlarni baholovchi, falsafiy estetik ahamiyatini belgilovchi go'zallik mezonlaridir. Badiiy asar targ'ibot tashviqot vositasi emas, u san'at namunasi, go'zallik hodisasi sanaladi.

Xotira adabiyotning yetakchi shakli sifatida tarix va taqdir, shaxs va jamiyat, ijod tabiati hamda so'z san'ati borasidagi mushohadakorlikning yetakchi ko'rinishi bo'lib qolaveradi. Xotiralar xalqimizning ma'naviy hayoti sahifalari, ona yurt iqboli, millat istiqboli bilan bog'liq yorug'lik hisoblanadi. U tarixiy haqiqatga, milliy mafkura asoslarini mustahkamlashga daxldorligi bilan e'tiborga molik. O'z davrining ruhini tushuna bilish madaniyati, ma'naviy qadriyatni anglata olish san'ati ijodkorning bosh yo'lidir.

Ijodkorlar tomonidan xotira yozilishi ular yashagan adabiy muhit manzarasini yaqqol namoyon etadi. Said Ahmadning "Yo'qotganlarim va topganlarim " xotirasida Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Maqsud Shayxzodalar ijod onlarining shohidi bo'lasiz. Ularning asar yozish jarayoni, materialni saralashi, voqeani jonli tasvirlash yo'lidagi mashaqqati san'atkorning so'zga mas'uliyatini aks ettiradi. Tog'ay Murod haqidagi xotirada Tarlon, Gulsari otlar

ifodasidagi mushtaraklik, asar musiqiyligini ta'minlovchi omillar xususidagi mushohadalar ko'zga tashlanadi.

Oydin Hojiyevaning "To'rt tanho" asarida Zulfiya Isroilova, Saida Zunnunova, Kibriyo Qahhorovalarning oilaviy baxti, sinovli onlardagi bardoshi, adabiyotga ehtiromi hayotiy voqealar silsilasida ravshanlashadi. Ijodkorning zamondoshlari xotirasida e'zozlanishi kitobxonni noyob ma'lumotdan voqif etish bilan birga uslubiga xos jihatni kashf qilishiga zamin yaratadi. Xususan, Xudoyberdi To'xtaboyevning "Besh bolali yigitcha" asari yozilishiga adibning bolalik do'sti vafoti sabab bo'ladi. Bu asarda adib yetimlik davrini Farg'ona, Toshkent hududida yoritib borgani, hatto bog'dan so'ramay behi o'g'irlagani asarga qovunni ijozatsiz olish gunohligini anglatish tarzida kiritilganining guvohi bo'lasiz. Tohir Malikning ko'plab asarlari syujetida jinoyat olami fosh etilishi adibning koloniya, qamoqxonalarga tashrif buyurib, turli qismat egalarining fojiasini o'rganishi asnosida qog'ozga tushganini anglaymiz.

Abdug'afur Rasulovning "Ardoqli adib" risolasi O'tkir Hoshimovning suhbatlar, sayohatlar, kuzatishlar asosida material to'plagani, qahramonlari prototipini qanday topganiga yo'nalish beradi. Xususan, Umar zakunchi Qashqadaryodagi adib, munaqqidlar gurungida qatnashgan sobiq amaldorning "Davlat keldimi tutib qol, amal tegdimi surib qol, yo ostingdagi oting yiqilsin, yo uzangi uzilsin" fikri bilan o'zi ham asar qahramoniga aylangani ayon bo'ladi. O'tkir Hoshimovning tanish professor janozasidan so'ng munaqqid do'stiga: "Abdug'afur aka, romandagi Qurbonoy xola mana shu... Shukurxon aka edilar", e'tirofi ijod asroridan voqif etadi.

San'atkor uslubini baholash asarlari badiiyatini kuzatish, so'zlar ohangi, rangi, jarangini his etishni taqozo etadi. Ijodkor dramatik asar kompozitsiyasida voqea manzili, vaqti tasvirlarini tiniq, tabiiy tasvirlashga e'tibor beradi. Uning qahramon ruhiyatini yoritishda salmoqli, teran mulohazalarni to'g'ri tanlashi asar badiiy quvvatini mustahkamlab boradi.

"Bonu" romanida boboning nabirasiga nasihati: "Boylik tillo zarda emas, qanoatda qizim, ko'zi och odam hech qachon to'ymaydi, ko'zi to'q odamning ko'ngli to'q bo'ladi" zimnidagi falsafiy teranlik ahamiyatga molik.

"Bozor" romanida tabiat hodisalari xayol suvratiga chizgi tortadi: "Tiriklik kuyidagi odamlar ...oyoq ostiga boqmagan banda ko'kka ham ko'z tashlashga fursat topmaydi, vaholanki oyoq ostidagi xazon shitiriga bosh uzra yomg'ir shiviri qo'shilishidan xayol dunyoga keladi, qo'sh xayol qayig'i vazmin va osuda oqim uzra sokin

va adoqsiz anhor o‘zani bo‘ylab suza ketadi”.

“Donishmand Sizif” romanidagi bu lavhada ham boqiylik va foniylik hukmi tiniq ifodalangan: “Pag‘a – pag‘a bulutlar o‘tib bormoqdalar mi demak, hamma narsa, hamma narsaga qo‘shilib vaqt ham o‘tmoqda, dengiz o‘tmoqda, tog‘ o‘tmoqda, ularga qo‘shilib Sizif, uning izidan esa vaqt soati yetib manavi xarsangtosh ham o‘tadi jonli jonsiz nimarsa borki, o‘tish qismatidan bedaxl qolmadi, qololmaydi”

Ernest Xemingueyning ohorli fikri badiiy asar olamini tadqiq etishga to‘g‘ri yo‘nalish beradi: “Haqiqiy asar aysbergga o‘xshaydi. Aysbergning sakkizdan bir qismigina suv ustida ko‘rinib turadi. Lekin dengizchilar uning tagida yana yetti qism borligini bilishadi”. Ziyrak kitobxon asar tagma‘nosini uqish, o‘zlashtirish asnosida asl javharni kashf etadi.

Har yili O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbekiston Milliy universitetlarida ijodkor, munaqqid tavalludi, yubileyi munosabati bilan o‘tkaziladigan ilmiy amaliy anjuman, she‘riyat, nasr, drama, tanqid kengashlarida mumtoz, zamonaviy yo‘nalishdagi izlanishlar, tadqiqotlar samarasi yoritiladi. Adabiyotshunoslik, adabiy tanqid sohasidagi dolzarb muammolar yechimini hal etish maqsadida mutaxassislar birgalikda, hamkorlikda faoliyat olib boradilar.

Xurshid Do‘stmuhammad, Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdamov kabilar adabiy jarayonda an‘anaviy va noan‘anaviy usulda asarlar e‘lon qilib, yozuvchi sifatida ko‘plab yangi obraz, tasvirlarni yaratishga muvaffaq bo‘lganlar. Ularning “Ijod falsafasi”, “Mendan mengacha”, “Ijod-ko‘ngil munavvarligi”, “Yangilanish ehtiyoji” asarlarida dunyo adabiy jarayonidagi yangilanishlar borasida mulohazalar bildiriladi. Sohani harakatga keltirayotgan nazariy qarash, inson mohiyatini anglashdagi tushunchalar milliy, hududiy to‘siqni tan olmaydi. Adabiy jarayon va tanqid munosabati insonning mohiyati, qarashlari, ruhiyati qanday aks etayotganligini ijtimoiy muhitni hisobga olgan holda aks ettirmog‘i kerak. Ular adabiy estetik tafakkurning jahon madaniyatida tutgan o‘rni, ijtimoiy falsafiy qadriga oid mulohazalarini taqdim etib, adabiy aloqa hamda ta‘sir masalalari ijodkorning tafakkuridagi evrilishga, badiiy asar poetikasiga bog‘liqligini e‘tirof aylaydilar.

Bu ijodkorlar millatning shakllanishi, milliy ongning uyg‘onishi, murakkab ijtimoiy sharoitda ham o‘zlikni e‘zozlash, hozirgi globallashuv jarayonida e‘tiqodi, xalqiga sadoqatni asrash masalasiga ham alohida ahamiyat qaratadilar. So‘z san‘atkorining

shaxsiyati, asarlarining yaratilish tarixi, badiiyati, badiiy ijod psixologiyasi yangi yo'nalish sifatida rivojlanib borayotgani borasida tizimli mulohazalar keltiriladi. Adiblarning adabiy, estetik, ma'rifiy, axloqiy qarashlari davr, jamiyat hamda ijtimoiy voqelik bilan yaxlit jarayon sifatida tahlil etilayotgani ham ko'rsatib boriladi.

Adabiyotshunosning ijod sirlari, so'z salmog'i, badiiy idrok va ifoda san'ati, tasvir usuli hamda imkoniyatiga doir tadqiqotlari adabiy jarayon hamda adabiy tanqid sohasini yuksaltirishda muhim o'rin tutadi. Ijodkor hayot hodisalarini teran kuzatib, falsafiy, estetik qarashlarini asari zamiriga singdirib boradi. Uslub so'z qo'llash mahorati, o'quvchi tafakkuriga ta'sir etib, ma'naviyatini yuksaltirishga hissa qo'shishdir. Har bir asarda muallif uslubi kuzatiladi. Matnni sinchiklab o'qish asnosida qalamkash badiiy niyati oydinlashadi.

Falsafiy teranlik, mantiqan asoslanganlik hayotiy tajriba hosilasidir. Uslub-yangi so'z, yangi matal qo'llash demak, ijodkor badiiy salohiyati ko'zgusi demak. Adiblar obraz yaratishda har bir detalga ahamiyat berib, obrazning to'laqonli va haqqoniy tasvirlanishiga erishadilar. Hayotiy kuzatish, tajriba, voqelikni tasavvurda puxta pishitib olish, unga estetik qarashlarini singdirish adibga obraz chizgilarini izchil yoritishda madad bo'ladi. Ayni shu his qilish, dardni tuyish, real hayotni badiiy talqin qilish imkonini beradi. Yozuvchi kishilarda tashqi ko'rinishni emas, balki tiynatdagi poklikni, ma'naviy qiyofa go'zalligini ustun qo'yadi. Bu uning estetik qarashi, didi, yaratgan qahramonlarida ham ayni shu individual xususiyatlarga urg'u beriladi.

Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" qissasida Oymomoning alla aytishi ruhiyatdagi tebranishni ifodalaydi:

*"Allada Sherobod dashtlariday anqillab yotmish ko'ngil nolasi bo'ldi.*

*Ko'ngil dardi bo'ldi, armoni bo'ldi.*

*Ko'ngil fojiasi bo'ldi"* [Tog'ay Murod, 1994, 134].

Xoliyor Safarovning "Qo'g'irchoq" hikoyasida befarzand ayol suratiga bunday chizgi tortiladi:

*"Ayol sel bo'lib alla aytganda uning ham qalbi qandaydir taskin topgandek, vujudini, yuragining chok-choklarini illatdek ezib yuborgan dardni bir zum bo'lsa da unutgandek bo'lardi".*

Ikki adib ham bir holat, vaziyatni obrazli ifodalashga sazovor bo'lgan. Tog'ay Murod ko'ngilni tayanch markazga aylantirib, bu doirani nola, dard, armon so'zlari bilan quvvatlantiradi, fojea tasvirni avj pardaga ko'taradi. Xoliyor Safarov qalb mungini yurak, dard sasiga uyg'un ifodalaydi.



Dramatik asarlar kompozitsiyasida ham inson ruhiyati iqlimiga nigoh tashlanadi. Usmon Azimning “Adibning umri” dramasi­dagi bu parcha kishi tuyg‘ularini real aks ettiradi:

“O’sha sahna. Oybek hassaga suyanib, dunyoga boqib turibdi. U har bir bargga, daraxtlarga, maysalarga, gullarga ilk bor ko‘rayotganday mo‘ltillab qaraydi. So‘ng sekin yurib novdalardan to‘qilgan kresloga o‘tiradi. Uning yuragi she‘rga aylanyapti.

Oybekning ovozi:

*Xastamen.. Fikrga, tuyg‘uga to‘lib*

*Oy menga hamqadam sokin yuramen*

*Sog‘aysam bir kuni yozaman to‘yib*

*Hislarga qalbimni qo‘shib yozamen* [Azim 2003, 160].

Qalb dramatzimini his ettirishda Oybek siyratidagi bezovtalik xasta so‘zi orqali ayonlashadi. Bu so‘z dard, alam, armon tuyg‘ularini qamrab oladi.

Nurilla Chorining “Qizg‘aldoq” hikoyasida jonlantirish san‘ati kuzatiladi: “*Alamdan o‘kirganini eshitgan keksa tog‘larning oppoq sochlari to‘kilib ketdi*”. Inson qalbidagi iztirobning ko‘lami tog‘u toshni larzaga solishi yaxshi topilma sanaladi

Nurilla Chorining “Bo‘ron tingan kecha” hikoyasida o‘xshatish san‘ati qo‘llanadi:

“*Etagini yig‘magan kuzdan qahrlangan qish qilichini qibladan turib yalang‘ochlagan*”. Nosir manzarani yorqin aks ettirishda iboradan ham foydalanadi.

Sanjar Tursunning “Tog‘lar orasida” qissasida jonlantirish san‘ati tabiat nafosatini nozik his ettiradi:

“*Ahyon ahyon yog‘ib qoladigan yomg‘ir changib ketgan zaminni tozalab, sen xafa bo‘lma, men qo‘rqib ketgan yerning yuziga suv sepdim, endi bemalol baxtli bo‘lsang bo‘laveradi, degandek yog‘averardi. Tabiatda kundan-kun yangi nigoh, toza tuyg‘ular tug‘ilardi*” [Tursun 2018, 75].

## **Xulosa**

Bugun iste‘dodli yoshlar so‘zning salmog‘ini his etishi muhim hisoblanadi. Ular adabiyot, san‘at olamida betakror, o‘ziga xos dadil hamda teran fikrlash salohiyatiga ega shijoatli avlod shakllanayotganidan dalolat beradi. Yoshlarning she‘riyat, nasr namunalari milliy mustaqilligimizning badiiy solnomasini boyitib boradi. Bu iste‘dodlar ona yurt tuyg‘usini, insonga mehru muhabbatini asarlari vositasida anglatishiga umidingiz ortadi. So‘nggi yillarda inson shaxsiga bo‘lgan e‘tiborning kucha-

yishi qahramon ruhiy iqlimlarini, qalbining to'rt faslini tadqiq etish bevosita, uning sajiyasini ham keng qamrab olishni taqozo etdi. Keyingi paytda hayotimizdagi o'zgarishlar, mustaqillik sharofati bilan dunyoga chiqish, inson ma'naviy dunyosini ham ongini ham, fikrlashini ham, tubdan o'zgartirib yubordi, Bu mushohadakorlik teran fikrlash jarayoni faqat ayrim odamlar shaxsidagina ro'y berib qolmay, butun xalq uchun xarakterlidir.

### Adabiyotlar

Муҳаммад Юсуф. 2004. *Сайланма*. Тошкент, Шарқ.

Расулов, А. 2013. *Услуб – истеъдод портрети*. Тошкент, Янги аср авлоди.

Орипов, А. 2001. *Сайланма*. Тошкент, Шарқ.

Икром Отамурод. 2022. *Суқут садоси*. Тошкент, Шарқ.

Тоғай Мурод. 1994. *От кишнаган оқшом*. Қиссалар. Тошкент, Шарқ.

Усмон Азим. 2003. *Жоду*. Тошкент, Шарқ.

Турсун, С. 2018. *Оқ овулнинг Озодаси*. Асарлар. Тошкент, Ижод.

## STYLE AND ARTISTIC SKILLS OF THE WRITER

Umida Rasulova<sup>1</sup>

### Abstract

The article offers observations on the world of artistic creativity, artistry, and style. The reader's opinion is solicited after the creation of the artistic work. The reader transforms into both a receiver and a master when reading the material. When reading a literary work, the reader must be prepared in order to perceive the wealth of meanings. With his intellect and emotional world, he learns the secrets of the literary world. The reader follows the unfolding of events, creates a portrait and image of a literary hero, and experiences the soul's environment.

The core of the art of words is examined as a human value in the literary process, together with the creator's personality and level of talent. There is a way to approach fiction from the perspective of aesthetic feeling and the personality of the author. It has become a natural requirement of the literary process to master issues of creative and aesthetic thinking in terms of values, unity of form and substance, diversity of literary genres

---

<sup>1</sup>Rasulova, U. – Doctor of Philology, Alisher Navoi University of Uzbek Language and Literature.

E-mail: rasulovaumida12@gmail.com

ORCID ID: 0000-9762-4407

For citation: Rasulova U. 2023. "Style and artistic skills of the writer". *Uzbekistan: Language and Culture. Literature* 1 (2): 96-109.

and stylistic direction, artistic language, means of communication, and drawing conclusions.

**Key words:** *creativity, skill, artistry, poetics, poetry, and prose.*

### **References**

- Muhammad Yusuf. 2004. *Saylanma*. Toshkent, Sharq.  
Rasulov, A. 2013. *Uslub – iste’dod portreti*. Toshkent, Yangi asr avlodi.  
Oripov, A. 2001. *Saylanma*. Toshkent, Sharq.  
Ikrom Otamurod. 2022. *Sukut sadosi*. Toshkent, Sharq.  
Tog‘ay Murod. 1994. *Ot kishnagan oqshom*. Qissalar. Toshkent, Sharq.  
Usmon Azim. 2003. *Jodu*. Toshkent, Sharq.  
Tursun, S. 2018. *Oq ovulning Ozodasi*. Asarlar. Toshkent, Ijod.

## Xudoyberdi To'xtaboyev fenomeni

Ruxsora Tulabayeva<sup>1</sup>

### Abstrakt

O'zbek bolalar adabiyotining taniqli namoyandalardan biri Xudoyberdi To'xtaboyev o'z asarlarida bolalar xarakterini, bola ruhiy dunyosini g'oyatda mukammal yoritgan yozuvchilardan hisoblanadi. Xudoyberdi To'xtaboyev o'zbek bolalar adabiyoti, xususan, prozasida yangi davrni boshlab berdi. U yaratgan qahramonlar xatti-harakati, gap-so'zlari, xarakteri bilan yosh kitobxonlarga nihoyatda manzur bo'ldi. Yozuvchi o'z tabiatidagi bolaga xos quvnoqlik va beg'uborlikni asarlariga ko'chira oldi. Ayni shu yumor bolalar qalbiga yaqin edi, bu yaqinlik uning yosh muxlislari tobora ortib borishiga sabab bo'ldi.

Yozuvchi yaratgan qahramonlar betakror xususiyatlari bilan ko'plab kitobxonlar qalbida yashab kelmoqda. Jumladan, uning Hoshimjon, Mirobiddinxo'ja, Orifjon, Akrom qovunchi singari qahramonlari, ayniqsa, yosh kitobxonlarga allaqachon yod bo'lib ketgan. Sababi, ushbu qahramonlar xarakterining esda qolar darajada yorqinligi, quvnoqligi, bolaga xos beg'ubor va soddadilligi, kulgi, hazil-mutoyibaga moyilligi xarakter tabiatini yanada yorqinlashtirgan. Maqolada yoritilgan masala faqatgina Xudoyberdi To'xtaboyevning biografiyasi hamda yozgan asarlarini sanash emas, balki uning romanlariga xos xususiyatlarni tahlil qilish hamdir.

**Kalit so'zlar:** *Xudoyberdi To'xtaboyev, roman, obraz, qahramon, komizm, ijtimoiy muhit, ruhiyat tasviri, qahramon ruhiyati, xarakter, yumor, qahramon, ifoda.*

### Kirish

Bugungi o'zbek bolalar adabiyotini yozuvchi Xudoyberdi To'xtaboyevsiz tasavvur qilish qiyin. Uning ijodi zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotida shu qadar katta o'rin tutdiki, uning asarlarisiz bu maydon bo'shab qolur edi. Maktab o'quvchisi bo'lgan har bir bola Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sehrli qalpoqcha"sini o'qimay

---

<sup>1</sup>*Tulabayeva Ruxsora Sayfullayevna* – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-mail:** rtulabayeva@navoiy-uni-uz; rtolaboy@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0002-7013-400X

**Iqtibos uchun:** Tulabayeva, R. 2022. "Xudoyberdi To'xtaboyev fenomeni". *O'zbekiston: til va madaniyat. Adabiyotshunoslik* 1 (2): 110-120.

qolmagan. Nafaqat o'zbek, balki jahon bolalari ham bugun adib asarlaridan namunalar o'qimoqda, zero, uning asarlari dunyoning 30 dan ortiq mamlakatlari tillariga tarjima qilindi. Bu esa yozuvchi ning chinakam bola muxlislari son-sanoqsiz ekanini isbotlaydi.

### **Asosiy qism**

Xudoyberdi To'xtaboyev zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotining yetakchi vakillaridan biri. U 1932-yil 17-dekabrda Farg'ona viloyatining Katta Tagob qishlog'ida tug'ilgan. Otadan juda erta yetim qolgan Xudoyberdi bobosi Erkaboy va buvisi Robiyabilarning tarbiyasida o'sadi. 1949-yili Qo'qon pedagogika bilim yurtini, 1955-yili Toshkent davlat universiteti (hozirgi Milliy universitet)ni bitirgan. So'ng bir necha yil Farg'ona viloyatining Bag'dod, O'zbekiston tumanlaridagi maktablarda o'qituvchi, ilmiy bo'lim mudiri, maktab direktori lavozimlarida ishlagan. Bo'lg'usi adib 1958-yili Toshkentga keladi. 12 yil davomida turli gazetalarda ishlaydi, hozirjavob, qalami o'tkir jurnalist sifatida elga taniladi. Jamiyatdagi illatlar-ni fosh etuvchi 300 dan ortiq feleton yozadi. 70-yillar boshida o'z ijodiy faoliyatini bolalar hayotini keng tasvirlagan asarlar yaratishga yo'naltiradi. Yozuvchi o'zining tarjimayi holidan bu qarorini shunday izohlaydi: «Ruhi dunyosi pok bo'lgan, tarbiyaga quloq soladigan, savob va gunohni bilishga intiladigan, ruhi go'zallikka talpinayotgan bolalar dunyosida ishlasam qanday bo'lar ekan, deb o'ylay boshladim va qaror ham qabul qildim, bolalar, o'smirlar dunyosiga paqqos o'tib ketdim».

Darhaqiqat, adib, uzoq yillar yozuvchilik iste'dodini bolalar va o'smirlarning ma'naviy tarbiyasiga bag'ishladi. U ana shu maqsadda yoshlar nashriyoti, "Gulxan", "Yosh kuch" jurnallarida faoliyat ko'rsatib, o'zi e'tirof etganidek, "...Bola va o'smir ruhidagi go'zallikni himoyalashga e'tibor" berib keldi. Yozuvchi tinimsiz mehnati, izlanishlari, bolalarga cheksiz mehr-muhabbati tufayli, o'zbek bolalar adabiyotining zabardast namoyandasiga aylandi. Adib qalamiga mansub "Omonboy va Davronboy sarguzashti" qissasi (1974-yil), "Sariq devni minib" (1968-yil), "Sariq devning o'limi" (1973-yil), "Besh bolalik yigitcha" (1976-yil), "Qasoskorning oltinboshi" (1981-yil), "Yillar va yo'llar" (1983-yil), "Shirin qovunlar mamlakati" (1986-yil), "Mungli ko'zlar" (1988-yil), "Jannati odamlar" (1996-yil) kabi romanlari ana shu xayrli faoliyat mevalaridir.

Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari ko'pgina jahon xalqlari tillariga (30 dan ortiq) tarjima qilingan, italiyalik buyuk bolalar yozuvchisi Janni Rodarining tahsiniga sazovor bo'lgan.

Bolalarning sevimli yozuvchisi X. To‘xtaboyev 1982-yilda “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi”, 1991-yilda esa “O‘zbekiston xalq yozuvchisi” kabi yuksak unvonlar bilan taqdirlangan.

Nafaqat o‘zbek, balki dunyo bolalarining ham sevimli adibiga aylanib ulgurgan Xudoyberdi To‘xtaboyev 2021-yil 22-mart kuni 89 yoshida vafot etdi.

### **Asarlari sharhi**

Xudoyberdi To‘xtaboyev bolalarga bag‘ishlab juda ko‘plab asarlar yozgan. Ularning hammasi birdek mashhur bo‘lmasa-da, lekin shunday asarlari borki, bolalar prozasining yorqin namunalari hisoblanadi.

Adibning “Sariq devni minib” va uning mantiqiy davomi bo‘lgan “Sariq devning o‘limi” romanlari nafaqat o‘zbek adabiy oti, balki jahon adabiyoti ko‘lamida ham bolalar uchun yaratilgan sarguzasht asarlarning eng yaxshi namunasiga aylandi. Bu romanlarda 6-sinf o‘quvchisi Hoshimjonning ajoyib sarguzashtlari, uning sehrli qalpoqcha yordamida erishgan qahramonliklari qiziqarli tarzda hikoya qilinadi. Hoshimjon tashlandiq bir uydan oq jundan yasalgan sehrli qalpoqchani topib oladi. Uning sehrini avval uyidagilar bilan sinab ko‘radi. Qalpoqchanning sehrli kuchiga to‘la amin bo‘lgach, uni dastlab qishlog‘idagi folbin xolaning yolg‘onchiligini fosh qilishga qaratadi. Oyisiga qo‘shilib firibgarlik qilayotgan sinfdoshi Mirobidinxo‘jani tavbasiga tayantiradi, folbin xola xaltachalaridagi dorilarni almashtirib qo‘yib, mijozlarni undan bezdiradi. Sehrli qalpoqcha ishlaridan ruhlangan Hoshimjon uni o‘zi o‘qiydigan maktabida ham sinay boshlaydi. Qalpoqchani kiyib olib, o‘qituvchilar konspektlaridan yozma ishlarni ko‘chiradi, natijada baholari, o‘zlashtirishi yaxshilana boshlaydi, biroq shoshqaloqligi tufayli o‘zi ham pand yeydi. O‘qituvchilar uni koyib, tartibga chaqiradilar. Bilimsiz, yaxshi baho larga o‘qimay turib biror-bir kasb egasi bo‘lish mumkin emas, deb uqtiradilar. Lekin sehrli qalpoqchanning kuchiga ortiqcha ishongan Hoshimjon ustozlarining “Ilmsiz bo‘lsang, zootexnik tugul, molboqar ham bo‘la olmaysan” degan gapiga o‘jarlik bilan, “bo‘laman, bo‘laman, bo‘laman”, deydi-da, eshikni tarsillatib yopib maktabdan ketadi. Maktabini, jonajon qishlog‘ini tark etadi. Dastlab ishlari yurish gadek bo‘ladi – u sehrli qalpoqcha yordamida ishyoqmas, dangasal-ar, lo‘ttiboz kimsalarning rosa dodini beradi. Ularni qilmishiga yara-sha jazolaydi. U jinday quv, ayyor, bir qadar lofchi bo‘lsa-da, aslida sofdil, ko‘ngli beg‘araz bola. U doimo yaxshilikka, ezgulikka intiladi.

Tezroq katta bo'lgisi keladi, sehrli qalpoqcha yordamida turli kasblarni egallashga harakat qiladi. Ularni bir qadar egallaydi ham, biroq bilimsizligi, tajribasizligi tufayli pand yeydi. Biror-bir maqsadga erishish uchun sehrli qalpoqchadan tashqari, bilim ham kerakligini unutib qo'yadi. Shuning uchun ham qaysi kasbga qo'l urmasin ishi chappasiga ketadi.

Agar siz "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi" romanlarini to'liq o'qib chiqsangiz, sehrli qalpoqcha tufayli turli mutaxassisliklarni egallagan Hoshimjon har safar chuv tushishi sabablarini bilib olasiz.

### **Romanlarining o'ziga xos xususiyatlari**

Bolalarga asar yozgan yozuvchining qalbida bolaga xos xarakter-tabiat bordir. Xudoyberdi To'xtaboyev qahramonlarini o'z qalbida mavjud bo'lgan bolaga xoslik – quvnoqlik, beg'uborlik, tamasizlik, so'zga chechanlik, zukkolik singari xislatlar orqali tasvirlaydi. Bola xarakterining eng ko'zga ko'ringan xususiyatlaridan biri – ularning rostgo'yligidir. "Yashirib nima qilaman, ko'cha changitib yurgandan ko'ra komandaga bo'linib olib, to'p tepgan yoki xoliroq joyga, masalan, oying harchand chaqirsa ham ovozi yetmaydigan joyga borib olib chillak o'ynagan ming marta yaxshi" degan bolakay o'zining sodda va rostgo'y ekanini namoyon etib turibdi.

"To'g'ri, men o'sha yili oltinchi sinfda qolib ketganman, lekin yomon o'qiganim uchun emas, yo'q, zinhor bunday deb o'ylamang. O'sha yili sizga ochig'ini aytsam, butun maktabimiz bo'yicha "to'rt" va "besh" baholar zapasi kamayib qolgan ekan. Shuning uchun muallimlar menga nuqul yo "uch", yo "ikki" qo'yaverishgan. O'qituvchilar: "Akromjon, sen o'zi ajoyib bolasan-u, lekin baribir ikki qo'yishga to'g'ri keladi-da", – deb bir necha bor uzr so'rashgan" [To'xtaboyev 2016, 5].

Fikrlar va hislar oqimi qahramon ruhiy olamini oshkor qiladi. Parchada maktabda qoloqroq o'qiydigan bolaning ham aybdorlik hissi, ham shu hisni berkitish uchun ishlatilgan, bunga hatto uning o'zi ham ishonmaydigan yolg'oni keltirilgan. U o'zining "yomon" o'qishini, aynan shuning uchun sinfda qolib ketganini va bu sabab hammaga ayon bo'lib turgan haqiqat ekanligini yaxshi biladi. Ammo shunday bo'lsa-da, negadir buni tan olishni istamaydi. Go'yo o'zini "uyatga" qoldiradigan sabab "boshqa", ya'ni "butun maktab bo'yicha "to'rt" va "besh" baholar zapasi kamayib qolgan ekan"ligi unga taskin beradi.

Bunda qahramon ichki dunyosini tasvirlashda ichki monolog



vositasi yetakchi o'ringda turadi. Yozuvchi shu vosita orqali o'z qahramonlari ichki olamining chuqur tahlilini beradi.

Yozuvchining mahorati, uzoq davom etgan izlanishlari, bola ruhiyatini yaxshi o'rgangani, bolalarga bo'lgan muhabbati – bularning barchasi uning g'aroyib qahramonlarida bo'y ko'rsatdi. Bu qahramonlarni bugungi kunda bolalar xarakterining namunasi sifatida bemalol ko'rsatish mumkin.

Yoki yana shu asardan: "... – Hoshim, – deb chaqirib qoldi.

–Labbay, oyijon.

– Nega tovuqlarga don bermading?...

–Nima dedingiz, oyi?

– Nega tovuqlarga don bermading, deyaqman, nima qulog'ing devorning ostida qolganmi?

– Ovqatini o'zi topib yesin-da. Tokaygacha tekinxo'rlik qilishadi, – deb gapni chalg'itmoqchi bo'ldim.

–Voy o'lmasam, suvam bermaganga o'xshaysan.

– Oyi, tovuqlar suv ichmaydigan bo'lib ketgan...

– Shunaqami?

– Ha, shunaqa.

Nojo'ya gap aytib qo'ygan bo'lsam kerak, oyim katta kaltakni olib quvlashga tushdi. Uch marta hovlini aylandim-da, ko'cha eshigi oldiga borib egilib salom berdim va bir hatlab o'zimni ko'chaga oldim" [To'xtaboyev 1982, 17-18].

Bu vaziyatda bola uchun eng oxirgi chora – qochish. U qochib qolish bilan muammodan qutulmoqchi bo'ladi. Ammo qochish bosqichiga yetib borguncha uning "ancha-muncha kurashgani" ko'rinib turibdi. Bolaning "himoyaviy usul"i bosqichma-bosqich rivojlanib boradi. "Labbay oyijon", "Nima dedingiz oyi?" der ekan, bola bu bilan onaning yumshashi yoki boshqa narsaga chalg'ib qolishini kutadi. Biroq bunday bo'lmaydi. Onaning vajohati tobora jiddiylashayotgani ma'lum. Bola ham "himoya usuli"ni kuchaytiradi. "Ovqatini o'zi topib yesin-da. Tokaygacha tekinxo'rlik qilishadi", "Oyi, tovuqlar suv ichmaydigan bo'lib ketgan..." degan gaplarni qanday aytib yuborganini bilmay qoladi. Bu yerda onaning jahlini chiqargan narsalar asosan, "tovuqlarning o'zi ovqat topib yeyishi", "tekinxo'rlik" qilavermasligi kerakligi va ularning "suv ichmaydigan bo'lib ketgani" singari mantiqsiz jumlar edi. Ammo bolani bu paytda shu gaplarning mantiqsiz ekanligi, "tekinxo'rlik qilish", "suv ichmaydigan bo'lib ketish" singari "xususiyat"larning tovuqlarga nisbatan qo'llab bo'lmasligi qiziqtirmaydi. Uning uchun muhimi – jazo olishdan qutulish. U ixtiyorsiz ravishda chechanlik bilan javob

qaytaraveradi. Natijada, yuqoridagi kabi yumor yuzaga keladi. Bu hodisaning isboti sifatida parchaning oxirgi qismiga diqqat qiling: “Nojo‘ya gap aytib qo‘ygan bo‘lsam kerak, oyim katta kaltakni olib quvlashga tushdi”, deydi bola. Bundan shuni anglash mumkinki, bola haliyam qanday xato qilganini sezgani yo‘q. Uning aqliga onasining jahlini chiqargan narsa qandaydir “nojo‘ya gap aytib qo‘ygan”i emas, balki aynan o‘sha mantiqsiz jumalari ekanligi haliyam yetib kelgani yo‘q. Buning sabablari sifatida qahramonning o‘zi tushib qolgan vaziyatdan qutulish, o‘z aybini yopish, o‘zgalar va o‘zi oldida o‘zini oqlash kabilarni keltirish mumkin.

Adibning “Besh bolali yigitcha” asarida ham bola ruhiyatining o‘ziga xos jihatlarni kuzatish mumkin. “Besh bolali yigitcha” asarida bolaning uy yumushlari bilan bandligi tengdoshlari bilan birga o‘ynab yurish imkoniyatini bermaydi. Bolaning o‘rtoqlari uni masxara qilishadi va atay g‘ashiga tegish uchun turli “usullar” ishlatishadi. Ammo bu bola shunday nekbin – optimistik ruhga egaki, u o‘ziga o‘zi taskin berish uchun kuch topadi. “Tomda o‘tirib makka uqalayaptiyu”, “qiziq-qiziq afandilar aytib”, o‘zini-o‘zi “ovuntirib”, o‘zini-o‘zi “kuldirib” o‘tiribdi. Ammo ayni paytning o‘zida “... Ho‘ narida, jarlik orqasidagi yalanglikda bo‘lsa” o‘rtoqlari ko‘zini kuydirib varrak uchirishyapti, osmonda katta-kichik varraklar shunaqangi ko‘pki, biri shox tashlab, boshqasi havolab, chiroyli shokilalarini pipiratib shunaqangi chiroyli uchishyaptiki, bepoyon osmonda xuddi qush bozori bo‘layotganga” o‘xshashi unga ichdan alam qiladi. Ruhiiy ziddiyat. Fikrlar va tuyg‘ular kurashi yuz berayotgan, yengilish hissi sezilib turgan lahzadan bolaning ruhi o‘ziga taskin (najot) topishni istaydi. Natijada, “qiziq-qiziq afandilar aytib”, o‘zini-o‘zi “ovuntirib”, o‘zini-o‘zi “kuldirib” o‘tirishning o‘zi unga taskin beradi.

Biz Xudoyberdi To‘xtaboyev romanlarida yumorning yetakchi vosita ekanligini imkon qadar talqin etishga urindik. Lekin bolalarga atab yozilgan romanlarda yumorning ijtimoiy tabiati ham borligini unutmazlik lozim. X.To‘xtaboyev qahramonlari hamisha jamiyat bilan birga, turli odamlar orasida tasvirlanadi. Shuning uchun ham qahramon komizmi ma‘lum sharoit asosida yuzaga keladi. Yuzaga kelgan komik vaziyatga faqat bolaning o‘zi emas, balki jamiyat ham qisman sababchi bo‘ladi. “Mungli ko‘zlar” romanida ijtimoiy hayot taqozosi bilan turli sinovlarga duchor bo‘lgan bolalar obrazlari gavdalantirilgan. Bu bolalar boy oila farzandlari bo‘lib, keyinchalik, oila inqirozga yuz tutgach, qanday ruhiy kechinmalar iskanjasida qolganlari asarda yoritib berilgan. X.To‘xtaboyev asarlarida milliy ruh, dunyoqarash sezilib turadi. X.To‘xtaboyev

milliy adabiy an'analarimizga, xalq og'zaki ijodi tajribalariga tayangan holda sarguzasht-detektiv romanning o'ziga xos, betakror milliy shaklini yaratdi, o'zi yaratgan milliy shakl vositasida o'zbek xalqi hayotining betakror manzaralarini, yorqin milliy xarakterlarni badiiy kashf etishga erishdi.

Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarida keksa odamlar – chol-kampirlar alohida mehr bilan tasvirlanadi. Hoshimjon buvisini, Akrom sartaroshni, polkovnik Salimjon Otajonovni nihoyatda hurmat qiladi. Akrom bilag'on Shirin qovunlar mamlakatida Dar Darajaday ustoz-suyanchiq topib olganidan behad quvonadi. "Besh bolali yigitcha" da Parpi bobo, To'ti xola, Pakana bobo, Abziy singari keksalar yetimlarning boshini silaydilar. Yozuvchining "Jannati odamlar" asarida esa Erka bobo, Matmusa bobo singari diyonatli, ilmi kishilar timsoli mehr bilan tasvirlangan. Buning sababi, yozuvchi ma'naviyatining kamolga yetishida uning bobosi va buvisi katta hissa qo'shganidir.

Xudoyberdi To'xtaboyevning yoshligi, bolaligi bobosi Erkaboy va enasi Robiyabibi xonadonida o'tgan. Bobosi yetim nabirasiga mehr berdi, mehnatga ko'niktirdi, diyonatli bo'lishga undadi. Keksalardan olgan mehr, tarbiya adibning deyarli barcha asarlarida ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ham uning asarlarida keksa odamlar obrazi bolalar singari beg'ubor, qalbi pok, rahmdil va insonparvar qilib tasvirlanadi.

X.To'xtaboyev fantastik detaldan faqatgina badiiy vosita sifatida foydalanadi. X.To'xtaboyev fantastik realizm asosida qahramonlar ruhiyatini ham ifoda etgan. Fantastik holatlar qahramonlar ruhiy dunyosini, xarakterini ochib berishga xizmat qilib, o'ziga xos ifoda shakli hisoblanadi. X.To'xtaboyev romanlarida fantastik o'rinlar hayot haqiqatiga uyg'un tasvirlanadi. Bu esa fantastikaning realizmni inkor etmasligini ko'rsatadi. "Sariq devni minib" romanida faqatgina sehrli qalpoqcha fantastik detal bo'lib xizmat qilsa, "Shirin qovunlar mamlakati..." romanida esa ko'plab fantastik holatlar tasvirlangan. Bolaning fantastik olamga tushib qolishi asar oxirigacha fantastik tasvirning berilishini ta'minlagan.

### **Xudoyberdi To'xtaboyev ijodining o'rganilishi**

X.To'xtaboyev ijodi uzoq vaqtlardan beri adabiyotshunoslar diqqatini o'ziga jalb qilib keladi. Uning matbuot yuzini ko'rgan har bir yangi asari hech qachon e'tibordan chetda qolgan emas. Taniqli adabiyotshunos olimlarimizdan O.Sharafiddinov, M.Qo'shjonov, S.Mamajonov, U.Normatov, A.Rasulov, P.Shermuhamedovlarning

ilmiy maqolalari, shuningdek, bolalar adabiyotining ko'plab tadqiqotchilari ishlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

X.To'xtaboyev romanlarida aks etgan yumor xususida professor U.Normatov adib bilan bo'lgan suhbat asnosida go'zal ta'riflar keltiradi [Normatov, 2010, 350-362]. Olim ta'kidlashicha, "Sariq devni minib" asari aynan yumor ruhida yaratilgani sababli, dunyoning ko'plab ijodkor va olimlari e'tirofiga sazovor bo'lgan.

"Jumladan, bolalar adabiyoti masalalariga bag'ishlangan bir anjumanda mashhur italyan bolalar yozuvchisi Janni Rodari "Sariq devni minib" romani haqida to'xtalib, bu asar menga o'zining boy fantaziyasi, hayotbaxsh yumori bilan ma'qul bo'ldi, degan edi. Xuddi shu asar nemis tilida chiqqanida turkshunos olima Doras Shuls adibga o'zbek tilida maktub yo'llab, roman quvnoq o'zbekona kulgisi bilan nemis kitobxoniga ma'qul tushganligini ta'kidlaydi" [Normatov, 2010, 350-362].

### **Xulosa**

Bolalar adabiyoti yosh kitobxon qalbi va ongiga chuqur ta'sir etuvchi omillardan hisoblanadi. Shu ma'noda bolalar uchun yaratilgan har bir asar tarbiya qiluvchi vazifasini ham o'taydi.

Biz yuqorida Xudoyberdi To'xtaboyev romanlaridagi komizm yetakchiligi haqida yuqorida to'xtaldik. Komizm "komediya" so'zi o'zagiga aloqador bo'lib, yunoncha "comikos" – kulgili va "ode" – qo'shiq ma'nolarini anglatadi. Unda "hayot voqea-hodisalari dramatik qahramonlarning kulgili fe'l-atvorlari, xatti-harakatlarida voqea bo'ladi" [Belinskiy, 156]. Komediyaning mohiyati komik konfliktga bog'liq bo'lib, unda "hayot o'z-o'zini inkor qiladi", ya'ni aslida xunuk, zararli, razil va nopok xulqli inson (mazmun) o'zini yaxshi, ilg'or, pok, odamiy qilib ko'rsatsa (shakl) yoki buning aksicha holatda bo'lsa, kulgi keltirib chiqaradi – deb yozadi V.G.Belinskiy [Belinskiy, 156]. Demak, komizm – hayotga, voqelikka kulgi aralash munosabat, inson ko'nglining kulgi yo'li bilan poklanishidir. Bu borada Suvon Melining "Komik katarsis" nomli maqolasida batafsil fikr yuritilgan [Suvon Meli, 2003. 20]. X.To'xtaboyev romanlarida bola qahramon ruhiyatida chechanlik xususiyati ustunlik qiladi. Bu esa bola qahramonlarga xos bo'lgan hayotbaxsh yumorni yuzaga chiqaradi. Bolalar adabiyotida psixologizmning eng katta xususiyati komizm hisoblanadi. Komizm jarayonida bola qahramon psixologizmi namoyon bo'ladi. Bola ruhiyati komizmga moyil bo'lib, u har qanday vaziyat, har qanday holatda komiklikdan yiroqlashmaydi.

Yozuvchi romanlarida keksalar obrazlari tasvirlanadi. Bu

tasvir bevosita yozuvchi biografiyasi bilan aloqador bo'lib, keksa insonlar yozuvchi hayotida katta ahamiyatga ega bo'lganini ko'rsatadi. Umuman, keksa odamlar obrazi yozuvchida qanday muhabbat qoldirgan bo'lsa, yosh qahramonlar qalbida ham ana shunday mehr-muhabbat bilan iz qoldiradi. Har bir uchragan keksa odam o'zicha yosh qahramonlarga yaxshiliklar qiladi, ularni ezgulikka undaydi. Buning sababi, yozuvchidagi ruhiy-ma'naviy olam ana shunday odamlarga izzat-hurmat va mehr-muhabbat bilan yo'g'rilgan edi.

### **Adabiyotlar**

- Жумабоев, Мамасоли. 2000. *XX аср ўзбек шеъриятида психологик тасвир маҳорати*. Тошкент: ДДА.
- Жумабоев, Мамасоли. 2001. *Болалар адабиёти*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Жумабоев, Мамасоли. 2002. *Ўзбек ва чет эл болалар адабиёти*. Тошкент: Ўзбекистон.
- Жўрақулов, Узоқ. 2006. *Худудсиз жилва*. Тошкент: Фан.
- Матжонов, Сафо. 2018. “Сеҳрли қалам ёхуд болалигини қўмсаган бобо”. Х.Тўхтабоев. “Қайлардасан болалигим” китобида сўзбоши”. Тошкент: Янги аср авлоди.
- Норматов, Умарали. 1983. *Ақл ва қалб чироғи*. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Норматов Умарали, 2007. *Ижод сеҳри*. Тошкент: Шарқ.
- Норматов, Умарали. 2010. “Ҳаёт ва ҳажвиёт”. Нафосат гурунглари. Тошкент: “Муҳаррир”.
- Расулов, Абдуғафур. 2012. *Ғаройиб салтанат*. Тошкент: Адиб.
- Сувон, Мели. 2003. “Комик катарсис”. *Ўзбек тили ва адабиёти*, 3-сон. 20.
- Тўхтабоев, Худойберди. 2016. *Ширин қовунлар мамлакати ёки сеҳргарлар жанги*. Тошкент: Янги аср авлоди.
- Тўхтабоев, Худойберди. 1982. *Сариқ девни миниб*. Тошкент: Ёш гвардия.
- Тўхтабоев, Худойберди. 2005. *Беш болали йигитча*. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ.
- Қўшжонов, Матёқуб. 1982. *Ўзига хос ижод йўли*. Тошкент: Ёш гвардия.

## **Khudoyberdi Tokhtaboyev phenomenon**

Ruxsora Tulabayeva<sup>1</sup>

### **Abstrakt**

Khudoyberdi Tukhtaboyev, a famous representative of Uzbek children's literature, is one of the writers who perfectly illuminate children's mental world in their works. Khudoyberdi Tukhtaboyev started a new era in Uzbek children's literature, as well as its prose. Actions, words, and character of the characters he created were loved by young readers. The writer was able to transfer the cheerfulness and innocence of a child in his works. This humor was close to children's hearts, and he gained more and more young fans through this closeness.

The unique characters created by the writer are living in the hearts of many readers. In particular, his characters such as Hoshimjon, Mirobiddinkhoja, Orifjon, Akrom Kavunchi are already well known, especially to young readers. The reason for that is that the characters of them are very bright and memorable, cheerful, innocent and simple like a child, prone to laughter and humor. The purpose of the article is not only to list the biography and works of Khudoyberdi Tukhtaboyev, but also to analyze the characteristics of his novels.

**Key words:** *Khudoyberdi Tokhtaboyev, novel, image, hero, comedy, social nvironment, image of the psyche, hero's psyche, character, humor, hero, expression.*

### **References**

- Jumaboyev, Mamasoli. 2000. XX asr o'zbek she'riyatida psixologik tasvir mahorati. Toshkent: DDA.
- Jumaboyev, Mamasoli. 2001. Bolalar adabiyoti. Toshkent: O'qituvchi.
- Jumaboyev, Mamasoli. 2002. O'zbek va chet el bolalar adabiyoti. Toshkent: O'zbekiston.
- Jo'raqulov, Uzoq. 2006. Hududsiz jilva. Toshkent: Fan.
- Matjonov, Safo. 2018. Sehrli qalam yoxud bolaligini qo'msagan bobo. X.To'xtaboyev. "Qaylardasan bolaligim" kitobiga so'zboshi". – Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Normatov, Umarali. 1983. "Aql va qalb chirog'i". – Toshkent: Adabiyot va

---

<sup>1</sup>*Tulabayeva Ruxsora Sayfullayevna* – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.

**E-mail:** rtulabayeva@navoiy-uni-uz; rtolaboy@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0002-7013-400X

**For citation:** Tulabayeva, R. 2022. "Khudoyberdi Tokhtaboyev phenomenon". *Uzbekistan: Language and Culture. Literature 1 (2)*: 110-120.

san'at.

Normatov Umarali, 2007. *Ijod sehri*. Toshkent: Sharq.

Normatov, Umarali. 2010. "Hayot va hajviyot". Nafosat gurunglari. Toshkent: Muharrir.

Rasulov, Abdug'afur. 2012. *G'aroyib saltanat*. Toshkent: Adib.

Suvon, Meli. 2003. "Komik katarsis". *O'zbek tili va adabiyoti* 3: 20.

To'xtaboyev, Xudoyberdi. 2016. "Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi". Toshkent: Yangi asr avlodi.

To'xtaboyev, Xudoyberdi. 1982. Sariq devni minib. Toshkent: Yosh gvardiya.

To'xtaboyev, Xudoyberdi. 2005. Besh bolali yigitcha. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.

Qo'shjonov, Matyoqub. 1982. O'ziga xos ijod yo'li. Toshkent: Yosh gvardiya.



## Lirikada obraz tasnifi va talqini

(Abdulla Oripov she'riyati misolida)

Uljon Boboqulova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Badiiy asar asos negizini tashkil qiladigan obraz tushunchasi qadimdan va hozirga qadar san'atning eng muhim elementi sanaladi. Zotan, badiiy obraz bu san'at asarining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi asosiy vositadir. Shu bilan birga, dunyoning estetik qiyofasini, muayyan hissiy holatini ifodalovchi komponent hamdir. Shu bois obraz tushunchasi o'z xarakter-xususiyatlari va mazmuniga ko'ra juda murakkab va ayni paytda keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Ob'ektiv voqelikning u yoki bu tarzda inson ongidagi in'ikosi keng ma'noda obrazning asosiy ildizini tashkil etadi. Yondosh obrazlar esa mana shu ilk asosdan o'sib chiqadi. Shu jihatdan obraz tabiati va tasnifiga ko'ra: fan, adabiyot va san'atda alohida farqlanadi. Ushbu maqola lirikada obrazlar tasnifi va talqin muammosini shoir Abdulla Oripov she'riyatida misolida o'rganishni ko'zda tutadi.

**Kalit so'zlar:** *Abdulla Oripov, poetik obraz, obrazlilik, lirika, inson, tasnif va talqin, kechinma, tragiklik, individuallik, umumlashmalik.*

### Kirish

“Badiiy obraz bu usul bilan ifodalanishi mumkin bo'lgan, umuman haqiqatning tashqi qobig'i emas. U o'zining mazmuni va shakli orqali umumlashgan hayotdagi hodisalarni ifodalaydi” [Хранченко 1986, 69]. Aslida obrazlilik-badiiylilik bilan sinonim tushuncha hisoblanadi. Badiiy obrazning umumiy jihatlariga ta'rif bergan rus olimi Beliniskiy badiiy obraz nafaqat hayotni qayta tasvirlab beradi, balki hayotni baholash orqali anglash maqsadida muallif uchun uning xarakterli jihatlarini ham ko'rsatishini isbotlashga harakat qiladi. Biroq badiiylilik muammosi bu bilangina cheklanib qolmaydi. Badiiy obraz-san'atning eng muhim ichki, faol va harakatlantiruvchi o'zak-tomiri ekani o'z isbotini topadi. Badiiyligi haqida qayg'urilmagan

---

<sup>1</sup>*Boboqulova S. Uljon*- Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktranti

**E-mail:** uljonboboqulova8@gmail.com

**ORCID ID:**0009-0005-9072-2748

**Iqtibos uchun:** Boboqulova, U.S. 2023. “Lirikada obraz tasnifi va talqin”. *O'zbekiston: til va madaniyat. Adabiyotshunoslik* 1 (2): 121-136.

asarlarda, bir soʻz bilan aytganda, yozuvlar chelakdagi suvni toʻkib yuborgandek qogʻozga tushgan gap. Iqtidorli adib soʻzni safga shunday tizadiki, ulardan betakror badiiy obrazlar yuzaga keladi. Bunga, albatta, obrazli tafakkur orqaligina erishish mumkin.

Badiiylikning umumiy mazmuni badiiy obrazni yuzaga keltiradi. “Badiiy obraz - adabiyot va sanʼatning olam va odamning badiiy idrok etish vositasi, badiiyatning umumiy kategoriyasi” [Quronov 2013, 43]. Lirik asarlarda lirik qahramon va manzara (peyzaj lirikasi yoki jonli va jonsiz narsalar tasviri zamirida ham inson obrazining ayrim qirralari aks etadi) obrazlari orqali badiiy umumlashma-inson obrazi tushuniladi va u adabiyotda hal qiluvchi rol oʻynaydi. Umumlashma obraz yaratish ijodkordan bir qancha shartlarni bajarishni talab etadi. Bunda shoir tasvirlanayotgan makon va zamon, hayotiy voqelik, maʼlum mantiq asosida oʻzaro bogʻlangan, biri ikkinchisiga ehtiyoj sezadigan, biri ikkinchisini mazmunan toʻldiradigan obrazlar sistemasining ichki tarkibini shakllantirishi kerak boʻladi. Sheʼrdagi bir-ikki obraz emas, barchasining qatʼiy oʻrni boʻlishi, lirik asarning pafosini yuzaga keltiruvchi umumiy quvvat manbayi boʻlishi lozim.

Oʻzbek nazariyotchilaridan B.Akramov, H.Umurov, I.Sulton kabilarning badiiy obraz tasniflariga doir qarashlari mana shu yoʻnalishda muhim nazariy manba hisoblanadi. Bugungi kunda adabiyotshunos olim D.Quronovning badiiy obraz tasnifiga doir izlanishlarini alohida eʼtirof etish lozim. Olim badiiy obrazni quyidagicha tasniflaydi: “Ijodkor estetik ideali bilan munosabatiga koʻra ijobiy va salbiy obrazlar, ijodiy metodga koʻra *realistik, romantik, surrealistik* va b., yaratilish usuliga koʻra *fantastik, grotesk* va b., xarakter xususiyatlar va estetik belgisiga koʻra *tragik, satirik, yumoristik* obrazlar farqlanaveradi” [Quronov 2018, 109]. Biroq mavjud tasniflarning hech biri badiiy obrazlarni toʻlaqonli qamrab ololmaydi. Shuning uchun badiiy asarlarni, ayniqsa, lirik asarlarni tahlil qilishda birini asos qilib olgan holda boshqalarini ham esdan chiqarmaslik lozim. Chunki lirik asarlarda koʻpincha oniy lahzada yuz beruvchi tuygʻular taloshi tasvirlanadi. Bu esa tahlilda oʻta murakkablikni yuzaga keltirib, tizimli yondashuvni talab etadi.

### **Asosiy qism**

Endi lirik obrazlar tasniflarini shoir Abdulla Oripov sheʼriyatida obrazlar talqini misolida birma-bir koʻrib chiqamiz.

Ana shunday tizimli yondashuv asosidagi tahlillardan biri badiiy obrazlarni: 1) *predmetlilik darajasi*; 2) *umumlashtirish*

darajasi; 3) *tasvir va ifoda planlari munosabati* (strukturasiga)ga ko'ra guruhlashni (M.Epshteyn) ko'zda tutadi.

Obrazning predmetlilik darajasi deganda o'sha obraz tasvirlayotgan narsaning ko'lami nazarda tutiladi va badiiy reallik to'rtta sathdan tarkib topadi: *detal obrazlar* ▶ *voqea-hodisalar obrazi* ▶ *xarakter va sharoit* ▶ *dunyo va taqdir obrazi* (badiiy reallik) Shoir A.Oripovning "Onajon" deb nomlangan she'ridan olingan quyidagi parchaga e'tibor qaratamiz:

*Keltirarlar goho beshik  
Ko'zlarida hayajon.  
Yotar payting bo'ldi-ku, der,  
Kela qol, der, bolajon.  
Qaylargadir yuguraman,  
Fig'onimdan chiqar dud.  
Yig'lama, deb qo'llarimga  
Tutqazarlar so'ng tobut [Oripov 2018, 36].*

Yuqorida keltirilgan she'riy banddagi "beshik" va "tobut" detal-obrazlari ko'z oldimizda o'z-o'zidan voqea-hodisalar obrazi-*beshik-tug'ilmoq, tobut esa o'lim* hodisasini yuzaga keltiradi. Shundan so'ng tizimli tarzda *tug'ilmoq- bu dunyoga yangi kelgan individ-chaqaloqni, o'lim esa bu dunyodan yaqinda ko'zyumgan insonni-jonsiz tana* (mayit)ni tasavvurimizda gavdalantiradi. Bu yerda chaqaloq va jonsiz tana-xarakterni ifodalasa, chaqaloq tug'ilgandagi ko'tarinki kayfiyat hamda o'lim hodidasidan so'ng ro'y beradigan azalilik holati sharoitni yuzaga keltiradi. Xarakter va sharoit birgalikda "dunyo va taqdir" - badiiy reallikni yuzaga keltirmoqda. Tug'ilmoq va o'lmoq- bu azaliy qonuniyat, taqdir ekanligini shoir badiiy obrazlar, aniqrog'i detal-obrazlari orqali ifodalab bermoqda.

Umumlashtirish darajasiga ko'ra badiiy obrazlar ikki jihatdan tasnif qilinadi: Birinchisi ko'proq inson obraziga tatbiqan bo'lib, individual obrazlar, xarakter va tipik obraz (tip) ga ajratiladi. Lirik asarlarda bu ajralish bitta obrazda umumlashma tarzida namoyon bo'lishi mumkin. Bunga A.Oripovning yuqorida keltirilgan "Onajon" she'ridagi ona obrazi yaqqol misol bola oladi. Shoir "*Qo'llarida oq yelpig'ich*"; "*Sen otamga pul beribsan, yostig'ingning ostidan*"; "*Aytibsanki, onasizlik kelmasin deb o'yiga, sarf qilingiz menga emas, Abdullaning to'yiga*"; "*G'amgin bolish pastida, kitobimni ko'rdim nogoh boshg'inangning ostida*" kabi misralarda muayyan davr va muhitga mansub ona obrazining individual xususiyatlari orqali

badiiy xarakter-obraz yaratishga erisha olgan. Bunda shoirning maqsadi badiiy obraz yaratishdan iborat emas, balki o'sha makon va zamondagi hasratli va dardli kechinmalarini, qalb isyonlarini g'ayri shuuriy tarzda bayonidir. Ona obrazi esa barcha xalqlar va millatlar uchun, jamikiinsoniyat uchun har davrda va har makonda tipik obraz bo'la olishini hech kim inkor eta olmaydi.

Umumlashtirish darajasiga ko'ra ikkinchi jihat-muayyan shaklda turg'un holatidagi badiiy obrazlar sanalib, asardan asarga, davrdan davrga, ko'chib o'tish xususiyatiga ega *motiv, topos, arxitep* deb yuritiluvchi badiiy obrazlardir. Masalan, "armon", "orzu", "sog'inch", "yomg'ir", "soya" kabi motivlar bir yoki bir nechta ijodkorning asarlarida qaytarilib turadi, lekin har qaysisida alohida mazmun kasb etadi. Birgina shoir A.Oripov ijodida "yolg'izlik" motivining o'zi turli-tuman ifoda va tasvir, ma'no qirralarida namoyon bo'ladi:

*Demishlar, yolg'izning*

*Yori Xudodir,*

*Do'stdan muhabbat kut,*

*Dushmanidan shavqat* [Oripov 2018, 239].

She'rda "yolg'izlik" motivi lirik qahramon obrazining hayotiy tajribalari mahsuli sifatida yuzaga kelgan bo'lsa, shoirning "*Tanho qush*", "*Yolg'iz daraxt*" [Oripov 2018]. kabi she'rlarida esa ushbu motiv bilvosita lirik qahramonning ayni vaziyatdagi kayfiyatini ifodalash vositasi bo'lib xizmat qilgan.

Badiiy obraz lirikada o'ziga xos tarzda tasniflanadi. Bu borada adabiyotshunos Botirxon Akramovning ilmiy izlanishlari ham alohida ahamiyatga molik. Olim lirikada badiiy obrazlarni quyidagicha tasniflaydi:

1. Lirik-romantik va lirik-publististik obrazlar;
2. Falsafiy-lirik obrazlar;
3. Ratsionalistik va didaktik obrazlar;
4. Tragik obrazlar;
5. Obraz-manzara [Akramov 1979].

Ammo olim B.Akramovning lirikada badiiy obraz xususidagi ayrim qarashlarida mavjud tuzumga xos bo'lgan talqinlar ustivorlik qiladiki, zamonlar o'zgarishi bilan ayrim talqinlar o'z mohiyatini yo'qotadi. Bu bilan olimning o'zbek adabiyotiga, ayniqsa, lirika nazariyasi rivojiga qo'shgan hissasini zarracha ham inkor qilmoqchi emasmiz. Aksincha, bugungi kunda ham olimning nazariy qarashlari lirikaning asosiy tadqiqot manbayi sifatida yuksak qadr-qimmatga ega.

Adabiyotda badiiy obrazlar adabiy tur va janrlarda tasvir ob'ekti, ijodkorning g'oyaviy-badiiy maqsadi, badiiy asardagi o'rni, ifoda usuli hamda sub'ektning ob'ektga bo'lgan munosabati asosida turlicha tasnif etiladi. Masalan, dramatik asarlarda badiiy obrazlar o'zining xarakter-xususiyatlariga ko'ra dramatik obraz, tragik obraz, komik obraz kabi tiplarga ajraladi. Bu obrazlar esa o'z navbatida ayni asardagi mavqeyiga qarab bosh obraz, epizodik obrazlarga bo'linadi. Bu nisbiy bo'lib, bunday bo'linish faqat dramatik asarlar uchungina xos emas. Epik, lirik janrlar uchun ham muhim kategoriya hisoblanadi. Faqat badiiy obraz o'zida mujassam qilgan eng muhim yetakchi xususiyatiga ko'ra ayni qaysi tur va janrga xos obraz ekanligini namoyish qiladi. Ba'zi asarlar ifoda usuli, shakli va kompozitsiyasi, obrazlar ko'lami jihatdan lirik asarga mansub bo'lsa ham, unda konkret xususiyatlari bilan umumlashma obraz sifatida tasvir etilgan obrazda lirizmdan ko'ra dramatism, yoki tragizm, yo komizmlik kuchliroq bo'lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan bunday obrazlarni tragik obraz, yoxud komik obraz deya atay olamiz.

Yuqoridagi badiiy obraz tasnifiga doir qarashlar asosida lirikada badiiy obrazlarni quyidagicha tasnif qilishimiz mumkin:

1. Lirik-romantik obrazlar;
2. Falsafiy-lirik obrazlar;
3. Realistik obrazlar;
4. Tragik obrazlar
5. Obraz-manzara.

### **Lirik-romantik obrazlar**

Shoirning real borliqdagi oddiy narsalar yoki hodisalar haqida kutilmagan xulosalarga kelishi, hayratbaxsh obrazlar yaratishi bu shoir fantaziyasi, orzu va o'y-xayollarining mahsulidir. Bunda shoir onani, yorni, tabiatni ideallashtirib, hatto ilohiylashtirib, bitmas-tuganmas kuch-qudrat, mislsiz go'zallik, har narsaga qodirlik, buyuklik, mangulik kabi sifatlarni baxsh etar ekan, buning zamirida ijodkorning reallikdan romantiklikka, oddiylikdan ideallikka bo'lgan intilishlari samarasi yotadi. "Haqiqiy romantizm hayotdan uzoqlashish emas, aksincha hayotga tomon chanqoq intilishni ifodalashga, o'n karra chanqoq intilish bilan yashashga da'vat etilgan" [Блок 1971, 46], - deydi A.Blok. Shuni ham aytish mumkinki, poetik xayol, fantaziya san'at va she'riyatning azaliy ideali bilan bog'liqdir. Faqat uchqur xayol va fantaziya, ijodiy edeal qudrati bilangina hayotni, ruhiy olamni "quvib etishi" mumkin. Real voqelik va ijodkor tomonidan "quvib etilgan" olamning ajoyib sentizidan mukammal

lirik-romantik obrazlar dunyoga keladi. Shoir Abdulla Oripov ijodida bunday obrazlarning turfa xil talqinlarini uchratishimiz mumkin. Ayniqsa, shoir intim lirikasidagi lirik-romantik obrazlarning go'zal namunalari insonni maftun etib, o'zga bir olam sari yetaklaydi:

*Yulduzlar o'tiga bardosh berurman,  
Fazolar taftiga qilurman toqat.  
Yoningga sog'-omon qaytib kelurman,  
Otash nigohingga yongali faqat* [Erkayev 2021, 124].

Lirika boshqa epik janrlardan o'laroq, pomantik uslubdan tamomila voz kecha olmaydi. Romantik uslubga ko'tarinki noreal tasvir va ifoda, tuyg'ularning favqulotda evrilishlari xos bo'lib, u aqlga bo'ysunmaydi.

### **Falsafiy-lirik obrazlar**

Keyingi yillar she'riyatida shoir qahramonining lirik-romantik kechinmalari uning chuqur o'y-xayollari, falsafiy mushohada va muhokamalari bilan bir butun, mutanosib ekanini sezib olish qiyin emas. Ayniqsa, shoir Abdulla Oripov she'rlarida falsafiy-lirik obrazlar yetakchi mavqeni egallaganligini ko'rishimiz mumkin. Falsafa olami asrlar davomida ijodkorlarni o'ziga maftun etib keladi. Falsafiy muammolar shoir ahlini azaldan o'ziga asir qilib kelgan. Hayotning murakkab va sirli dealiektikasi, kategoriyalari, turli jumboqlari oldida shoir uzoq va ziddiyatli xayollarga berilishi be'jiz emas. Lekin shuni ham ta'kidlash kerakki, haqiqiy poeziya falsafadan yuqoriroq turadi: ijodkorning bo'ysunmas ruhi falsafa chegaralari va qoniniyatlariga bo'ysunmaydi. Shoir yuritgan falsafiy mushohada, mulohazalar, kutilmagan ramziy obrazlar faylasuf olimni ham hayratga solishi mumkin. Shekspirning "Hamlet" tragediyasida o'lgan qirol arvochini ko'rib aqli shoshgan Hamlet hamrohiga qarata: "Horatsio, dunyoda ko'p narsalar borki, Falsafangiz tushiga ham kirmagan hali" [Jamol Kamol tarjimas], - deb aytgan gaplarida adabiyotning falsafiy chegaralari cheksiz ekanligiga ishoradir.

*Bir umr yashading ko'zningni yoshlab,  
O'zi yo'q omaddan noliding sekin.  
Atay keltirdilar daryoni boshlab,  
Suv sening hovlingga chiqmasdi lekin.  
Axir po'lat emas bu jon-u tan,  
Ayoq va izg'irin yalayveradi.  
Himoya qilishar nuqul bombadan.  
Qumursqalar esa talayveradi* [Oripov 2018, 169].

Abdulla Oripovning “Hayot ajoyibotlari” deb nomlangan ushbu ikki bandlik she’rida inson qismati va azaliy hikmat haqida fikr yuritiladi. Insonning istaklari cheksiz ekanligi, ba’zan bir tomchi suv ham daryodan afzal, ba’zan daryoning bir tomchi suvchalik qadri bo’lmisligi shoir nazdida falsafiy tarzda bayon etiladi. Azaliy oddiy haqiqatni shoir o’tkir dramatism va lirizm qorishig’ida ifoda etadiki, istasangiz, dramatismni topasiz; istasangiz, lirizmni. “*Ayoz va izg’irinning yalayverishi*” har qanday falsafani-da o’ylantirib qo’yishi aniq. Shoirning hamma narsani bilish istagida yongan qalbi, aql zakosi tafakkuri va iqtidori imkoniyatlari doirasiga sig’maganidan yangi mezonlar, yangi me’yorlar, yangi olam, garmoniya qidirib qiynalar. “Illo ulug’lardan biri aytgandek: “Aql Ka’baga bormoqqa tuyay hozirlaguncha, qalb uni ming bor ziyorat qilib keladi” [Жўрақулов 2015, 233]. Natijada inson tasavvur olamidan ham yorib chiqqan, turli ma’no qirralariga ega bo’lgan poetik umumlashma obrazlarga aylanib, polisemantik xarakterdagi falsafiy-lirik obraz darajasiga ko’tariladi. “*Qumursqalarning esa talayverishi*” esa bir qancha ma’no ottenkalarini mujassamlashtirgan og’ir xayol bo’lib, kishini qiynoqqa soladi. Kuchli falsafiylik lirik kechinma qobig’ida, unga tobe holda bayon etilgan bo’lib, dardli lirizmni yuzaga keltiradi.

### **Sof realistik obrazlar**

Shoir lirik qahramonining qandaydir hayratbaxsh holatini, kayfiyatini hayotda konkret mavjud real shaxs yoki voqea-hodisa yoxud manzara tasviri ifodalashi mumkin. Shunga qaramay, o’ziga xos xayol, ijodiy fantaziyasiz yuqoridagiday lirik lavhalar, tavsiflab berish mumkin bo’lmagan to’la ma’nodagi musiqiy-lirik obrazlar yaratish mushkul. Ijodkor o’zining shoirona tafakkuri va badiiy estetik didi orqali sof realistik lirik obraz yarata olishi mumkin. Bundagi san’at sirini Gyote shunday izohlaydi: “Reallik fantaziyaning eng asosli manbayidir. Demak, shu reallikni nima bilandir joyidan jildirish lozim bo’ladi” [Гёте 1969, 215]. Reallikni “joyidan jildirish”-harakatga keltirish uchun esa ijodkordan o’ziga xos talant, izlanish va ijodiy qiynoqlar talab etiladi. Muhimi, shoir o’sha reallikni san’atkor ko’zi bilan ko’rishi, she’riyat nuqtayi nazariadan yorqin original obrazlarda ifodalab bera olishi lozim. Abdulla Oripov ijodining dastlabki yillariga mansub bo’lgan “Maktub” deb nomlangan she’rda ona obrazining sof real qiyofasini shoirona ruhda ifodalab bera olgan.

*Sho’x- sho’x parvoz etgan qushlar,*

*Quloq soling kuyimga.*

*So’ngra uchib, yeting tezda,*



*Mening ona uyimga.  
Onaginam uyda meni,  
Kutar ayvon ostida  
Qadaginam tekkan joyda,  
Yo'lg'inamning ustida.  
Balki onam siz borganda,  
Bug'doy yoygan bo'lsalar.  
Sizlar uning bug'doyini,  
Har yon sochmang qushchalar.  
Balki onam tom boshiga,  
Turshak yoyib tushgandir  
Ey qushchalar, tegmang unga,  
Iltimosim sizdandir [Oripov2021, 94].*

Ko'rib turganingizdek, she'rning har bandida ona obrazining lirik qiyofasi ko'z oldingizda qayta jonlanadi. Kishining bolalikdagi shirin xotiralari qalbida jo'sh urib, chuqur bir entikish va shu bilan birga nafis hislarni yodga soladi. Muallifga lirik qahramon his-tuyg'ulari tanish. Mana shu tanish hislarni, voqea-hodisalarni muallif badiiylik mantig'iga tayangan holda qayta yaratadi.

Bunda bir necha real obrazlarni ko'rishimiz mumkin.

- a) real shaxs obrazi (ona);
- b) real manzara obrazi (onaning ayvonda farzandini kutishi);
- c) real faoliyat obrazi (tom boshiga bug'doy, turshak yoyishi-bolalik xotiralar);
- d) real lirik qahramon obrazi (ayni she'rda muallif).

Yuksak sog'inch motivi asosida dunyoga kelgan she'r so'ngsiz xayollar maskaniga aylanadi. Bu maskanda faqat onagagina xos bo'lgan sifat-haqiqatlar yashaydi. Ular shoir xayolot olamida qayta jonlanadi va poetik obraz darajasiga ko'tariladi.

### **Tragik obrazlar**

Har qanday san'atda, jumladan, she'riyatda tragizmning chuqur mantiqiy o'rni va asosi bor. Lirikada tragizmning emotsional kuchi va ahamiyati beqiyosdir. Ma'lumki, shoirni o'rab olgan muhit turli-tuman ziddiyatlardan iborat. Hatto har bir inson qalbida yakka o'zi emas, bir necha shaxs yashaydi va ular hamisha o'zaro kurashda, konfliktda bo'ladiki, bunda har vaqt ham kuchli tomon g'alaba qozonavermaydi. Taqdirning o'zi bu kurashning echimini hal qilib beradi. Mana shu echimdan shoir mahzun bo'lmaydi, aksincha, huzur topadi, ko'ngli taskin topadi, ruhiy izirolardan forig' bo'ladi. Ana shundagina taragik holat yuzaga keladi. Tragik holatning obykti esa

tragik obraz hisoblanadi.

Aristotelning "Poetika" asarida tragediyaga shunday ta'rif berilgan: "Tragediya muayyan hajmli, turi, qismlari turlicha sayqallangan til yordamida, bayon vositasida emas, balki hattiharakat vositasida ko'rsatiladigan va iztirob bilan inson ruhini poklovchi muhim va tugal voqea tasviridir" [Аристотел 1980, 16]. Lirikada ham bunday voqe she'rlar talaygina bo'lib, tragizmga sabab bo'lgan fojea, ziddiyatlar shoirni iztirobga solgan, unga qattiq ta'sir qilgan, uni tug'yonga keltirgan bo'lishi mumkin. Atoqli shoirimiz Zulfiyaning "Bahor keldi, seni so'roqlab", Mirtemirning "Betobligimda", A. Muxtorning "Soya" kabi va boshqa shoirlarning ijodida ham lirik fojeliq yuzaga keltirgan tragik she'rlar, tragik obrazlarni uchratamiz. Ayniqsa, shoir A. Oripovning ijodida bunday obrazlarning yuksak namunalariga duch kelamiz. Shoirning "Onajon", "Temir odam", "Nay", "Bahor" kabi she'rlari lirik tragizmning qator ko'rinishlari bayon etiladi. "Onajon" voqe she'ri shoirning onasi vafotidan so'ngyozilgan bo'lib, she'r shoirning barcha ruhiy iztiroblari va kechmishlarining oq qog'ozga tushirilgan poetik tasviridir. Shoirning yosh boshiga tushgan musibatlarining eng og'iri o'lim fojiasidir. Ayniqsa, bu onadan ayrilish bo'lsa. Farzand uchun bundan ortiq musibat bo'lishi mumkin emas (ona obrazi esa har qachon ham tragik obraz bo'la oladi). She'rda lirik qahramon holati uch bo'limda voqe tarzida yoritilgan bo'lib, she'rning so'nggi bandlarida lirik qahramon o'zining shoir bo'lishi sabablarini topganday bo'ladi, o'lim taqdirdan-azaliy qismat ekanligiga iymon keltiradi, kamolini o'z onasi ko'rmasa ham, ona Vatan ko'rishiga ishonadi va shu orqali o'zini qiynab kelayotgan ruhiy iztiroblardan qutilganday, qalbi bir oz bo'lsa-da taskin topganday, og'ir o'y-xayollardan poklanganday bo'ladi.

Yoxud, "Nay" deb nomlangan to'rt banddan iborat mo'jazgina voqe she'rni olaylik. Voqea rivoji quyidagicha kechadi. Qamishning baxtli onlari (1-, 2- misralar), Odamlarning qamishga ko'rsatgan jabri (3-, 8-misralar), nayning bunga javobi (9-, 12-misralar), odamlarning aks harakati (13-, 16- misralar) [Сувон Мели 2020, 250]. So'nggi bayt tragik yechim hisoblanadi.

*Odamlar-chi to'plandi shu on  
Faryodiga qilolmay toqat,  
Bir qamishni yig'latib chunon,  
So'ng o'zlari qildilar rohat.*

Yuqoridagi bayt she'rning so'nggi bandi bo'lib, ko'rinib turganidek, asar oxirida bosh planda nay obrazi emas, balki odamlar

obrazi tasviri yuzaga qalqib chiqdi, yozuvchining ijodiy niyati oshkor bo'ldi. Haqiqiy fojeiy qahramon nay emas, aksincha, faryodiga toqat qilolmasdan qamishni chunon yig'latib, so'ng o'zlari rohat qilayotgan odamlar ekanligi ma'lum bo'ladi. Qamish esa odamlarning tragik qismatini qabartirishga xizmat qilayotgan yondosh obraz ekanini ko'rishimiz mumkin. Odamlar bu yerda sof tragik obrazlardir. Faryodiga toqat qilolmasdan qamishni chunon yig'latib, so'ng o'zlari rohat qilayotgan odamlarning holati tragik katarsisning (iztirob bilan inson ruhini poklanishi) bir ko'rinishi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ada biyotshunos olim Suvon Meli mazkur she'rni "Nayning nolasi-kimning nolasi?" maqolasida chuqur tahlil qilganki, biz buni e'tirof etib o'tishimiz joiz.

Keltirilgan misollardan ham ko'rish mumkinki, voqeaband she'rlarda tragik obraz ko'pincha qo'shaloq idrokni talab qiladi. Bir yoqlama idrok she'rni va obrazni bo'g'ib qo'yishi, mohiyatan chala tasavvur uyg'otishi mumkin. Bu esa badiiy obrazni to'la anglashga, she'rni mohiyatan tushunishga to'sqinlik qilishi mumkin.

Tragik obrazning aksi o'laroq komik obraz ham borki, beg'araz kulgi orqali kishiga ruhiy quvvat berishi, estetik zavq bag'ishlashi lozim. Har qanday kulgili obraz komik obraz bo'la olmaydi. Komiklik eng tuban joyda ham ideallik kasb etgandagina, oliyanob kulgudan yaralgandagina yuzaga kelishi mumkin. Ojiz-notavonni kamsituvchi, yerga uruvchi, kishining jismoniy yoki aqliy zaifligini masxara qiluvchi kulgi komizm bo'la olmaydi, adabiyotda qadrlanmaydi. Badiiy kulguning qiymati badiiy so'z san'atida ancha baland turadi. Gyotening "Faust" asarida: "Kulgi-zar, ko'chada yotmas azizim",- deydi Mefistofel. Chinakam tragik obrazlar qanchalik kamyob bo'lsa, umrboqiy komik obrazlar ham shunchalik noyobdir. Lirikada komik obraz yaratish adabiyotning boshqa turlariga qaraganda juda murakkab hodisa sanaladi.

Shoir Abdulla Oripov ijodi o'zining serqirraligi va obrazlar ko'lamining kengligi bilan she'riyatimizda alohida o'rin tutadi. Uning "Sharq hikoyasi" deb nomlangan voqe-hikoya tarzida yozilgan she'ridagi ota, bola va hatto eshak obrazlari komik obrazlar sanaladi. Shoir atrofdagi odamlarning gap-so'zlari natijasida tezda fikrini o'zgartiradigan va to'g'ri fikr yurita olmaydigan odamlarning tipik vakili sifatida ota va o'gilning komik obrazini yarata olgan. Ularning asar voqeasidagi xatti-harakati kishida hech qanday nafrat uyg'otmaydi, aksincha, beozor kulgi olib keladi. Psixoanalitik talqinda komizm tushunchasi ko'proq kishining bolalik xotiralari bilan bog'liq, deyiladi. Bola boshqalarga nisbatan o'zining ustunligini

sezsa, kula boshlaydi. Masalan, yosh bolaning masxaraboz ustidan kulishinini eslang. Bunda masxaraboz niqobi ichidagi shaxs ustidan emas, tashqi xatti-harakati, gap-so'zlari ustidan kulishi yosh bolaning undan o'zini yuqori qo'yishi bilan xarakterlanadi.. Olim Uzoq Jo'raqulov "Psixozanaliz va badiiy ijod" deb nomlangan tadqiqotida komizmning assotsiativ xarakterini shunday izohlaydi: "Agar katta kishi katta kishining ustidan kula boshlasa, unda bolaga xos harakat va holatlarni ko'rgan bo'ladi. Kulgi obyektining bolalarcha harakati uni bolalikkka qaytaradi. Endi o'zining bola emasligini anglagan kishi, shu haqiqatni anglamagan kishi holatidan zavqlanadi va kuladi" [Жўрақулов 2006, 60]. Zo'rg'a oyoqqa turgan eshakni ota va bola ning navbatma-navbat minishga kelishib olishi kulgining bosh sababchisi bo'lib, she'r oxirida ota-bolaning har ikkalasi "bedarmon, yag'ir eshak" ka mingashib olishi komiklikni yana-da oshiradi. Eshak va ota-o'gilning holati xalqimizning "Eshagiga yarasha tushovi" degan naqlining ayni badiiy talqinidir.

### **Obraz-manzara**

Adabiyotda biror ijodkor yo'qki, ijodida tabiat manzaralari, tabiat obrazlari aks etmagan. Tabiatning o'zi buyuk ixtirochi sifatida badiiy ijodning, jumladan, she'riyatning bitmas-tuganmas ilhom manbayidir. Tabiat shoirnig tasvir ob'ekti sifatida turli-tuman ramkalarda beriladi. Obraz-manzara shoirning badiiy g'oyasi va ilhom manbayi sifatida quyidagi ko'rinishlarni o'z ichiga oladi:

- a) Sof peyzaj obraz;
- b) Shoirning his tuyg'ulari va tabiat tasviri uyg'unlashtirilgan obrazlar;
- c) Shoirning kechinmalari va biror fikr-g'oya uchun badiiy fon sifatidagi manzara-obrazlar.

Sof peyzaj obrazda tabiatning butun go'zalliklari, husn-u latofati, tarovati- yu malohati bilan birga uning bor qahr-u g'azabi, kuch-qudrati taassuroti bevosita ifodalanadi. Bunda falsafiy fikr, mushohadalarga unchalik zarurat sezilmaydi. She'r uchun bor materialni tabiatni o'zi beradi. Shoir Abdulla Oripov ijodida bunday obrazlarning yangidan yangi ko'rinishlarini, shakllarini uchratish mumkin.

*Borliq kiyib olgan moviy bir libos,  
Yel esar-bahorning pildiroqlari.  
Qalbingda uyg'onar ajib ehtiros,  
Aprel osmoning qaldirqlari [Oripov 2018, 58].*

Ikkinchidan, tabiat insonning ichki kechinmalarini, tuyg'ulari-

ni, ruhiy holatlarini aks ettirishning doimiy obyekti, vositasi sifatida shoirning ichki sezimlariga hamohang tarzda gavdalanadi. Endi tabiat tasviri faqat peyzaj lirikasigina bo'lib qolmasdan, balki o'ziga xos bir olam, azal va abadning sir-u sinoatlarini o'zida mujassamlashtirgan sirli va mo'jizakor maskan, tiriklik uchun zamin, ulug' rassom, buyuk daho, cheksiz bilimlar egasi donishmand ustoz qiyofasi kiradi. Inson-tabiat-koinot birligi sifatida parallel ravishda talqin qilinadi. Yog'ayotgan yomg'ir bir o'rinda ko'z yoshni ifodasi bo'lsa, yana bir o'rinda esa dildagi g'uborlarning to'kilishiga, boshqa o'rinda esa baraka ramziga qiyos qilinadi. Shoir Abdulla Oripov aytganidek: *"Yomg'ir yog'sa shoirlar, Erk berarlar miyaga. Tayyor mavzu topildi, Tizarlar qofiyaga"*.

Obraz-manzaraning an'anaviy ko'rinishlari ham borki, ular turli ijodkorlar ijodida shakl va uslubda farqlanib turadi. Masalan, yil fasllarining inson umriga mengzalishi Navoiy bobomizdan me'ros bo'lib bugunga qadar uning turli talqinlarini ko'rishimiz mumkin. Bunday talqinning original ko'rinishlaridan biri Abdulla Oripovning "Fasllarim" she'rida shunday aks ettirilgan.

*Yetaklashib qator va qator,  
Yo'ldan o'tdi yetmish besh bahor.  
U bahorlar meniki edi,  
Bolam, bari seniki endi.  
Yo'ldan o'tdi yoz bilan kuz ham,  
Ular menga bo'lganlar hamdam.  
Ikkovi ham meniku edi,  
Egalik qil, seniki endi.  
Ortda qoldi chamanlar, bog'lar,  
Yo'l so'ngida ko'rindi tog'lar.  
Muzliklarga borib yetdim men.  
Faqat qishni ola ketdim men [Oripov 2018, 369].*

Yil fasllarining o'tkinchiligi va bir me'yorda aylanib, birining o'rnini biri mufassal egallab turishini shoir lirik qahramon va uning farzandi umriga uyg'un holatda badiiy ifodasini yaratadi. Shoir nigo-hida fasllar va inson umriga xos individuallik badiiy umumlashma obrazga aylanadi.

Va nihoyat, manzara-obrazning uchinchi ko'rinishida tabiat butunligicha shoir qahramonining ruhiyatini, kayfiyatini ochib berish vositasi sifatida muayyan kechinma, his-tuyg'u uchun tashqi fon, ya'ni makon va zamonga aylanadi. Bunday she'rlarning go'zal namunasi Oybek, Cho'lpon, Abdulla Oripov, Mirtemir, Zulfiyaxonim va boshqa shoirlarning ijodida uchratish mumkin. Oybekning "Na-

matak" she'ridagi namatak obrazida ijodkorning so'nmas ruhi tasvirlangan bo'lsa, Cho'lponning "Go'zal" she'rida esa go'zal timsolida erk obrazi, Abdulla Oripovning "Bahor" she'rida manzara shoir tuyg'ularining obyektiga-umumiy kontekstiga aylanadi, ya'ni bahor manzarasi aslida falsafiy-lirik va tragik obraz uchun fon vazifasini bajaradi.

Manzara obrazlarni yaratish uchun shoirdan faqat shoirona iqtidor va o'tkir nigoh talab qilinmaydi. Tabiatni his qilish, uni eshita bilish, ohang va tovushlarini nozik qirralarigacha ilg'ay olish, musiqiy lavhalarni yarata bilish hamda qayta jonlantira olish muhim o'rin tutadi. Shundagina bu obraz oliy san'at hodisasiga aylanadi. Buyuk shoir hatto kichik zarradan ham ulkan obraz yarata oladi.

### **Xulosa**

Badiiy obrazda go'zallik va hayot haqiqati uyg'un holatda tasvirlanadi. Bunda obraz zimmasidagi estetik idealning ahamiyati uning mavjudligi bilan emas, balki olamni estetik o'zlashtirishdagi muhim o'rni va adabiyotdagi aniq vazifalari bilan belgilanishini unutmash kerak. Badiiy obraz tip va tasnifiga ko'ra qaysi guruhga mansub bo'lsa ham, kitobxonda qandaydir emotsiya(hissiyot) uyg'otishi kerak. Bu esa badiiy obraz uchun muhim omil sanaladi.

Yuqoridagi tasniflarimiz, albatta, nisbiy bo'lib, har bir ijodkor o'z pozitsiyasi va ilhomidan kelib chiqib obraz yaratadi. Shu nuqtayi nazardan adabiyotshunoslikda badiiy obraz turlicha tasnif qilinadi. Bu turlichalik tasnif uchun aynan qaysi jihat asos qilib olingani bilan bog'liqdir. Talqinning mukammalligini esa sinchining mahorati belgilab beradi.

### **Adabiyotlar**

Акрамов Б. 1979. *Шеъроят гавҳари (лирикада образ муаммоси)*.

Тошкент: Адабиёт ва санъат.

Аристотел. 1980. *Поэтика*. Тошкент.

Блок А. 1971. *О назначении поэта*. Москва, Сов. Россия.

Erkayev A. 2021. *Abdulla Oripov fenomeni*. Toshkent: Oltin-nashr.

Гёте. 1969. *Поэзия и правда*. Москва, Худож. Литература.

Жўрақулов У. 2006. *Худудсиз жилва*. Тошкент: Фан.

Жўрақулов У. *Назарий поэтика масалалари*. Тошкент: Ғафур Ғулом, 2015.

Oripov A. Sentabr she'rlari. <https://kh-davron.uz>.

Oripov A. 2021. *Shoirning tug'ilishi*. Toshkent: Adabiyot.

Oripov A. 2018. *Everest va Ummon*. Toshkent: O'zbekiston.

Quronov D va boshqalar. *Adabiyotshunoslik lug'ati*. Toshkent: Akadem-nashr, 2013.

- Quronov D. 2018. *Adabiyot nazariyasi asoslari*. Toshkent: Akademnashr.
- Тўпловчи Жўраев А. Онажон. Тошкент: Ўзбекистон, 2018.
- Храпченко М.Б. 1986. *Горизонты художественно-образного искусства*. Москва: Художественная литература.
- Jabborov, N. A., & qizi Ikromova, N. H. (2021). ABDULLA ORIPOVNING "HIKMAT SADOLARI" TURKUM SHE'RLARIDA PAYG'AMBAR OBRAZINING IFODALANISHI. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 279-283.
- Jabborov, N. (2022). Alisher Navoiy an'analaringining Abdulla Oripov she'riyatidagi poetik sintezi poetic synthesis of Alisher Navoi's traditions in the poetry of abdulla oripov. in *Library*, 22(1), 112-125. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/19399>
- Rahmonova, D. (2021). Ривож милят истар эрсанг. in *Library*, 21(1), 3-15. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/8139>
- Mirzakarimovna, R. D., & Kayumova, F. (2023). FACTORS OF RENEWAL OF THE POETIC IMAGE IN TAVALLO'S CREATION. *American Journal Of Philological Sciences*, 3(04), 48-53.
- Pardaev, K. (2019). MUKIMI'S SOURCE OF LYRICS AND COMPARATIVE ANALYSIS. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 8(10), 78-85.
- Amonov, S. (2020). Ahmad Tabibiy ijodi va uning "Munisul-ushshoq" devoni nusxalari. *Oltin bitiglar-Golden Scripts*, 1(1).



# Image classification and interpretation in lyrics

(In the example of Abdullah Oripov's poetry)

Boboqulova Uljon<sup>1</sup>

## Abstract

The concept of image, which is the basis of a work of art, has been considered the most important element of art since ancient times and until now. After all, an artistic image is the main tool that reflects the unique characteristics of a work of art. At the same time, it is also a component that expresses the aesthetic image of the world, a certain emotional state. Therefore, the concept of image is a very complex and at the same time comprehensive concept according to its characteristics and content. In one way or another, the reflection of objective reality in the human mind is the main root of the image in a broad sense. And the accompanying images grow from this first base. In this respect, according to the nature and classification of the image, it is distinguished in science, literature and art. This article aims to study the problem of classification and interpretation of images in lyric poetry on the example of poet Abdulla Oripov.

**Key words:** *Abdulla Oripov, poetic image, imagery, lyrics, human, classification and interpretation, experience, tragedy, individuality, generalization.*

## References

- Akramov B. 1979. *She'riyat gavhari (lirikada obraz muammosi)*. Toshkent: Adabiyot va san'at.
- Aristotel. 1980. *Poetika*. Toshkent.
- Blok A. 1971. *O naznachanii poeta*. Moskva, Sov. Rossiya.
- Erkayev A. 2021. *Abdulla Oripov fenomeni*. Toshkent: Oltin-nashr.
- Gyote. 1969. *Poeziya i pravda*. Moskva, Xudoj. Leteratura.
- Jo'raqulov U. 2006. *Hududsiz jilva*. Toshkent: Fan.
- Jo'raqulov U. 2015. *Nazariy poetika masalalari*. Toshkent: G'afur G'ulom.
- Oripov A. Sentabr she'rlari. <https://kh-davron.uz>
- Oripov A. 2021. *Shoirning tug'ilishi*. Toshkent: Adabiyot.
- Oripov A. 2018. *Yeverest va Ummon*. Toshkent: O'zbekiston.
- Quronov D va boshqalar. 2013. *Adabiyoshunoslik lug'ati*. Toshkent: Akadem-

---

<sup>1</sup>*Boboqulova S. Uljon* - Alisher Navoi PhD student of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

**E-mail:** uljonboboqulova8@gmail.com

**ORCID ID:** 0009-0005-9072-2748

**For citation:** Bobokulova, U.S. 2023. "Character classification and interpretation in lyrics". *Uzbekistan: language and culture. Literature* 1 (2): 121-136.

nashr.

- Quronov D. 2018. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Akademnashr.  
To'plovchi Jo'rayev A. Onajon. Toshkent: O'zbekiston, 2018.
- Xrapchenko M.B. 1986. *Gorizonti xudojestvenno obrazu*. Moskva: Xudojestvennaya literatura.
- Jabborov, N. A., & qizi Ikromova, N. H. (2021). ABDULLA ORIPOVNING "HIKMAT SADOLARI" TURKUM SHE'RLARIDA PAYG'AMBAR OBRAZINING IFODALANISHI. Academic research in educational sciences, 2(2), 279-283.
- Jabborov, N. (2022). Alisher Navoiy an'alarining Abdulla Oripov she'riyatidagi poetik sintezi poetic synthesis of alisher navoi's traditions in the poetry of abdulla oripov . in Library, 22(1), 112-125. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/19399>
- Rahmonova, D. (2021). Ривожи миллат истар эрсанг. in Library, 21(1), 3-15. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/8139>
- Mirzakarimovna, R. D., & Kayumova, F. (2023). FACTORS OF RENEWAL OF THE POETIC IMAGE IN TAVALLO'S CREATION. American Journal Of Philological Sciences, 3(04), 48-53.
- Pardaev, K. (2019). MUKIMI'S SOURCE OF LYRICS AND COMPARATIVE ANALYSIS. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 8(10), 78-85.
- Amonov, S. (2020). Ahmad Tabibiy ijodi va uning "Munisul-ushshoq" devoni nusxalari. Oltin bitiglar-Golden Scripts, 1(1).

---

## MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

O'zbekiston: til va madaniyat (O'zTM) – zamonaviy O'zbekiston (sobiq Turkiston) bilan bog'liq bevosita Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtiradigan til, tarix, san'at, etnografiya, madaniyat va ijtimoiy fanlar sohalarini qamrab olgan ilmiy jurnaldir. O'zTM munozarali, zamonaviy, innovatsion, konseptual jihatdan qiziqarli, original mavzudagi ilmiy tadqiqotlarni nashr qiladi. Jurnal lingvistika, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, din, falsafa, ilohiyot, fan, ta'lim, metodika, sotsiologiya, psixologiya, tarix, madaniyat, san'at, etnologiya, etnografiya, antropologiyaga oid ilmiy yo'nalishdagi maqolalar va taqrizlar hamda konferensiya hisobotlarini qabul qiladi.

### I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo'lyozmalar o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochta yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo'llash mumkin.

Barcha qo'lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16<sup>th</sup> Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbek va ingliz tillarida 100–150 so'zdan iborat abstrakt (Abstrakt) va 5–10 so'zdan kam bo'lmagan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbligi, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

### II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – to'q bo'yoqda, 14 hajm.

### III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

### IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasini qavs ichida ( ) satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

### V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [ ] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

### VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

#### V.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

**Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:**

[Xondamir, Makorim, 17<sup>a</sup>]

#### VII.2. Kitoblar uchun

**Bibliografiyada:**

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

**Matnda kitobga havola:**

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

**Matnda kitobga havola:**

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

**Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anijon, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

**Matnda kitobga havola:**

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

**Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174–184. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

**Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

**Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:**

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

### **Elektron kitobni bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*. Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

### **Matnda elektron kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mamatov 2018, 11]

### **Ikki mualliftomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

### **Matnda elektron kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

## **VII.3. Jurnal maqolasi uchun**

### **Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 – 8.

### **Matnda jurnal maqolasiga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

### **Elektron jurnal uchun:**

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarimas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

### **Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 – 253. doi: 10.36078/1596780051.

### **Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Aminov 2018, 248]

## **7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun**

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida

aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

### **Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi. Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

#### **Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

### **Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. "Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi".

*UZA: O'zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

#### **Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

#### **Adabiyotlar**

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

#### **Adabiyotlar**

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "*The Chicago Manual of Style, 16<sup>th</sup> Edition*" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

## **GUIDELINES FOR CONTRIBUTORS**

Uzbekistan: Language and Culture is an academic journal, publishing research in linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies. We aim to publish cutting edge, innovative, conceptually interesting, original case studies and new research, which shape and lead debates in multifaceted studies. We do not publish economic analyses or policy papers. Any opinions and views expressed in publications are the opinions and views of



the authors, and the publishers are not responsible for the views/ reviews of the contributors.

The journal is published four times a year. The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcomed. In addition to research articles, the journal welcomes book reviews, literature overviews, conference reports and research project announcements.

### **1. General**

- Submission Guideline

1. Manuscripts may be submitted at any time during the year. However, if the author wishes to have his/her manuscript published in a certain issue of the journal, the submission should be made at least five months in advance of the proposed publication date.

2) Manuscripts should be submitted by email (uzlangcult@gmail.com) as an attachment in MS Word document (.doc) format and use MS Word Source.

3) All manuscripts should be submitted with a cover page including an email address, a mailing address and a short introduction about the author(s) /contributor(s)'.  
'

### **2. Manuscript format**

1) The main texts should be written in Times New Roman font, 12 point, and single-spaced in 44 pagination with 1-inch margins.

2) Submissions must follow the author-date system of The Chicago Manual of Style, 16th Edition.

3) Quotations are given in brackets in the text.

4) A research article should normally be no more than 9,000 words in length, including the following contents:

- an abstract of 150-200 words (in English, Russian, and Uzbek) and seven to ten keywords;

- a list of references of no more than five (5) pages;

- tables and figures, if any.

5) A book review should generally be about 1,500 English words (or other languages) in length, and must include the heading and closing in the following format:

- Heading: Title of the Book. By Author's Name(s). City of Publication: Publisher Name, Year. pp. Price, ISBN:, (hardcover/paperback).

- Closing: Book reviewer's name, affiliation and postal address at the end.

6) Style Points Headings. Limit: Four levels.

Level 1. Title Style (e.g. the first letter of each word upper case, except prepositions), Bold, and 14 point.

Level 2. Title Style, Italics, 14 Point.

Level 3. Modified "down" style (first letter upper case, or first letter of first two words if the first word is an article), Bold, and 12 point.

Level 4. Modified down style, Bold, 11 point.

3. Style and Usage

### **1) Translation**

- Translated excerpts from classical texts or non-English sources

should be annotated with clarification of its original/published language and translator. Likewise, “Author’s own” translations of quoted texts should be noted as such.

- The author is expected to provide an English translation of key terms in the work, rather than a translator without expertise in the subject.

- Excerpts or quoted texts from published translation will not be edited. However, UzLC editors may query or modify translations of key terms or texts provided by the author.

- Where necessary, short supplementary information such as dates, an item in its original characters, or the Romanized form of a non-English item, may be included.

- Names of foreign publishers, and titles of sources published in a foreign language should primarily appear in Romanized form without translation. However, if necessary, a translation may be added in brackets ([ ]).

## **2) Names and Terms**

- Place Names (foreign):

Designation for division of areas should be either translated or hyphenated after the given area name.

Designation for geographical/structure names are not hyphenated, and appear without the equivalent English term.

Institutional names are considered proper nouns. Their names should appear following the preference of the individual institutions.

- 3) The descriptive designation of a period is usually lowercase, except for proper names or traditionally capitalized terms.

## **4. Quotation**

- 1) Block Quotations:

- A block quotation should start with double line spacing and an indentation from the left margin. From the second paragraph of the block quotation, additional paragraph indentation is needed.

Texts in block quotation should be written in Times New Roman 10 pts., and not be entirely italicized.

## **5. Others**

- 1) There is one space after sentence punctuation and not two.

- 2) The end parenthesis, closing quotation mark, and footnote numbers come after the sentence punctuation.

- 3) For parentheses within parentheses, use brackets ([ ]).

## **6. Basic Citation Format**

The following examples illustrate citations using the **author-date** system. Each example of a reference list entry is accompanied by an example of a corresponding parenthetical citation in the text. For more details and many more examples, see chapter 15 of *The Chicago Manual of Style*.

### **BOOK Reference List (hanging indent):**

Pollan, Michael. 2006. *The Omnivore's Dilemma: A Natural History of How Eating Has Evolved*. New York: Penguin.

**In Text Cite:**

[Pollan 2006, 99–100]

**Reference List (hanging indent):**

Ward, Geoffrey C., and Ken Burns. 2007. *The War: An Intimate History, 1941–1945*. New York: Knopf.

**In Text Cite:**

[Ward and Burns 2007, 52]

For four or more authors, list all of the authors in the reference list; in the text, list only the first author, followed by et al. (“and others”):

[Barnes et al. 2010, 847]

**Reference List (hanging indent) book chapter:**

Kelly, John D. 2010. “Seeing Red: Mao Fetishism, Pax Americana, and the Moral Economy of War.” In *Anthropology and Global Counterinsurgency*, edited by John D. Kelly, Beatrice Jauregui, Sean T. Mitchell, and Jeremy Walton, 67–83. Chicago: University of Chicago Press.

**In Text Cite:**

[Kelly 2010, 77]

Chapter of an edited volume originally published elsewhere (as in primary sources):

**Reference List (hanging indent) book originally published elsewhere:**

Cicero, Quintus Tullius. 1986. “Handbook on Canvassing for the Consulship.” In *Rome: Late Republic and Principate*, edited by Walter Emil Kaegi Jr. and Peter White. Vol. 2 of University of Chicago Readings in Western Civilization, edited by John Boyer and Julius Kirshner, 33–46. Chicago: University of Chicago Press. Originally published in Evelyn S. Shuckburgh, trans., *The Letters of Cicero*, vol. 1 (London: George Bell & Sons, 1908).

**In Text Cite:**

[Cicero 1986, 35]

**BOOK PUBLISHED ELECTRONICALLY**

If a book is available in more than one format, cite the version you consulted. For books consulted online, list a URL; include an access date only if one is required by your discipline. If no fixed page numbers are available, you can include a section title or a chapter or other number.

**Reference List (hanging indent):**

Austen, Jane. 2007. *Pride and Prejudice: A Novel in Five Books*. New York: Penguin Classics. Kindle edition.

**In Text Cite:**

[Austen 2007, 101]

**Reference List (hanging indent):**

Kurland, Philip B., and Ralph Lerner, eds. 1987. *The Founders' Constitution*. Chicago: University of Chicago Press. <http://press-pubs.uchicago>.

edu/founders

**In Text Cite:**

[Kurland and Lerner, chap. 10, doc. 19]

**JOURNAL ARTICLE**

**Article in a print journal**

In the text, list the specific page numbers consulted, if any. In the reference list entry, list the page range for the whole article.

**Reference List (hanging indent):**

Weinstein, Joshua I. 2009. "The Market in Plato's Republic." *Classical Philology* 104:439-58.

**In text cite:**

[Weinstein 2009, 440]

Article in an online journal

Include a DOI if the journal lists one. A DOI is a permanent ID that, when appended to <http://dx.doi.org/> in the address bar of an Internet browser, will lead to the source. If no DOI is available, list a URL. Include an access date only if one is required by your discipline.

**Reference List (hanging indent):**

Kossinets, Gueorgi, and Duncan J. Watts. 2009. "Origins of Homophily in an Evolving Social Network." *American Journal of Sociology* 115:405-50. doi:10.1086/599247.

**In text cite:**

[Kossinets and Watts 2009, 411]

**Article in a newspaper or popular magazine**

Newspaper and magazine articles may be cited in running text ("As Sheryl Stolberg and Robert Pear noted in a New York Times article on February 27, 2010..."); they are commonly omitted from a reference list. The following examples show more formal versions of the citations. If you consulted the article online, include a URL; include an access date only if your discipline requires one. If no author is identified, begin the citation with the article title.

**Reference List (hanging indent):**

Mendelsohn, Daniel. 2010. "But Enough about Me." *New Yorker*, January 25.

**In text cite:**

[Mendelsohn 2010, 68]

**Reference List (hanging indent):**

Stolberg, Sheryl Gay, and Robert Pear. 2010. "Wary Centrists Posing Challenge in Health Care Vote." *New York Times*, February 27. <http://www.nytimes.com/2010/02/28/us/politics/28health.html>.

**In text cite:**

[Stolberg and Pear 2010, 12]

**WEBSITE**

A citation to website content can often be limited to a mention in the text ("As of July 19, 2008, the McDonald's Corporation listed on its website

.."). If a more formal citation is desired, it may be cited as in the examples below. Because such content is subject to change, include an access date or, if available, a date that the site was last modified. In the absence of a date of publication, use the access date or last-modified date as the basis of the citation.

**Bibliography (hanging indent):**

Google. 2009. "Google Privacy Policy." Last modified March 11. <http://www.google.com/intl/en/privacypolicy.html>.

**In text cite:**

[Google 2009]

**Reference List (hanging indent):**

McDonald's Corporation. 2008. "McDonald's Happy Meal Toy Safety Facts." <http://www.mcdonalds.com/corp/about/factsheets.html>.

**In text cite:**

[McDonald's 2008]

## **IZOHLAR**

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

**Manzil:** Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos  
Hojib ko'chasi 103-uy.  
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.  
Website: [www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)  
E-mail: [uzlangcult@gmail.com](mailto:uzlangcult@gmail.com)

Bosishga 30.05.2023-yilda ruxsat etildi.  
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturasi.  
Shartli b.t. 7,51. Nashr b.t. 7,62.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida tayyorlandi va sahifalandi.  
"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.  
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №2.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,  
58-a harbiy shaharcha.